




RESULTS OF NATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH

Scientific journal



OpenAIRE



zenodo



Results of National Scientific Research

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL

TAHRIRIYAT| EDITORIAL

Editor in chief
M.Ermuxammedova

Executive Secretary
A.Aliyev

Bosh muharrir
M.Ermuxammedova

Mas'ul kotib
A.Aliyev

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI| MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

O. Muhammadiyeva

Terdu Falsafa kafedrasi o'qituvchisi Falsafa fanlari bo'yicha fan doktori (PhD)

U. To'lakov

Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti Moliya kafedrasi katta o'qituvchisi

F. Xolliyev

Termiz davlat universiteti Fizika-matematika fakulteti, Amaliy matematika va informatika kafedrasi o'qituvchisi

T. Mamadjanova

Iktisodiyot va menejment kafedrasi katta o'qituvchisi. (PhD)

A.Aliyev

Academic_uz jamoasi rahbari

M.Xolmo'minov

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Ilmiy-metodik markazi Bosh mutaxassisi

O. Muhammadiyeva

Teacher of the Department of Philosophy, Termez State University. Doctor of Philosophy(PhD)

U. Tulakov

Teacher of Department of Finance Faculty of Economics and Tourism, Termez State University

F. Xolliyeva

Teacher of Department of Applied Mathematics and Informatics,

Faculty of Physics and Mathematics, Termez State University

T. Mamajanova

Head Teacher of Department of Economics and Management. (PhD)

A.Aliyev.

Academic_uz team leader

M.Kholmominov.

Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan Scientific-methodical center Chief specialist

5 IYUL 2022

Vol-1 issue-3




<https://academicsresearch.com/index.php/rnsr>

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1	<i>Ne'matova Mahfuza Ma'rufjon qizi</i>	HARAKAT SEMALI LEKSEMALARNING BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHISI NUTQIDA TUTGAN O'RNI.	5
2	<i>Gulnora Umurzaqova Abdubannopovna</i>	XODIMLARNI MEHNATGA MOTIVATSIYALASHNING INNOVATSION YO'LLARI	10
3	<i>Zaynutdinova Gulxayo Latipovna</i>	MATEMATIKA DARSLARIDA QIZIQARLI O'YINLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI	17
4	<i>Iqboloy Fatxiddinova Faroxiddin qizi Fatkhiddinova Iqboloy Faroxiddin qizi</i>	UNDALMA STILISTIK VOSITA SIFATIDA	32
5	<i>Azamova Nargiza Ulug'bekovna Nazokat Moxirovna,</i>	BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	35
6	<i>Samatova Dilnoza Salaidinovna, Omankulova Shohida Nematillo qizi</i>	PECULIARITIES OF PERFORMANCE OF UZBEK FOLK INSTRUMENTS	43
7	<i>Samatova Dilnoza Salaidinovna Omankulova Shohida Nematillo qiz</i>	PEDAGOGICAL BASES OF FORMATION OF MUSICAL PERFORMANCE SKILLS IN STUDENTS.	47
8	<i>N.O.Saidova, M.Sh.Yigitaliyeva</i>	MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING MATEMATIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH	53
9	<i>Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi</i>	MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA KOMPYUTERLI O'QITISH TEXNOLOGIYALARIDANFOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI	60
10	<i>Teshabaeva Odina Nasridinovna Isroilov Husanboy Ibrohimjon ўгли</i>	МОЛИЯВИЙ МЕХАНИЗМ ВА УНИНГ СУВ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДАГИ РОЛИ	66
11	<i>Teshabaeva Odina Nasridinovna Niшонбоев Дониер Эркинjon угли</i>	ЎЗБЕКИСТОНДА ДАВЛАТ БЮДЖЕТИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	75
12	<i>B.A.Xolmatov N.K.Xudoynazarova</i>	REAL SEKTORNING SANOAT TARMOG'INI MAHALLIYLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA ERISHILGAN NATIJALAR VA ISTIQBOLDAGI REJALAR	83
13	<i>Teshabaeva Odina Nasridinovna Юлдашева Дилафруз Абдумаликовна Нумонов Муслимбек Абдушукур ўгли</i>	ЎЗБЕКИСТОНДА БАНК ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИ БОШҚАРУВИ ВА РИВОЖЛАНИШИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ	91
14	<i>Teshabaeva Odina Nasridinovna Содиқов Нажибулло Асадулло ўгли</i>	ЎЗБЕКИСТОНДА ЎРТА МУДДАТЛИ БЮДЖЕТ-СОЛИҚ СИЁСАТИ СТРАТЕГИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ	98
15	<i>Таджибаев Закир Маликович Собирова Лобархон Абдулхамидовна</i>	КИЧИК БИЗНЕС ВА УНИ ЮКСАЛТИРИШ ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЁТНИНГЖАДАЛЛАШТИРИШНИ МУҲИМ ОМИЛИ	105
16	<i>Бозорова Руфина Шароповна</i>	СУВ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖОЙ НОМЛАРИНИНГ ЛИСОНИЙ ҚАТЛАМЛАРИ ТАҲЛИЛИ	112
17	<i>Mirzoyev Dilshod Po'lotovich Amrullayev Behzod Bobur o'g'li Xolbo'tayev Axror Valijon o'g'li</i>	MUQOBIL ENERGIYA MANBALARINI ENERGIYA ZAHIRALARIDAGI O'RNI.	119
18	<i>Mirzoyev Dilshod Po'lotovich Amrullayev Behzod Bobur o'g'li</i>	QISHLOQ VA SUV XO'JALIGIDA ELEKTRLASHTIRISH VA AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARINI O'RNI.	123
19	<i>Idiyeva Lola Narziyeva Madinabonu Kerimov Ruslan</i>	USING SWOT ANALYSIS IN EDUCATION	126
20	<i>Tolibjonov KHurshidbek Yetmishboev Shakhzodbek Azamov Shoxruxmirzo</i>	SHAPING ECOSYSTEMS AND BEYOND BANKS	132

21	<i>Abdurahmonov Islom Abdulakim o'g'li Jumayeva Mukarrama Bekzod qizi</i>	INGLIZ TILIDA GAP STRUKTURASINING TIZIMLINISHIDA YORDAMCHI SO'Z TURKUMLARINING ROLI	137
22	<i>Zokirova Diyora Iqboljon qizi</i>	ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA SATIRA VA YUMOR	141
23	<i>Yoqubboyeva Shoxista To'raxon qizi</i>	BADIIY MATNDA METAFORALARNING AHAMIYATI	147
24	<i>Qo'chqorova Parizoda Abror qizi</i>	YURTIMIZDA KOREYS TILINI O'RGATISHNING AHAMIYATI	152
25	<i>Мелибоева Сарвиноз Собиржон қизи Жураева Камола Fayratovna</i>	ЎЗБЕКИСТОНДА КАМБАҒАЛЛИКНИ ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ АМАЛИЁТДАГИ АХВОЛИ ВА УНИНГ МАВЖУД ИМКОНИЯТЛАРИ	157
26	<i>Ahmedova Umidakhon Kadirzhanovna Rakhmankulova Nargizakhon Abdumannapova Madinabonu Fazliddin qizi</i>	FACTORS INFLUENCING THE SOCIALIZATION OF THE INDIVIDUAL	164
27	<i>Turdiyeva Umidaxon O'rol qizi</i>	TURIM BOZORIDA LOGISTIKANING TUTGAN O'RNI VA FUNKTSIYALARI	169
28	<i>To'raboyeva Farangiz Shermuhammad qizi</i>	AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TASVIRIY SAN'ATI VA MINIATYURA MAKTABLARINING RIVOJLANISHI.	174
29	<i>Sharipova Maftuna Yunusbek qizi, Farxodova Surayyo Nizomiddin qizi, Xaitboyeva Go'zal Soburovna</i>	SALAT BARGI VA UNING KASALLIKLARGA CHIDAMLILIGI	180
30	<i>Ilimbayev Sardor</i>	TADBIRKORLIK FAOLIYATI ERKINLIGINING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI	182
31	<i>Azizov Aktam Sharipovich, Nasibaliyev Jamshid</i>	QAND JO'XORINING XALQ XOJALIGIDAGI AXAMIYATI	188
32	<i>Abduraxmonov Aziz Mahmud o'g'li</i>	THEORETICAL FOUNDATIONS AND CALCULATION METHODS OF ENERGY-SAVING MODES OF AUTOMATED ELECTRICAL VEHICLES	194



**HARAKAT SEMALI LEKSEMALARNING
BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHISI
NUTQIDA TUTGAN O'RNI.**

Farg'ona davlat universiteti

1-bosqich magistranti

Ne'matova Mahfuza Ma'rufjon qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6635428>

Annotatsiya. Ushbu maqolada harakat semali leksemalarning boshlang'ich sinflarda o'rganilishi, ularning ahamiyati hamda fe'l mavzusini o'rganishda yengillik yaratish uchun bir necha metodlardan foydalanish mumkinligi yoritilgan. Shuningdek, fe'l so'z turkumi o'quvchining asosiy lug'at boyligini qamrab olganligi va nutqimizda eng ko'p ishlatiladigan so'zlar aynan harakatga oid so'zlar ekanligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Harakatni bildirgan leksemalar, fe'l, leksema, sema, lingvistik xususiyatlar, fe'l zamonlari, leksik ma'no.

Annotation. This article discusses the study of action semantic lexemes in the primary grades, their importance, and the use of several methods to facilitate the study of the subject of the verb. It has also been suggested that the verb phrase covers the reader's basic vocabulary, and that the most commonly used words in our speech are action words.

Key words. Lexemas denoting action, verb, lexeme, sema, linguistic features, lexical meaning.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga fe'lni o'rgatishda maqsadga qaratilgan ishlar harakatni bildirgan so'zlar mavzusini tushuntirishdan boshlanadi. Fe'lning lingvistik xususiyatlari murakkab bo'lganligi uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga faqat bu mavzuning nazariyasi tushuntirib o'tiladi. Fe'l so'z turkumini o'rganish o'quvchilarning bilish imkoniyatiga qarab belgilanadi¹.

¹ G'apurova T. "O'quv qo'llanma".

Barchamiz bilamizki, fe'l mavzusi 1-sinf dan boshlab o'rganiladi.

1-sinfda so'zlarning ma'nosiga 23 soat.

2-sinfda harakat ma'noli leksemalarga 54 soat.

3-sinfda fe'l aynan so'z turkumi sifatida o'rganilib unga jami 64 soat .

4-sinf fe'l so'z turkumiga jami 28 soat ajratilgan.

Demak, bundan ko'rinib turibdiki harakat semali leksemalarni o'rganish ham o'quvchining yoshiga qarab kengayib boraveradi.

Masalan: boshlang'ich sinf o'quvchisi dastlab alifbe darsligini o'rganish jarayonida kichik bo'g'inlardan so'zlar, so'zlardan esa gaplarni hosil qilish ko'nikmasini o'zlashtirib boradi, bu jarayonda esa albatta harakat ma'noli so'zlardan foydalana boshlaydi. Ularga dastlab ushbu mavzu shunchaki tor doirada harakatni bildiruvchi so'zlar ya'ni "nima qilmoq" so'rog'ini qabul qiluvchi so'zlar deb o'rgatiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar vaqt o'tishi bilan fe'llarni jismoniy faoliyat yoki aqliy faoliyat natijasida vujudga kelganligiga qarab harakat va holat fe'llariga ajrata boshlaydilar.

Bu jarayonni ularning ongiga osonroq singishi uchun albatta ko'rgazmali qurollar, rasm va plakatlar, video lavhalar bilan ko'rsatish va hayotiy misollar keltirish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf o'quvchisi dastlab fe'l haqida nuqtalar o'rniga so'z qo'yish yoki nima qilmoq so'rog'iga javob bo'lishidan aniqlab olsa 4-sinfga kelib aynan shu so'roqni qabul qiluvchi so'zlar mustaqil so'z turkumlari doirasiga kiruvchi fe'l ekanligini yaqqol ajrata oladi. Va shu bilan birgalikda undagi zamonlar, shaxs-son tushunchalari nima ekanligi

-- ularning nechi shaxsda tuslanishi,

-- nima uchun aynan fe'lga eng oxiri bo'lib qo'shilishi,

-- o'tgan va hozirgi zamon qo'shimchalariga boshqa alohidadan shaxs-son shakllari ishlatilishini bilib borishadi.

Hattoki boshlang'ich sinf o'quvchisi kichik yoshda bo'lishiga qaramay fe'l yasovchi qo'shimchalar va ularning leksik xususiyatlarini ham o'zlashtiradi.

Masalan: Bahorda daraxtlar gullaydi, atrof go'zallashadi, hamma odamlar hasharga chiqadi, yerlar yumshatiladi.

Ushbu misolda qatnashgan fe'llarni aniqlang va ulardan qaysi birida fe'l yasovchi qo'shimchalar ishtirok etganini ayting kabi savollarga to'liq javob bera olish ko'nikmasi shakllanadi.

Yoki turli so'z turkumini yasovchi qo'shimchalar aralashtirib berilganda o'quvchi ular orasidan fe'l yasovchisi qaysi ekanligini ajrata olishi kerak bo'ladi.

Masalan: aynan shu topshiriqni bolalarga ko'rgazmali qurol yordamida berilsa yanada fe'l yasovchi qo'shimchalarni eslab qolishi oson bo'ladi.

Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'quvchisi fe'lning quyidagi lingvistik xususiyatlari bilan tanishtiriladi.

1. so'roqlar bilan topilishi
2. fe'llarning zamon ko'rsatkichini qabul qilishi
3. zamonlarning 3 ga bo'linishi va har qaysi birining alohidadan so'rog'I borligi
4. fe'llarda bo'lishli va bo'lishsizlik
5. o'timli va o'timsizli

Yuqorida sanab o'tgan nazariy tushunchalar bosqichma-bosqich o'quvchining ongiga singdirib boriladi. Bundan tashqari fe'l mavzusini o'rganish jarayonida quyidagi mashq turlaridan foydalanish mumkin:

Quyidagi savollarga javob bo'ladigan so'zlardan gap tuzish: Kim? Qayerda? Nima qildi? (bolalar lagerda dam oldilar.)

Nuqtalar o'rniga gapning mazmuniga mos fe'lni qo'yib o'qing va yozing. O'quvchilar berilgan yaqin ma'noli fe'llardan mosini tanlaydilar. Masalan, biz xayvonot bo'gini ... (aylanmoq, sayr etmoq) Bunday mashqlar sinonim fe'llarni ma'no ottenkasiga qarab farqlashga o'rgatadi.

Qarama – qarshi ma'noli fe'llarni topib gaplarni to'ldiring. Masalan, birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar.

Nuqtalar o'rniga maqolning mazmuniga mos bo'lishsiz fe'llarni yozing. (mehnatdan ..., mehnatdan qo'rq) (gap bilan ..., ish bilan shosh).

3- sinfdagi o'quvchilarga fe'llarning shaxs son qo'shimchalari bilan tuslanishi, fe'l zamonlari qo'shma fe'llar haqida bilim beriladi.


O'quvchilar nutqini fe'llar bilan boyitish hamda og'zaki va yozma nutqida fe'llardan foydalanish ko'nikmasini o'stirish vazifalari interfaol usullardan foydalangan holda bosqichma-bosqich hal etib boriladi.

Fe'lni o'rganishda maqsadga qaratilgan ishlar harakatni bildirgan so'zlar mavzusini o'rganishdan boshlanadi (1-sinf, o'quv yilining 2-yarmi). Fe'l leksik ma'nosi bilan grammatik ma'nosi (harakat bildirishi) mos keladigan (nima qilyapti?) yugurayapti, arralayapti, sakrayapti, (nima qildi?) yugurdi, arraladi, sakradi, (nima qiladi?) yuguradi, arralaydi, sakraydi kabi misollardan foydalanish bilan, o'quvchilar o'zlari bajargan harakatlarni aytishni so'rab, ular bergan javobini (fe'lni) so'roqlari bilan xattaxtaga yozib, suhbat o'tkazish bilan tushuntiriladi. O'quvchilarni so'roq berish bilan holat bildiradigan uxlayapti, o'ynayapti, faxrlanadi kabi fe'llarni ham tanlashga o'rgatib borish muhim ahamiyatga ega. Bunday mashqlar o'quvchilarda predmet harakatini keng ma'noda tushunish ko'nikmasining shakllana borishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. G'apbarova T. " o'quv qo'llanma"
2. Ra'no Ikromova, Xolida G'ulomova, Sharofat yo'ldasheva, Dilorom Shodmonqulova " Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinf Ona tili darsligi". T. 2017
3. <https://www.litdic.ru/kalambur/>
4. Sh.M.Mirziyoyev "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" – Toshkent 2017. "O'zbekiston"
5. <http://hozir.org/nutq-kamchiliklarini-aniqlash-va-tekshirish-metodikasi.html>.uz
6. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D., 4-sinf Ona tili. Darslik – Toshkent, 2017.

7. Valijonovna, K. I., & Askaraliyevna, U. M. (2021). Use of Modern Information Technologies in Literacy Classes. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 268-273.
8. ХОЛДАРОВА, И. В. (2021). ХАЛҚ ТОПИШМОҚЛАРИ ВА ГЕНЕРАТИВ ЛЕКСЕМАЛАР. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(2).
9. Valijonovna, K. I., & Askaraliyevna, U. M. (2021). Use of Modern Information Technologies in Literacy Classes. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 268-273.
10. Zokirov, M. T., & Zokirova, S. M. (2020). Contrastic analysis at the phonetic level. *Academic Leadership (Online Journal)*, 21(05), 163-169.
11. Zokirova, S. M. (2021). FORMATION OF CREATIVE LITERACY IN MODERN YOUTH AND THE VALUE OF MNEMONIC TECHNOLOGY. *Theoretical & Applied Science*, (4), 240-243.
12. Zokirova, S. M., & Axmedova, D. O. (2021). WORKING WITH BORROWINGS GIVEN IN DICTIONARIES OF PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS. *Theoretical & Applied Science*, (3), 275-278.



XODIMLARNI MEHNATGA MOTIVATSIYALASHNING INNOVATSION YO'LLARI

Gulnora Umurzaqova Abdubannopovna

"KXUMJTITOQBIK" DUK Farg'ona viloyati hududiy filialida yetakchi
mutaxassis

Far DU Iqtisodiyot yo'nalishi 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6635433>

***Annotatsiya:** Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq-atvorini tushuntirish uchun psixologiyada motivatsiya va motiv tushunchalari ishlatiladi. Motivatsiya tushunchasimotiv tushunchasidan kengroq ma'noga ega. Motivatsiya inson xulq-atvori uning bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Bu tushuncha u yoki bu shaxs xulqini tushuntirib berish kerak bo'lganda ishlatiladi.*

***Kalit so'zlar:** Motivatsiya, Motiv, xulq-atvor, Mehnat motivatsiyasi, Ehtiyoj, moddiy rag'batlantirish, maqsad, G'arbda mehnat motivatsiyasi, Motivatsiyaning zamonaviy nazariyalari.*

KIRISH

Mehnat inson taraqqiyotining asosiy manbaidir, uning favqulodda ehtiyoji. Mehnat orqali inson o'z borligini boyitadi va kengaytiradi, o'z g'oyalarini moddiylashtiradi. Mehnatda nafaqat mehnat texnikasi, balki insonning mehnatga munosabati, mehnat faoliyatining asosiy motivlari ham muhim ahamiyatga ega².

Inson omilining xususiyatlari zamonaviy dunyoda jamiyatdagi sezilarli o'zgarishlar ta'sirida o'zgarish, shuningdek, u rivojlanadi (ta'limning o'sishi, umumiy madaniyat, hayot sifati). Mehnatkash shaxsini takomillashtirish tizimli jarayondir. Bu ishlab chiqarishning yangi axborot-kompyuter texnologik usuliga o'tish munosabati bilan eng yaqqol namoyon bo'ladi. Mehnatni insonparvarlashtirish

² Odegov, Yu.G. Xodimlarni boshqarish. Samaradorlikni baholash: Universitetlaruchun darslik / Yu.G.Odegov, L.V.Kartasheva. - M.: Imtihon, 2012. -- 256 b.

jarayoni demakdir. « insonparvarlashtirish"- ya'ni mehnat sharoitlarini yaxshilash, uning madaniyatini oshirish, xodimning ijodiy o'zini o'zi anglashi uchun sharoit yaratish. Shunday qilib, mehnat asos va ajralmas holat odamlarning hayoti. Atrof-muhitga ta'sir qilish tabiiy muhit Uni o'zgartirib, o'z ehtiyojlariga moslashtirib, odamlar nafaqat mavjudligini ta'minlabgina qolmay, balki jamiyat taraqqiyoti va taraqqiyoti uchun sharoit yaratadilar.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mehnat faoliyati shaxs uning ijtimoiy xulq- atvorining bir turidir. Mehnat faoliyati - bu vaqt va makonda qat'iy belgilangan, birlashgan odamlar tomonidan bajariladigan operatsiyalar va funktsiyalarning oqilona seriyasidir. mehnat tashkilotlari. Xodimlarning mehnat faoliyati bir qator vazifalarni hal qilishni ta'minlaydi:

-inson va butun jamiyat hayotini ta'minlash vositasi sifatida moddiy boyliklarniyaratish;

- turli maqsadlar uchun xizmatlar ko'rsatish;

- ilmiy g'oyalar, qadriyatlar va ularning amaliy analoglarini ishlab chiqish;

- axborotni va uning tashuvchilarini to'plash, saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish, uzatish;

- shaxsning xodim va shaxs sifatida rivojlanishi va boshqalar.

Mehnat faoliyati - usuli, vositalari va natijalaridan qat'i nazar, bir qator umumiyxususiyatlar bilan tavsiflanadi:

-mehnat operatsiyalarining ma'lum funktsional va texnologik majmuasi;

- mehnat sub'ektlarining kasbiy, malakaviy va ish tavsiflarida qayd etilgan tegishli sifatleri majmui;

- amalga oshirishning moddiy-texnik sharoitlar va fazoviy-vaqt doirasi;

- ma'lum bir tarzda tashkiliy, texnologik va iqtisodiy aloqa mehnat sub'ektlariularni amalga oshirish vositalari bilan;³

³ Jalilov J.G'. Sanoat korxonalarini marketing faoliyatida motivatsiya usullaridanfoydalanishni ttakomillashtirish.2018.

tashkil etishning normativ-algoritmik usuli,
bu orqali shaxslarning xulq-atvor matritsasi
kiritilgan ishlab chiqarish jarayoni(tashkiliy va boshqaruv tuzilmasi).

Mehnat faoliyatining har bir turini ikkita asosiy xususiyatga bo'lish mumkin: psixofiziologik mazmun (sezgi organlari, mushaklar, fikrlash jarayonlari va boshqalar); va ish olib boriladigan sharoitlar. Mehnat faoliyati jarayonida jismoniy vaasabiy yuklarning tuzilishi va darajasi ushbu ikki xususiyat bilan belgilanadi: jismoniy - mehnatni avtomatlashtirish darajasiga, uning sur'ati va ritmiga, asbob-uskunalar, asboblari, jihozlarni joylashtirishning dizayni va oqilonaligiga bog'liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Shunday qilib, umuman olganda, biz vosita tarkibiy qismlarining qisqarishi va mehnat faoliyatining aqliy komponentining ahamiyatini oshirish haqida gapirishimiz mumkin. Bundan tashqari, NTP xodimni ishlab chiqarish xavfli va xavfli zonadan olib chiqish uchun texnik shartlarni yaratadi, ijrochining himoyasini yaxshilaydi va uni og'ir va muntazam ishlardan ozod qiladi. Biroq, vosita faolligining haddan tashqari pasayishi gipodinamiyaga aylanadi. Asab yuklarining o'sishi jarohatlar, baxtsiz hodisalar, yurak-qon tomir va nevropsikiyatrik kasalliklarga olib kelishi mumkin.

Inson mehnat faoliyatining tasnifi va uning o'ziga xos xususiyatlari

Mehnat motivatsiyasi - bu tashkilotning maqsadlariga erishish, qabul qilingan qarorlar yoki rejalashtirilgan ishlarni samarali amalga oshirishga qaratilgan alohida ijrochini yoki bir guruh odamlarni mehnatga rag'batlantirish jarayoni. Ushbu ta'rif motivatsiyaning boshqaruv va individual psixologik mazmuni o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni ko'rsatadi, chunki ijtimoiy tizim va shaxsni boshqarish, texnik tizimlarni boshqarishdan farqli o'laroq, zarur element sifatida, muvofiqlashtirishni o'z ichiga oladi. boshqaruv ob'ekti va sub'ektining zanjirlari. Uning natijasi boshqaruv ob'ektining mehnat xatti-harakati va pirovard natijada mehnat faoliyatining ma'lum bir natijasi bo'ladi. R.Ouen va A.Smit pulni yagona rag'batlantiruvchi omil deb hisoblashgan.

Ba'zi olimlarning fikricha, insonning harakati uning ehtiyojlari bilan belgilanadi. Boshqa mavqega ega bo'lganlar, insonning xatti-harakati ham uning idroklari va kutishlari funktsiyasi ekanligidan kelib chiqadi.

Motivatsiyani ko'rib chiqayotganda, insonni harakatga keltiradigan va uning harakatlarini kuchaytiradigan omillarga e'tibor qaratish kerak. Asosiylari: ehtiyojlar, qiziqishlar, motivlar va rag'batlantirishlar. Ehtiyojlarni to'g'ridan-to'g'ri kuzatish yoki'lchash mumkin emas, ular faqat odamlarning xatti-harakati bilan baholanishi mumkin.

Ehtiyojlarni insonga o'zi uchun qadrlidi deb bilgan narsalarni berish orqali mukofotlash orqali qondirish mumkin. Ammo "qiymat" tushunchasida turli odamlar turli xil ma'nolarni qo'yadilar va shuning uchun ularning ish haqini baholashlari ham farqlanadi. Misol uchun, badavlat odam bir necha soatlik oilaviy vaqtni tashkilot manfaati uchun ortiqcha ishlagani uchun oladigan puldan ko'ra o'zi uchun mazmunliroq deb bilishi mumkin. Ilmiy muassasada ishlaydigan odam uchun, masalan, nufuzli supermarketda sotuvchining vazifalarini bajarish orqali oladigan moddiy manfaatlardan ko'ra, hamkasblarining hurmati va qiziqarli ishi qimmatroq bo'lishi mumkin⁴.

Inson ishdan "ichki" mukofot oladi, o'z ishining ahamiyatini his qiladi, ma'lum bir jamoani his qiladi, hamkasblari bilan do'stona munosabatlarni o'rnatishdan qoniqish hosil qiladi. O'z-o'zini ifoda etish zarurati. Hurmatga bo'lgan ehtiyoj. Ijtimoiy ehtiyojlar. O'z-o'zini himoya qilish zarurati. fiziologik ehtiyojlar. [4] Motivatsion jarayon birin-ketin quyidagi bosqichlar ko'rinishida ifodalanishi mumkin: xodimning o'z ehtiyojlarini imtiyozlar, tanlov tizimi sifatida bilishi. eng yaxshi yo'l muayyan turdagi haq olish, uni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilish; harakatni amalga oshirish; ish haqi olish; ehtiyojni qondirish. Motivatsiyaga asoslangan boshqaruvning o'zagi eng yaxshi natijalarga erishish uchun mehnat jarayoni ishtirokchilarining manfaatlariga ma'lum darajada ta'sir qiladi.

⁴ Abraxam Maslou. Motivatsiya i lichnost. Piter. 2012.

Motivatsiyaga asoslangan mehnatni boshqarish uchun bunday shartlar xodimning moyilligi va manfaatlarini aniqlash, uning shaxsiy va kasbiy qobiliyatlarini hisobga olish, jamoada va ma'lum bir shaxs uchun motivatsion imkoniyatlar va alternativlarni aniqlash kabi zarurdir. Mehnat jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy maqsadlaridan va tashkilotning

maqsadlaridan to'liqroq foydalanish kerak. Motivatsiya vazifalariga quyidagilar kiradi:

- 1) har qanday tashkilotda mehnat motivatsiyasining ma'nosini tushunadigan xodimni shakllantirish;
- 2) xodimlarni psixologik ichki tashkiliy xulq-atvor va muloqotga o'rgatish;
- 3) boshqaruv xodimlarini tashkilot ichidagi xulq-atvor va muloqotga o'rgatish;
- 4) motivatsiyaning turli innovatsion usullaridan foydalangan holda xodimlarni boshqarishga demokratik yondashuvlarning barcha yetakchilarini shakllantirish. [6]

Tashqaridan qo'yilgan hech qanday maqsad insonda uning "ichki" maqsadiga, keyin esa "ichki" harakat rejasiga aylanmaguncha, uning sa'y-harakatlarini kuchaytirishga qiziqish uyg'otmaydi. Shu sababli, yakuniy muvaffaqiyat uchun xodim va korxonada maqsadlarining mos kelishi katta ahamiyatga ega.

Ushbu muammoni hal qilish uchun mehnat samaradorligini oshirishni rag'batlantirish mexanizmini yaratish kerak. Bu korxonani boshqarish tizimidan xodimlarga ta'sir o'tkazish, shaxsiy ehtiyojlarni qondirish zaruratidan kelib chiqib, tashkilot maqsadlariga erishish uchun ularni mehnat jarayonida muayyan xatti-harakatlarga undash usullari va usullari to'plamini anglatadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, motivatsiya uning kasbiy faoliyatining muvaffaqiyati va samaradorligini belgilovchi asosiy shartdir. Motivatsiya - faollikni

rag'batlantirish, o'zini va boshqalarni mehnatga undash, shaxsiy, jamoaviy va ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun inson xatti-harakatlariga ta'sir qilish jarayoni⁵.

Motivatsiya usullaridan foydalanish har tomonlama, ma'muriy, iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik ta'sir usullarini birlashtirgan bo'lishi kerak, shunda pedagogik faoliyatga boshqaruv ta'siri samarali bo'ladi. Qo'llanilishi mumkin bo'lgan axloqiy rag'batlantirishning asosiy usullari: Yaxshi bajarilgan ish uchun e'tirof - maqtov, maqomni oshirish. Ommaviy axborot vositalarida maqolalar va yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni joylashtirish. Kasbiy mahorat musobaqalarini tashkil etish. Faxriy taxtalar. Tashkilotdan sovg'alar. Professional sodiqlik. Tashakkurnomalarni taqdirlash. Shunday qilib, xodimlarni rag'batlantirish uchun motivatsiyaning turli usullari va vositalaridan foydalanish mumkin. Samarali rag'batlantirish tizimi xodimlar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy voqelikni va shaxsiy xususiyatlarni hisobga olgan holda moddiy va nomoddiy rag'batlantirishni o'zichiga olishi kerak. Taklif etilgan tavsiyalarning amalga oshirilishi xodimlarning motivatsiyasini oshiradi, faollik, tashabbuskorlik, mas'uliyat namoyon bo'lish uchun shart-sharoitlarni amalga oshiradi, hamkorlik muhitini yaratadi. Bu korxonalarining innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishini osonlashtiradi. Ushbu


tadqiqot natijalari to'liq deb da'vo qilmaydi. Biroq, zamonaviy xodimlarni boshqarish tajribasini tahlil qilish, ishchilarning mehnat faoliyatini rag'batlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini tushunishga asoslanib, ular mehnat faoliyati uchun motivatsiyani rivojlantirishga haqiqiy hissa bo'lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lukash, Yu.A. Motivatsiya va xodimlarni samarali boshqarish / YA Lukash. - M.: Finpress, 2012. -- 208 b.
2. Odegov, Yu.G. Xodimlarni boshqarish. Samaradorlikni baholash: Universitetlar uchun darslik / Yu.G. Odegov, L.V. Kartasheva. - M.: Imtihon, 2012. - 256 b.

⁵ Lukash, Yu.A. Motivatsiya va xodimlarni samarali boshqarish / YA Lukash. - M.: Finpress, 2012. -- 208 b.

3. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. - T., O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. 2010.
4. Abraxam Maslou. Motivatsiya i lichnost. Piter. 2012.
5. Jalilov J.G'. Sanoat korxonolari marketing faoliyatida motivatsiya usullaridanfoydalanishni ttakomillashtirish.2018.
6. Мухамеджанова Л.А. (2021). РОЛЬ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ. Вестник Евразийского национального университета имени Л. Н. Гумилева. Серия: Исторические науки. Философия. Религиоведение, (2 (135)), 123-133.



MATEMATIKA DARSLARIDA QIZIQARLI O`YINLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

Zaynutdinova Gulxayo Latipovna

Navoiy viloyati Zarafshon shahar XTB bo`limiga qarashli

11- MFFCHO`IDU maktabi boshlang`ich sinf o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6635440>

Annotatsiya Bugungi kunda barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar ta'lim tizimi oldiga ham ulkan vazifalarni qo'ymoqda. Bu albatta pedagoglar zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Shu maqsadda ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etilayotgan dasturlar natijasida farzandlarimizni bizdan ko'ra kuchli, bilimli don ova albatta, baxtli bo'lishiga zamin yaratilmoqda. Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, o'quvchilarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatish lozim. Ta'lim jarayonida o'quvchining mustaqil bilim olish jarayoni shakllanib borishi bugungi kunning talabidir.

Eng asosiysi, darsda samaradorlikka erishiladi, mavzuni idrok etish osonlashadi, o'quvchilar dars jarayonida zerikmaydi. Fikrlash qobiliyati ta'limiy o'yinlarda ham, mehnatda ham rivojlanadi. Fikr esa inson oldida eng oddiy bo'lsada biror muammoni yoki vazifa tugagandagina paydo bo'ladi. Bunda ko'p narsa insonning aql-zakovatiga, intellektual qobilyatiga ham bog'liq. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun matematika darslarida qiziqarli o'yinlarni o'tkazishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi davrdagi eng dolzarb muammolardan biri ta'lim sifatini oshirib, samaradorlikka erishishdan iboratdir. Buning uchun turli innovatsion texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Bolani dars davomida bilimni to'la mavzu asosida egallashiga bir xil faoliyat bilan erishib bo'lmaydi. Bu bolaning yosh qobiliyatini charchatadi, zeriktiradi. O'yin faoliyati esa yosh bolalarni qiziqarli hayotiy ehtiyojlarini qamrab,

qiziqishlarini oshirib boradi. Har bir misol, masalani turli usullar, qiziqarli o'yinlar orqali ko'rsatib bajarish mumkin.

1-4-sinflarda misollar yechishda o'quvchilarni qiziqishlarini oshirish uchun ishlab chiqqan tajribalarim asosida sinalgan bir nechta qiziqarli o'yinlardan namunalar keltirmoqchiman.

Kirish

*“Matematika fanlar ichida shox,
uning sirlaridan bo'lingiz ogoh”.*

Qori Niyoziy.

Mamlakatimizning o'quvchi-yoshlarining barkamol shaxs sifatida etishishi, jismonan sog'lom bo'lib ulg'ayishini ta'minlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalashlaridan biriga aylanmoqda.

Bugungi kunda barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar ta'lim tizimi oldiga ham ulkan vazifalarni qo'ymoqda. Bu albatta pedagoglar zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Shu maqsadda ishlab chiqilib, amaliyotgatadbiq etilayotgan dasturlar natijasida farzandlarimizni bizdan ko'ra kuchli, bilimli don ova albatta, baxtli bo'lishiga zamin yaratilmoqda. Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, o'quvchilarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatish lozim. Ta'lim jarayonida o'quvchining mustaqil bilim olish jarayoni shakllanib borishi bugungi kunning talabidir.

O'quvchilarning har tomonlama yetuk inson bo'lib yetishishida biz – pedagoglarning o'rni beqiyos. Bugungi kun o'qituvchisi faqatgina darslikdan foydalanib qolmasdan, har bir dars uchun o'zi ham kichik kashfiyotlar yaratishi kerak. Shuning uchun bolalarga turli ko'rgazmalar va ta'limiy o'yinlar orqali ta'lim berish ularning nutqi rivojlanishiga va fikr doirasi kengayishiga imkon beradi. Eng asosiysi, darsda samaradorlikka erishiladi, mavzuni idrok etish osonlashadi, o'quvchilar dars jarayonida zerikmaydi. Fikrlash qobiliyati ta'limiy o'yinlarda ham, mehnatda ham rivojlanadi. Fikr esa inson oldida eng oddiy bo'lsada biror muammoni yoki vazifa tugagandagina paydo bo'ladi. Bunda ko'p narsa insonning

aql-zakovatiga, intellektual qobiliyatiga ham bog'liq. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun matematika darslarida qiziqarli o'yinlarni o'tkazishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi davrdagi eng dolzarb muammolardan biri ta'lim sifatini oshirib, samaradorlikka erishishdan iboratdir. Buning uchun turli innovatsion texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Bolani dars davomida bilimni to'la mavzu asosida egallashiga bir xil faoliyat bilan erishib bo'lmaydi. Bu bolaning yosh qobiliyatini charchatadi, zeriktiradi. O'yin faoliyati esa yosh bolalarni qiziqarli hayotiy ehtiyojlarini qamrab, qiziqishlarini oshirib boradi. Har bir misol, masalani turli usullar, qiziqarli o'yinlar orqali ko'rsatib bajarish mumkin.

1-4-sinflarda misollar yechishda o'quvchilarni qiziqishlarini oshirish uchun ishlab chiqqan tajribalarim asosida sinalgan bir nechta qiziqarli o'yinlardan namunalar keltiraman

“Svetofor” (Yo'lchiroq) o'yini.

O'yin musobaqa tarzida o'tkaziladi. O'quvchilarni 3 guruhga bo'lib olamiz. Har bir guruh uchun alohida misollar beriladi. Misollar qizil, sariq va yashil rangli doirachalar ortiga yoziladi, ya'ni doiralar yo'lchiroq ranglari ketma-ketligida joylashtirilib, bunday doirachalar uchala qator uchun alohida tayyorlanadi.

$84-7=77$		$54-6=48$		$28-9=19$	
$64+8=72$		$78+4=82$		$87+5=92$	
$34-4=30$		$46-6=40$		$97-7=90$	

Har bir guruhdan birin-ketin o'quvchi chiqib avval qizil doirachalar orqasidagi misollarni, keyin sariq doirachalar orqasidagi misollarni, so'ngida yashil doiralar orqasidagi misollarni musobaqa tarzida yechib olishadi. Har bir to'g'ri ishlangan misol natijasida svetoforning shu rangi chirog'i yonadi. Noto'g'ri ishlangan misolni chirog'i yonmaydi. Har bir qatorning o'zining svetofori hosil bo'ladi. Shu yerda o'quvchilar “Svetofor” qo'shig'ini kuylab oladilar:

Ko'chamizda o'zing bor svetofor, svetofor,


*Uchta chaqmoq ko'zing bor svetofof, svetofof,
Qizil, sariq, yam-yashil svetofof, svetofof,
Qizil ko'zing chaqnasa,
Yo'l bekilar teqma-taq.
Sariq ko'zing chaqnasa,
Biroz kutgin hamma vaqt.
Yashil ko'zing chaqnasa,
Yo'l ochiqdir MARXAMAT!*



Bu orqali darsni yo'l harakati qoidalariga ham bog'lab oladi.

Ushbu o'yin o'quvchilarni ziyoraklik, chaqqonlik, tez fikrlash kabi qobiliyatlarini shakllantiradi. Yo'l harakati qoidalariga amal qilishga, ranglarni farqlashga o'rgatadi. Bu harakatli o'yinlar matematika fanini qiziqarli tarzda o'tkazishga yo'rdam bo'libgina qolmay, balki boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqlikni rivojlantiradi, yani tabiatshunoslik, yo'l harakati qoidalariga, odobnoma, tasviriy san'at kabilarni.

Matematika darslarini yanada qiziqarli bo'lishi va ularni boshqa fanlar bilan bog'lab tashkil qilish maqsadida turli krossvord shaklidagi o'yinlardan ham foydalansa bo'ladi. Masalan: Buyuk zot, so'z mulkingning sultoni xazrat Alisher Navoiy hamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan sanalarni yashirilgan krossvord tuziladi.



$$5:5=1$$

1	4	4	1
---	---	---	---

$$2 \cdot 2 = 4$$

$$20: 5 = 4$$

$$10-9=1$$

1	4	8	3
---	---	---	---

$$16:4=4$$

$$4 \cdot 2 = 8$$

85-84=1




3·1=3

Magnit doskada 4 katakchalardan iborat 2ta bir xil shakllar yopishtiriladi. Katakchalar ortida raqamlar yashirilgan. Har bir guruhdan navbatma-navbat bittadan ishtirokchi chiqib bittadan misol yechadi. Misol to'g'ri yechilsa birinchi katakcha ortidagi raqam ochiladi. Shu tarzda ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi misollar yechiladi va javoblar topiladi.

Misollar yordamida bobokalonlarimizning tavallud ayyomlarini bilib oladilar. Bunday qiziqarli, ziyraklini oshiruvchi o'yinlar o'quvchilarni darsga qiziqtiribgina qolmay, uylarni ma'naviyatimizni, tariximizni, allomalarimiz haqidagi bilimlarini oshiradi va ma'lumotlarini boyitadi.

“Hayvonchalarni tutqunlikdan qutqarish” o'yini.

Navbatdagi tavsiya qilmoqchi bo'lgan qiziqarli o'yinimiz Bunda qafasga tushib qolgan hayvon bolalarini misol yechish orqali qutqarish bo'lib, har bir to'g'ri ishlangan misol bitta hayvonchani ozod qiladi. Qafasda uchta quyuncha, uchta tulkicha va uchta ayiqchalar tushib qolgan.



1-qator quyochalarni, 2-qator tulkichalarni va 3-qator ayiqchalarni ozod qilishlari shart. Barcha misollar to'g'ri ishlanganini hayvon bolalari qafasdan ozod bo'lib, o'rmonga ketganidan bilamiz. O'yin musobaqa tarzida o'tkaziladi

“Zukkolar” o'yini.

O'yinning maqsadi: Ko'paytirish va bo'lishga doir amallar yechish malakalarini mustahkamlash. O'yinning jihozi: Uchta bayroqcha.

O'yinning borishi: Qatorlararo o'tkaziladi. Qatorlar nomi doskaga yoziladi va o'quvchilar soni teng bolinadi. O'qituvchi har bir qatorning oxirgi partadagi o'quvchiga bayroqchani beradi. O'qituvchi son aytadi. M: 1-qatorga -6 soni, 2-

qatorga -4 soni, 3-qatorga -5 soni. Bayroqchalarni olgan o'quvchi $6 \times 2 = 12$ deb bayroqchani oldingi partadagi o'quvchiga uzatadi.

O'quvchilar natija qaysi son bilan tugasa shu son bilan boshlanadigan ifoda tuzishi kerak bo'ladi.




$6 \cdot 2 = 12$	$12 \cdot 2 = 24$	$24 : 3 = 8$
$4 \cdot 5 = 20$	$20 : 2 = 10$	$10 : 2 = 5$
$5 \cdot 14 = 70$	$70 : 10 = 7$	$7 \cdot 5 = 35$

Masalan: $20 \cdot 3$, $60 : 3$, $80 : 4$, $70 \cdot 3$, $80 \cdot 4$, $7 \cdot 3$, $8 : 4$, $20 \cdot 4$ kabi misollarni quydagicha yozib sinfdagi o'quvchilarni tartib bilan chiqarish mumkin.

O'yin jihozi: «-», «+» belgilari.

O'yinning borishi: O'qituvchi masalalarni o'qiydi, o'quvchilar esa masalani qaysi amal bilan yechish kerak bo'lsa, o'sha "ishorani" ko'rsatadilar.

Masala. Dilshodning 3 ta qora va 6 ta yashil qalami bor. Hammasi bo'lib nechta qalam borligini qaysi amaldan foydalanib topamiz? O'quvchilar «+» ni ko'rsatdilar. Masala og'zaki yechiladi. Masala. Nigorada 6 ta jo'ja bor edi, 4 tasini do'stiga berdi. Nigorada nechta jo'ja qoldi?



qo'shish, ayirish belgilarini qachon qo'yilishini so'rab ularni bilimni mustahkamlaydi.

MATEMATIKA

Dars mavzusi: Amallarni bajarish tartibi.(1-6-misollar)

Darshihg maqsadi: Ta'limiy maqsad:

a) O'quvchilarning hisoblash malakalarini takomillashtirish, amallar tartibi haqidagi bilimlarni mustahkamlash. Matematikaga bo'lgan qiziqishlarini oshirish.

b) Ularni hozirjavoblikka, mustaqil fikrlashga, o'z fikrini mustaqil bayon etishga o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: a) Vatanni sevishtirish va qadrlashga o'rgatish.

a) Milliy qadryatlarimizga bo'lgan muhabbatni o'stirish, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni intellektual bilim salohiyatini oshirish, geometrik jismlarga ta'rif berish malakasini, og'zaki nutqini rivojlantirish.

Dars jihozi: Darslik, videoproyektor, darsga oid rasmlar, ko'rgazmalar, tarqatmalar.

Dars uslubi: Interfaol, "Kichik guruhlarda ishlash" usuli asosida musobaqa tarzida o'tkaziladi. **Darsning borishi**

Tashkiliy suhbat- Qo'limda bor shunday kitob

Ichin ochsam g'ij-g'ij xisob

O'qisang gar qilar xitob

Misolim ko'p javobin top

Bilsangiz siz ayting shutob

Ne atalar ushbu kitob

Hamma : MA-TE-MA-TI-KA Keling darsimiz avvalida jumboqli ochqihga bir nazar solaylik.

1	3	5	7	9	2	4	6	8	10
m	t	m	t	k	a	e	a	i	a

O'qituvchi: Matematika qanday dars?

O'quvchilar: -Matematika qiziq dars,

Unga bor menda havas,

Qo'shamanu ayriman,

Ko'paytirib bo'laman.

1- Ruxsat bering boshlamoqqa

Matematika sabog'in

Turli-tuman savol bilan

O'ylataylik barchani

2- Al-Xorazmiy bobomizga

Bugun ta'zim aylaymiz

Ko'p bebaho asarlarning

Ma'nosini tinglaymiz

3- Qiziq topishmoqlar bilan

Sinaymiz kuchimizni

Boshqotirma fokus bilan

Qoldiramiz lol sizni

4- Charchaganda xisob-kitob

O'yin-o'ynab olingiz dam

Dilbar qo'shiq kulgu sizga

Zavq beradi bir olam

Matematika fani bizga nimani o'rgatadi?

1. Sanoq sistemasini,

Yaxshi bilishim kerak,

Qo'shish ayirish jadvalin,

Puxta bilishim kerak.

2. Matematika fani sevmas,

Taxmin tuzmolni,

Xisoblashni zo'r bilsang ,

Yechasan jo'n misolni.

3. Bizning quvnoq davraga,

Xush kelibsan marhabo,

Matematika biz bilan,

Xamrox bo'lsin doimo.

4. Bu fan bizning do'stimiz,

Mo'jizalar makoni,
Inoq bo'lib o'ssa kim,
Ortar ilmu imkoni.
5. Ikki karra ikkini,
Tezroq bilgil bolajon
Undan keyin yanada
G'ayrat qilgin bolajon
6. Yecholmayman demagil
Qiyin bo'lsa masala
Yalqovlarda bo'lmaydi
Ishlagani xafsala
7. Sonlar faqat o'shanda
Sirlarini ochadi,
Ular bilan do'stlashsang,
Yo'lingga nur sochadi,
8. Xullas, xisob kitobni
Tezroq bilgil bolajon.
Fursat o'tmay shu yo'lda,
Tezroq chopgin bolajan

Uzoq o'tkan zamonda raqamlar saltanatida chetlari hoshiyali, yuzlari oppoq katak daftarda o'n dona raqam alohida-alohida ajoyibu hayot kechirar ekan.

-raqamlar ichida to'ng'ich o'zidan keyingilarga yo'l boshchi, orqasida ukasi ish yoqmas va dangasa ikkini ergashtirib yurar ekan.

1
2

- bechora ikki nima ham qilsin uch bilan qo'lni-qo'lga berib darslarni yomon o'zlashtirgan bolalarning kundaligini to'ldirib, borligini bildirib turar ekan.

3

-esa ikki bilan o'rtoq hamma yerda inoq akasi 4 ning „Yaxshi o'qi“ degan so'zlaridan hafa ekan.

4

-bo'lsa 5 ning yonidan ketmas u kabi aolochi bo'lishga intilar ekan.

5 -barchaga yoqimtoy „A’lochilar“ daftarida erkatoyn kataklarning to’rida savlat to’kib turar ekan.

6 - beg’amligidan to’lishib o’ynab kulib quvanar „Ishlari 5“ 5 ning akasimanda der ekan maqtanib.

7 -Belbog’ini beliga bog’lab 7 hafta kunlariga bosh qosh bo’lib sanoqlardan adashib ketmasligi uchun nazorat qilib turar ekan.

8 -Har bir ishda tenglikni yoqtirgani bois shakli shamoili ham bir biriga barobar ikki halqaga o’xshar ekan.

9 -Boshi yerda oyog’i osmonda 6 ni ko’rib o’zining ko’rinishida ko’ngli to’q mag’rurlikda tenggi yo’q ekan.

0 - Nol! Nol chi deysizmi?
Bir kuni nol ko’tokdek yumalab sakrab sakrab raqamlar ichida uzun bo’yli bir yashaydigon katakka kutilmagan mehmondek tushib qolibdi. Bir-bir bilan do’slashib ahil yashay boshlashibdi.

Sanoq sonlar shaharchasida ikki do’st 1 va 0 dan 10, 100,1000,10000 kabi ko’o xonalisonlar xosil bo’lib murod maqsadlariga yetibdi.

O’quvchi:Tazim sizga fanga asos slogan bobolar,

Ta’zim sizga nomi mangu qolgan bobolar,

Siz yaratgan mashhur fanni biz xam sevib qolganmiz

Ixlos bilan o’qib uni ancha bilib olganmiz.

Endi sinf o’quvchilar guruxlar bo’lib olsak

Maqsad bugun matematika darsida **“Kim g’olib”**musobaqa darsini tashkil qilamiz

1-gr

2-gr

3-gr

Farobiy

Al-Xorazmiy

Mirzo Ulug’bek



Guruxlar amal qilish kerak bo'lgan oltin qoidalar “**Intizom, faollik, vaqtga rioya qilish**”

O'qituvchi- G'olib bo'lar bugun kim

Javob bering turmang jim.

1-gr. Biz bo'lamiz birinchi

Qani yetib ko'ringchi

Dars qilganmiz xamma vaqt

Bizga bo'lar baland taxt

2-gr Biz xam ortda qolmaymiz

So'nggi o'rin bo'lmaymiz

CHiqing maydonga kutmasin

Qimmatli vaqt o'tmasi

3-gr. Bizni chetga surmangiz

Bellashuvdan qo'rqmangiz

Kamtarga kamol derlar

Xaddingizdan oshmangiz

Mana sizlar guruhlar bo'lib bir biringiz bilan tanishib oldingizlar. Guruhlar musobaqasini boshlasak, buning uchun guruh sardorlari chiqib savollarni e'lon qiladi a'zolari javob beradi. Savollarga javob berish orqali o'tilgan mavzularni mustahkamlab olinadi.

O'tilgan mavzu:

1-gr.

- a) 1 sm da necha mm bor?
b) bola soni 30 ta juft-juft bo'lib o'tirsa
bor ekan necha parta
g) 89 soni necha o'nlik, necha birlikdan iborat
j) $x-14=30$ noma'lum son nechchi



2-gr.

- a) Salima do'kondan 14 ta,
Malika esa 6 ta non sotib oldi.
Ular jami necha non oldi?
b) 1 km necha m bo'ladi?
g) 6 ni 7 marta orttirsak necha xosil bo'ladi?
j) Sanamay sakkiz dema, o'ylamay o'ttiz



3-gr.

- a) Tovuq uchun 28 kg don,
g'ozlar uchun esa undan 16 kg ortiq
don olib kelindi. G'ozlar uchun necha kg don olib kelingan?
b) Mening sakkizta oshnam xammasi xam mendan kam sen o'ngacha sanasang meni
aytmay qo'yaysan.



1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10

- g) Vaqt o'lchovlarini ayting.
j) $46+30 *56+20$ ifodani taqqoslang
Guruhlar baholanadi




Dam olish daqiqasi :

(Ilon boshqotirmasini yechish).

Yangi mavzu:

1-misol.Ifodalarning o'xshashligini va farqini aniqlang

$$40-24:4=40-6=34 \quad (40-24):4=16:4$$



2. Har qaysi ifodaning qiymatini topishda amallarni bajarish tartibini bilib oling.

Qoidani yod oling



1. Agar ifodada qavs bo'lsa, ular ichidagi amal birinchi bajariladi

2. Ko'paytirish va bo'lish yozilish tartibi bilan bajariladi

3. Qo'shish va ayirish yozilish tartibi bilan bajariladi

$$75-(28+27)=75-55=20$$

$$30:(27-17)=30:10=3$$

$$59-18:2=59-9=50$$

2-misol $80-(38+22)=80-60=20$

$$60:(39-29)=60:10=6$$

$$(50-23):3=27:3=9$$

$$(40-38)*4=2*4=8$$

3-masala. Olib kelindi – ?

Sotildi – 37yashik,

Qoldi – 13yashik.

Dastlabki olib kelingan yashiklar soni?

$$x - 37 = 13 \quad 50 - 37 = 13$$

$$x = 37 + 13 \quad 13 = 13$$

$$x = 50$$

$37+13=50$ **javob: 50 yashik pomidor**

4-misol

Ko'paytuvchi	10	10	10	10	10	11	10	10
Ko'paytuvchi	2	3	5	6	7	7	8	9
Ko'paytma								

Mustahkamlash: Matematik maqollar aytish.

O'quvchi: Bugun esa biz mustaqil yurtning erkin farzandlarimiz. Yangi asr avlodlarimiz. Bobolarimiz, momolarimiz davomchilarimiz. Ular yaratgan yangiliklarni, kashfiyotlarni kelajakda biz davom ettiramiz. Vatanni sevishga, aolochi jamoatchi o'quvchi bo'lishga astoydil bel bog'laganmiz.

O'quvchi: Quchoq'ingga sog'sam qucholsam qani

Boshingga baxt bo'lib ucholsam qani

Har qanday xoru xasdan asraymiz seni

Vatan bizga ishon, ishongil Vatan

O'quvchi: Biz 2013 yilga qadam qo'ydik. Prezidentimiz bu yilni „Obod turmush yili“ deb atadi. Sog' salomat bo'lsak, Vatanimizni gullab yashnashi, turmushini obod bo'lishi uchun o'z xissamizni qo'shaveramiz.



Al-Xorazmiy, al-Buxoriy xazrat bizga

Ulug'beku, al-Farg'oniy savlat bizga

Manguberdi, Temur bobo davlat bizga

Ona xalqim, dono xalqim bizga ishon.

Vazifa:5-6-misollar

Qiziqarli o'yinlar o'qituvchini bolalarga yaqinlashtiradi, o'qituvchi bolalar nazarida tarbiyachigina emas, balki chinakam do'stiga ham aylanadi.

Bunday o'yinlar ijodiy shaxsni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yinning takrorlanishi topshiriqni bajarishga yangicha munosabatda bo'lishni talab qiladi. Uni hal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqaradi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki darslarni qiziqatli tashkil qilishda boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z ustida ishlashi va tinmay izlanishi talab etiladi.

Pedagogning bunday mahorat bilan dars o'tishida o'quvchilarning mavzularda olgan bilimlarini chuqurlashtiriladi, fanga bo'lgan qiziqishlarini ro'yobga chiqarishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. N.U.Bikbayeva va boshqalar. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. -T, "O'qituvchi" 2007. 381- 404 betlar.


2 .Bikbaeva N.D. Zaynitdinova M.A. "Boshlang'ich ta'limda matematikadan davlat ta'lim standartini amaliyotga joriy etish". - T. "G'.G'ulom" 2008,47 b.

3. "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnali.

4. Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan qiziqarli o'yinlar.

"Istiqlol"2005

5 1-4 –sinf darsliklari



UNDALMA STILISTIK VOSITA SIFATIDA

Iqboloy Fatxiddinova Faroxiddin qizi

Andijon davlat universiteti Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta`lim yo`nalishi 3-bosqich talabasi

Fatkhiddinova Iqboloy Faroxiddin qizi

Andijan State University, 3rd year student of Philology and Language Teaching
(Uzbek)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6635445>

Annotatsiya. Maqolada undalmalar orqali voqealikka salbiy yoki ijobiy munosabat, uzatilayotgan axborotning haqiqiylikiga so'zlovchining ishonchini belgilovchi bahoning ifodalanishi va bunday vaziyatda undalmalar pragmalingsvistikasining tekshitish obyekti hisoblanishi xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Undalma, pressupozitsiya, pragmatika, adresat.

Аннотация. В статье рассматривается отрицательное или положительное отношение к событию через мотивации, выражение оценки, определяющее уверенность говорящего в достоверности передаваемой информации, и в данном случае предметом рассмотрения является прагмалингвистика мотиваций.

Ключевые слова: позиция прессы, прагматика, адресат.

Annotation. The article discusses the negative or positive attitude to the event through motivations, the expression of the assessment that determines the confidence of the speaker in the authenticity of the transmitted information, and in this case the pragmalinguistics of motivations is the object of examination.

Keywords: press position, pragmatics, addressee.

Stilistika (yun. *stylos* — yozuv, xat tayokchasi), uslubshunoslik, uslubiyat — tilshunoslikning til uslublarini tadqiq etuvchi, tilning leksikfrazologik, fonetik, morfologik, soʻz yasalishi va sintaktik sathlarda sinxroniya va diaxroniya nuqtai nazaridan funksional katlamlanishining mohiyati va oʻziga xosliklarini oʻrganuvchi, adabiy tilni turli lisoniy vaziyatlarda, yozma adabiyotning xilmaxil tur va janrlarida, ijtimoiy hayotning turli sohalarida qoʻllash meʼyerlari va usullarini tavsiflovchi

tarmog‘i. Stilistikada parallel sinonimik til ifodalaridagi ma’noviy va ekspressiv nozikliklar, lisoniy birliklarning o‘zaro munosabatdosh variantlari o‘rganiladi. Bunday variantlarda ular orasidan muayyan nutqiy vaziyat uchun zarur bo‘lganini tanlab olish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Undalma so‘zlovchi nutqi qaratilgan shaxs, jonli va jonsiz predmetni ifodalashga ko‘ra, kuchli stilistik vosita hisoblanadi. Undalmalar so‘zlovchining tinglovchi munosabatlarini ifodalab, baho Xarakteristikasi ottenkasi ijobiy, salbiy, neytral, ko‘tarinki, tantana kabilarga ega bo‘ladi. Undalma o‘zining leksik - grammatik tabiati bilan undashdan tashqari, bu vazifada kelgan shaxs, predmetlarni Xarakterlaydi ham. Ularning ko‘pchiligi ekspressiv Xarakterda bo‘lib qo‘llanilishiga ko‘ra turli xususiyatlarga egadir.

Undalmalar ko‘proq so‘zlashuv, badiiy, publistik uslublarda, qisman rasmiy- idoraviy uslubda qo‘llanadi. Ilmiy uslubda undalmaga deyarli murojaat qilinmaydi. Undalmalarni baho Xarakteristikasi ottenkasini ifodalashga ko‘ra ikki katta guruhga ajratish mumkin.⁶

1. Stilistik neytral undalmalar. Bunday undalmalarga so‘zlovchining baho Xarakteristikasi neytral bo‘ladi⁷. Ular so‘zlashuv, rasmiy - idoraviy uslublarga xos: So‘zlashuv uslubi: 1. Aka, siz mening mehribonimsiz. 2. O‘zingizni asrang, chunki siz bizning borimisiz , bobo. 3. Singlim, bu ishni sen qildingmi?

Rasmiy uslub:1. Jabborov, vazifangizni bajaring. 2.Janob boshliq, hamma narsa tayyor.

2. Baho xarakteristikasini ifodalovchi undalmalar.⁸ Ular emotsional-ekspressiv bo‘Yoqqa ega bo‘lib, faqat nutq adresatini ifodalamay, uni Xarakterlaydi. Unga munosabat bildiradi.Bu hol quyidagi faktlar bilan bog‘liq:

a) undalma o‘z leksik ma`nosiga ko‘ra ifodalanadi. Bu ijobiy Yoki salbiy bo‘lishi mumkin: Begim, sizni tabiat raso qilib yaratgan. [H. Xudoyberdiyeva]. Nega unday

⁶ Maxmudov N. Nurmanov A. O‘zbek tili nazariy grammatikasi. – T. 1995

⁷ Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. –T., “O‘qituvchi” 1985.

⁸ Sharipova O'. O‘zbek tili stilistikasi. Toshkent. 2009

qiding, itvachcha. [T. Malik. Shaytanat]. Bunda misoldagi **begim** undalmasi orqali ijobiy, ikkinchi misoldagi **itvachcha** undalmasi orqali salbiy fikr ifodalangan.⁹

b) baho ifodalashda intonatsiyaning ham roli kattadir. Undalmaning intonatsiya bilan ishlatilishi uning turli ma`no ottenkalari ifoda qilishni ta`minlaydi. Bu, ayniqsa, undalma undov so`zlar bilan kelganda yaqqol seziladi: 1. Hoy ukajon, o'zim o'rgile sizdan. 2. Hey akasi, egasiz o`liklar taxlanib turgan joy bormi?


c) undalmaning baho Xarakteristikasini ifoda qilishda egalik, hamda -jon, -xon, -choq affiksalaridan foydalaniladi: 1. Qozichog'im, kel yonimga. 2. Tohirjon, hamma vazifalaringizni o'z vaqtida bajaring. 3. Inim, siz bola -chaqangizni yoniga boring.

Xulosa qilib aytganda, undalma gap tarkibida shakliy tomondan boshqa bo`laklar bilan tobe munosabatga kirishmasa ham, lekin ular bilan mazmuniy tomondan ma`lum munosabatda bo`lgan sintaktik shakllardan biri. Uning, ya`ni undalmaning o`zbekbadiiy asarlarida, proza va she`riyatda muhim ahamiyatga ega. Undalma gap bo`lagi bo`la olmaydi, chunki bu gap bo`laklarga ajratishning bosh mezoni bo`lgan toblanishi talabiga javob bermaydi, undalma gap bo`laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi, ammo muzmunan bog`liq bo`ladi. Shuni ta`kidlash kerakki, undalmaning intonatsiyasi undalma ifodalagan ma`noga asosiy gapning xarakteriga so`roq, undov, darak gap bo`lishiga, tarkibiga, o`rniga, nihoyat, muallifning ma`lum mazmuni ifodalash niyatiga bog`liq bo`ladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Maxmudov N. Nurmanov A. O'zbek tili nazariy grammatikasi. – T. 1995
"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashning asosiy omili bo'lgan

kadrlarni tayyorlash borasidagi eng zarur tadbirlar tizimi belgilab berildi. Sogʻlom avlodni tarbiyalash davlat va jamiyatning ustuvor yoʻnalishidir[2]. Bolani toʻlaqonli rivojlanishi uchun uni yoshlikdan shakllantirish lozim. Bu esa oilada va maktabgacha taʼlim muassasalarida turli interfaol oʻyin mashgʻulotlarini olib borish asosida amalga oshirish mumkin.

Maktabgacha taʼlim muassasalarida 5-6 xil oʻyin turi mavjud boʻlib, shularning ichidan didaktik oʻyinlar alohida ahamiyatga ega. Didaktik oʻyinlar MTMLarida taʼlim va tarbiya vositasi sifatida keng qoʻllaniladi. Didaktik oʻyin taʼlim bilan bevosita bogʻliq boʻlib, unga yordam beradi.

Konstruktorlik oʻyinlari – tarbiyalanuvchilardan turli predmetlardan xar-xil buyumlarni qurish, yasash qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda ijodkorlikka intilish va qobiliyat uygʻotadi. Baʼzi bir oʻyinlar ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishni amalga oshiradi.

Bular qatorida kompyuterli oʻyinlar ham tarbiyalanuvchilarning faoliyati va fikrlashlarini rivojlantirib, kompyuter savodxonliklarini shakllantiradi. Bitiruv-malakaviy ishida yuqoridagi masalalar toʻgʻrisida soʻz yuritiladi.

Maktabgacha taʼlim muassasalarida bolalarning oʻyin faoliyatlari

Anʼanaviy oʻyinlar. Oʻyin maktabgacha yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati boʻlib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. Oʻyin bolalarning kelajakdagi oʻquv va mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanib borishini belgilaydi. Oʻyin faoliyati asosida boladagi bilish faoliyati rivojlanadi, bola qancha yaxshi oʻyin faoliyatida ishtirok etsa, u maktabda shunchalik yaxshi oʻqiydi. Psixologlar oʻyinni bogʻcha yoshi davrida yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar. Oʻyinda bola shaxsining hamma tamoni bir-biriga oʻzaro taʼsir etgan holda shakllanadi. Oʻynayotgan bolani kuzatib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof toʻgʻrisidagi tasavvurlarini, kattalarga va oʻrtoqlariga boʻlgan munosabatini bilib olish mumkin. Oʻyin bolalarni jismoniy tamondan tarbiyalash tizimida, maktabgacha taʼlim muassasasining taʼlim-tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tamondan tarbiyalashda katta oʻrin tutadi. Oʻyinda yosh organizmga xos boʻlgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, bardamlik, tetiklik, quvnoqlik

tarbiyalanadi. Shunday ekan, har bir o'yin-mashg'ulotini to'g'ri rejalashtirish maqsadga muvofiqdir. O'yin mashg'ulotlarini rejalashtirayotganda har doim maqsadni hamda mashg'ulotdan kutilayotgan natijalarni aniqlab olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shundan so'ng, maqsadga erishish uchun qaysi o'yin, topshiriq yoki mashqdan foydalansa yaxshiroq samara berishi aniqlab olinadi. Buning uchun quyidagilarni inobatga olish zarur:

- Tanlab olingan ma'lumotlarning o'zaro bog'liqligi hamda ketma-ketligi;
- Soddadan murakkabga qarab intilish;
- Turli xillilikka e'tibor berish (nutqiy faoliyatni turli harakatlar bilan, tinch o'yinlarni harakatli o'yinlar bilan uyg'unlashtirib turish);
- Guruhiy yoki kichik guruhlar uchun mashg'ulotlarni tashkil qilish.
- Tarbiyachi qachon katta guruh bilan hamda qachon kichik (6-8 boladan iborat guruh) guruh bilan ishlash lozimligini hal etmog'i darkor;
- Mashg'ulotlarning vaqt chegaralarini aniqlab olish (qaysi vaqtda bolalar bilan shug'ullanmasiz va qancha vaqt davomida).

Mashg'ulotlar davomida bolalar o'z fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega bo'lganlaridagina mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishlari va o'zaro ishonchlari oshib boradi. Guruhiy o'yin-mashg'ulotlari rejalariga mashg'ulot boshida ham mashg'ulot davomida ham o'zgartirishlar kiritib borishi mumkin. O'yin-mashg'ulotlarning qator tamoyillari mavjud bo'lib, ularning asosiylari quyidagilar:

1. O'yinlarda erkin ishtirok etish.
2. O'zaro hurmat.
3. O'yin qoidalarini anglab olish.
4. Refleksiya.

O'yinda erkin ishtirok etish tamoyili-agar o'yin qiziqarli va quvnoq kayfiyat bag'ishlovchi bo'lsa, har bir bola bu o'yinda ishtirok etishga intiladi. Qandaydir sabablarga ko'ra bola o'yinda ishtirok etishdan bosh tortsa, u o'ynashi mumkin bo'lgan boshqa bir o'yinni taklif etish mumkin. Bolalarga o'yindan bemalol chiqishlari va unga qaytishlariga imkoniyat yaratish lozim. O'zaro hurmat tamoyili – bu o'zaro munosabatlardagi qoidaga o'xshashdir, ya'ni har bir o'yin ishtirokchisi

o'z fikrini erkin bildirishga, tanlash huquqiga ega, hammaning fikri eshitib tinglanadi. O'yin qoidalarni anglab yetish– mashg'ulotni boshlashdan oldin bolalar o'yin-mashg'ulot maqsadlari, qoidalari bilan tanishtiriladi. Agarda bolalarning ayrimlari bu narsalarni anglab yetmasa, o'yin-mashg'ulotlar qoidalari takror tushuntiriladi.

Refleksiya – olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida qayta aloqa o'tkazish muhimdir. O'yin-mashg'uloti yakunida boshlovchi bolalar bilan xulosa yasaydi. Bolalardan ko'proq nimalar yoqqani, nimalar ma'lum bo'lmagani va nimalarni o'rganganligi so'raladi. Xulosadan keyin yakuniy mashqni bajarish mumkin. Masalan, bolalar doira bo'lib turib, qo'llarini ushlaydi. Hamma ko'zini yumib, yoqimli narsalar haqida o'ylaydi. Shundan so'ng boshlovchi ko'zini ochadi va o'ng tamonidagi bolaning qo'lini siqib qo'yadi. Bu bola o'z navbatida ko'zini ochib, qo'shnisining qo'lini siqadi. Mashq shu tariqa barcha bolalar ko'zlarini ochgunlaricha davom etadi. Oxirida bolalarning hammalari biron-bir qo'shiqni kuylashlari ham mumkin. Hamkorlikda o'tkaziladigan o'yinlar bolalarning birbirlariga yaqinlashishlariga, birlashishlariga hamda kayfiyatni ko'tarishga xizmat qiladi. Aynan o'yinlar tarbiyachiga nisbatan bolalarning ishonchi va moyilliklarini qozonishga yordam beradi.

Kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning ushbu qiziquvchanlik xususiyatini oshiradi. Natijada, ularning aqliy rivojlanishi shakllana boradi. Multimediali kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning qiziquvchanlik xususiyatini oshirishi quyidagilar asosida namoyon bo'ladi:

- 1) ekranda ko'rsatiladigan o'yin obyektiga animasiya samarasi berilgan bo'lishi va ular doimiy ravishda harakatlanib, jilolanib turishida;
- 2) tovushda;
- 3) musiqada;
- 4) animatsiyada;
- 5) multifikasiyada[3].

O'yin davomidagi ushbu "kompyuterli" psixologik-pedagogik ta'sirlar yosh bolalarning faqat qiziquvchanlik xususiyatini oshiribgina qolmasdan, balki bilim


olishga bo'lgan ishtiyoqini ham oshiradi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ldiki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyasini shakllanishida axborot texnologiyalari ya'ni, multimedialardan foydalanish uni MTMLarda samarali qo'llash hozirgi kunning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Multimedia vositalarini tayyorlash va bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish metodikasi shaxsiy kompyuterlar multimedia texnologiyasining asosiy texnik vositasi hisoblanadi[4]. MTMLarning ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishda qo'shimcha vositalar - kompakt disklar, turli xil taqdimotlar, slaydlar va hokazolar talab etiladi. Multimedia vositalaridagi ta'lim-tarbiya materiallari dinamik xarakterga ega bo'lib, ular animatsiya bilan berilgan bo'ladi. Ta'lim tizimida foydalanib kelinayotgan an'anaviy ko'rgazmali materiallar statik xarakterga ega. Masalan, tarbiyachi A harfini an'anaviy usulda o'rgatish mobaynida, bolaga uning qog'ozdan yoki kartondan yasalgan shaklini ko'rsatadi (statik vosita). Multimedia vositasida ko'rsatilganda A harfi kompyuter (monitor) ekranida tebranib, bolalarning diqqatini o'ziga jalb etadi (dinamik vosita). Hozirgi kunda turli xil multimediali ta'lim vositalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish jadal rivojlanayapti. MTMLari ta'lim-tarbiya jarayonida ulardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilmagani uchun tarbiyachi-pedagoglar multimedia vositalarini multimedia texnologiyasi sifatida qabul qilmoqdalar. Kezi kelganda shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, multimedia vositalarini ishlab chiqaruvchi maxsus muassasadan tashqari, har bir MTM tarbiyachilarining o'zlari tayyorlashi mumkin bo'lgan dasturli va rolli multimedia vositalarini (DVD-disk) qo'llash mumkin. DVD video diski multimedyaning texnik vositasi sifatida bir necha afzalliklarga ega. Diskdan foydalanib, o'rganiladigan materialni bosqichlar bo'yicha to'la, ba'zi hollarda alohida elementlarini ko'rish mumkin, zarur bo'lganda material qayta namoyish etiladi. DVD video diskda sxemalar, rasmlar, grafiklar ham joylashtirilgan bo'ladi. Multimedia texnologiyasining didaktik vositalari ta'limning didaktik talablariga to'la mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Barkamol avlod yili" Davlat Dasturi. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: ”Sharq”, 1998
3. [https://community.uzbekcoders.uz/post/maktabgacha-ta-lim muassasalarida-axborot-texnologiyalaridan-foydalanishnin- 5f2640418f509e50bd17f8](https://community.uzbekcoders.uz/post/maktabgacha-ta-lim-muassasalarida-axborot-texnologiyalaridan-foydalanishnin-5f2640418f509e50bd17f8)
4. Abdullayeva S. Ekologik tarbiya vazifalari // Maktabgacha ta’lim. – T., 2008. <http://www.cons.sssu.ru/phorums/read.php>



МОЛИЯВИЙ МЕХАНИЗМ ВА УНИНГ СУВ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДАГИ РОЛИ

Тешабаева Одина Насридиновна-ўқитувчи,
Исроилов Хусанбой Иброхимжон ўғли-магистр,
Фарғона давлат университети
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6637588>


Аннотация: Ушбу мақолада Ўзбекистон иқтисодиёти тараққиётида сувнинг стратегик омили эканлигини ҳисобга олиб, молиявий механизм ёрдамида сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг иқтисодий мазмунини еритилган.

Калит сўзлар: сув ресурси, самарадорлик, бошқарувчилик, молиявий механизм

Замонавий бозор иқтисодиётида фаолият кўрсатаётган молиявий механизмни шакллантириш муаммоси, умумназарий жиҳатдан, мураккаб ва кўп қирралидир. Шу муносабат билан таъкидлаш керакки, замонавий иқтисодий адабиётларда молиявий механизмнинг ягона тушунчаси мавжуд эмас. Шунинг учун “молиявий механизм” тушунчаси, унинг таркибий қисмлари ва элементларни аниқлаштириш ва тизимлаштириш долзарб ҳисобланади. “Механизм” атамаси грекча “*mechana*” – “машина” сўзидан келиб чиққан бўлиб, дастлаб ундан машиналар ва механизмлар назариясида фойдаланилган. Шунингдек, машиналар ва механизмлар назариясида “механизм” дейилганда, ҳар қандай кўринишдаги ҳаракат ва энергияни узатувчи ва ўзгартирувчи қурилма [1] тушунилган. Макро- ва микроиқтисодий жараёнларни туркумларга ажратиш ва ёритишнинг зарурлиги “механизм” атамасининг техникавий фанлардан иқтисодий фанларга “қарзга олиниши”га ва иқтисодий жараёнларни ёритиш учун ундан кенг фойдаланишга сабабчи бўлди.

Молиявий механизмнинг мавжуд таърифларини, фикримизча, шартли равишда бўлса-да, икки йирик гуруҳга бўлиш мумкин. Биринчи гуруҳга кирувчи таърифлар молиявий механизмни давлат, минтақалар ва вилоятлар даражасида, яъни макродаражада кўриб чиқади. Иккинчи гуруҳга кирувчи

таърифларда эса, молиявий механизм корхоналарнинг молиявий механизми, яъни микродаражада талқин қилинади. Бизнингча, молиявий механизм ҳам макродаражада ҳам микродаражада амал қилади ва унинг фаолият кўрсатиш жараёнини, энг умумий кўринишда, 1-расмдагидек тасаввур қилиш мумкин. Шунингдек, бунда молиявий механизмни кирувчи маълумотларни қайта ишлаш ва ўзгартиришга мўлжалланган ахборий машина сифатида ҳам талқин қилиш мумкин.




1-расм. Молиявий механизм фаолият кўрсатишининг блок-чизмаси [4]

Юқорида баён қилинганлар асосида, фикримизча, молиявий механизмга қуйидагича таъриф бериш мумкин: маълум мақсад асосида фаолият кўрсатадиган, молиявий ресурсларни шакллантириш ва тақсимлаш усулари ва дастакларидан фойдаланадиган молиявий муносабатлар тизимидан иборат бўлган хўжалик механизмнинг бир қисмига молиявий механизм дейилади.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, макродаражадаги молиявий механизм микродаражадаги корхоналар молиявий механизмига бевосита таъсир кўрсатади, унинг таркибий тузилмаси ва элементлари ўртасидаги ўзаро боғлиқликни белгилаб беради. Бу ўринда, шунингдек, корхоналар молиявий механизмнинг мамлакат (минтақа, вилоят) даражасидаги молиявий механизмга тескари йўналишдаги таъсирини ҳам қайд этиб ўтиш керак.

Демак, бундан кўришиб турибдики, корхоналар молиявий механизми макродаражадаги (давлат, минтақа, вилоят) молиявий механизм таркибий тузилмасини ташкил этувчи элементлардан биридир (2-расмга қаранг).

Молиявий механизмнинг (“ММ”) таркибий тузилмаси элементлар (“Э”) тўплами ва тизим (механизм) ичида улар ўртасидаги муносабатлар орқали аниқланади, яъни $ММ = (Э;P)$. Элементлар тўплами ва улар ўртаси-даги муносабатлар молиявий механизм фаолият кўрсатишининг мақсади билан белгиланадики, у молиявий механизмнинг турли даражалари учун турлича бўлиши мумкин.



2-расм. Макро ва микродаражада молиявий механизм ўзаро таъсирининг блокчизмаси [4].

Масалан, макродаражада молиявий механизмнинг мақсади бўлиб, кўтарилиш ёки юксалишлар депрессиялар, инқирозлар билан алмашинадиган ташқи муҳитнинг циклик ўзгариши шароитида мамлакат иқтисодиётининг

соғлом фаолият кўрсатиши учун барқарор ва етарли даражада бўлган молиявий ресурсларни яратиш ҳисобланади. Шунингдек, макродаражада молиявий механизмнинг элементлари сифатида солиққа тортиш, баҳоларни шакллантириш, тарифли тартибга солиш ва ҳ.к.лар майдонга чиқади. Элементлар ўртасидаги муносабатлар эса кодекслар, қонунлар, қарорлар, фармонлар ва б.лар билан тартибга солинади.

Микродаражадаги молиявий механизмнинг мақсади эса, фикримизча, корхона фаолиятининг мақсадига мувофиқ келмоғи лозим.

Фикримизча, корхона қийматини оширишдан иборат бўлган корхона фаолиятининг мақсади объектив ҳисобланади. Чунки корхона мулкдорлари (акциядорлари) учун бу қиймат уларнинг фаровонлигининг ошириши бош масаладир. Бунда мулк (акция)дорлар фаровонлигининг ўсиши на янги қувватларнинг ишга туширилиши, на ёлланган ходимларнинг сони ва на корхона айланмаси билан эмас, балки корхона қийматининг ўсиши орқали таъминланади. Буни АҚШ биржаларида акциялари ва АДР муомалада бўлган 5927 корхоналар бозор қиймати кўрсаткичи ва улар фаолиятини характерловчи тушум, соф фойда, кэш-фло ва бошқа кўрсаткичлар ўртасидаги корреляция таҳлили тасдиқлайди [2]. Корреляцион таҳлил натижаларига кўра компаниялар фаолиятини ўзида акс эттирадиган 9 асосий кўрсаткичдан иккитаси корхонанинг бозор қиймати билан жуда кучли, 9 та-сидан 6 тасида – кучли, ва 9 тасидан 1 тасида – ўртача корреляцияда экан-лиги маълум бўлган.

Юқорида баён қилинганларга асосланиб, қуйидаги хулосани чиқаришимиз мумкин: корхона қийматини ошириш корхона фаолиятининг ҳам, молиявий механизм амал қилишининг ҳам мақсади ҳисобланади.

Микродаражада молиявий механизмнинг таркибий тузилмаси жуда мураккаб бўлиб, у турли муаллифлар томонидан турлича талқин қилинмоқда. Бир гуруҳ муаллифлар молиявий механизмнинг таркибий тузилмасига қуйидаги асосий элементларни киритадилар: а) молиявий усуллар; б) молиявий дастак (инструмент)лар; в) ҳуқуқий таъминот; г) молиявий бошқарувни ахборий-услубий таъминлаш [3]. Бошқа гуруҳ муаллифларнинг фикрича,

молиявий механизм таркибий тузилмаси ўз ичига бир-бири билан ўзаро боғлиқ бўлган қуйидаги 5 элементни олади: а) молиявий усуллар; б) молиявий дастаклар; в) ҳуқуқий таъминоти; г) меъёрий таъминот; д) ахборий таъминот [5]. Назаримизда, молиявий механизм таркибий тузилмасига нисбатан сўнгги ёндашув, айниқса, эътиборга лойиқ. Бироқ, фикримизча, ҳуқуқий ва меъёрий таъминлашни қайд этилган тизимнинг элементи сифатида қараш, ҳеч бўлмаганда, бироз мунозарали. Чунки улар молиявий механизмнинг фаолият кўрсатишида бевосита иштирок этмайди, аммо мазкур механизм элементларининг ўзаро ҳаракатланиш жараёнида бу элементлар ўртасидаги муносабатларни аниқлаб, уларга кескин таъсир кўрсатиши мумкин.

Молиявий механизм таркибий тузилмасининг элементи сифатида ахборий таъминотига нисбатан ҳам баъзи фикрларни билдириш мумкин. Ахборий таъминотчи корхона молиявий фаолиятига нисбатан қарорлар қабул қилишда зарур бўлган тегишли кўрсаткичларни танлаб олиш жараёнидан иборат бўлиб, унинг ўзи тўғридан-тўғри элемент бўла олмайди. Бу ўринда, бизнингча, кўрсаткичларни танлашни элемент тарзида қараш мумкин. Айнан молиявий механизмга келиб тушувчи маълумотларни ўзгартирувчи ва уларни бошқарув қарорлари қабул қилишда фойдали қилувчи кўрсаткичларни танлашни молиявий механизмнинг элементи сифатида эътироф этса бўлади. Бунда, фикримизча, уларнинг бажарадиган вазифалар-идан келиб чиққан ҳолда, кўрсаткичларни дастаклар, яъни унга келиб тушувчи маълумотларни ўзгартирувчи молиявий механизмнинг қисми тарки-бига киритиш тўғрироқ бўлур эди.

Шунингдек, молиявий дастакларнинг молиявий механизм алоҳида элементи сифатида қаралиши ҳам баъзи бир саволларнинг кун тартибига қўйилишига сабаб бўлади, бизнингча. Шу сабабли уларни молиявий механизмнинг алоҳида олинган элементи сифатида эмас, балки янада йирикрок элементининг, яъни бошқарув молиявий механизми дастаклари сифатида қараш ўринлидир. Молиявий механизмни ўзи молиявий муносабатларни ташкил этиб, давлат томонидан ўрнатилган шакллари, турлари ва методлари

тизимидан иборат [6]. Бунда молиявий механизмнинг дастаклари дейилганда, бу механизмнинг унга келиб тушувчи молиявий ресурслар ва маълумотларни ўзгартирувчи ҳамда молиявий механизмдан ташқарига ёки унинг бошқа элементларига узатувчи бир қисмини тушуниш керак.

Молиявий механизм дастакларининг хилма-хил кўринишларидан бири сифатида молиявий дастаклар ўзига хос бўлган бир неча характерли хусусиятларга эга. Унинг энг асосийларидан бири кирувчи молиявий ресурслар ҳажмини бир неча мартага оширишдан, молиявий ресурсларни мултипликация [7] қилишдан иборат. Бунда молиявий механизм таркибида фаолият кўрсатаётган дастакларнинг ҳаракатланиш тамойили (принципи) тартиби, фикримизча, операцион, молиявий дастак ва солиқ “қалқони”нинг классик тушунишдан, бироз бўлса-да, фарқ қилади. Шу боис “молиявий механизм молиявий дастаги” тушунчасини шакллантиришда дастакнинг классик тарзда идрок этилишидан келиб чиқиш керак. Унга кўра, дастак дейилганда шундай қурилма тушуниладики, у кичик кучни катта кучга тенглаштириш ва шунингдек, қандайдир бир ишни амалга оширишда қўлланилади.

Фикримизча, молиявий механизм молиявий дастагининг амал қилиш тартиби (принципи) ҳам худди шундай бўлиши керак. Молиявий дастакнинг бир томонида иқтисодиёт субъекти ихтиёрида бўлган молиявий ресурслар жойлашади. Ўзига хос “стержень” бўлган риск билан ўзаро таъсирда бу молиявий ресурслар уларнинг шунча қўшимча ҳажмига эга бўлишни таъминлайдики, улар субъект томонидан фойдаланилган молиявий ресурслардан “N” марта кўп бўлади. Риск даражаси қанча юқори бўлса, “N”нинг ўлчами ҳам шунча катта бўлади.

Молиявий механизмнинг бошқа дастакларидан молиявий дастакнинг фарқланувчи асосий хусусияти шундаки, у ўзининг амал қилиш жараёнида рискни ошириш ҳисобидан молиявий ресурсларнинг кескин оши (ўси)шига имкон беради.


Молиявий дастак ҳаракатланиши механизмнинг юқорида баён қилинган жиҳатларини ҳисобга олган ҳолда уларнинг таркибига, биринчи навбатда,

ҳосила молиявий дастакларни, шунингдек, кредит, лизинг, суғурта ва б.ларни киритиш мақсадга мувофиқ.

Молиявий механизм элементлари таркибида икки ва ундан ортиқ бир неча элементларни қамраб олувчи, нисбатан йирик бўлган таркиб топтирувчиларни алоҳида ажратиб кўрсатиш керак. Булар механизм ичидаги ўзига хос механизм бўлиб, улар корхона қийматини оширишдан иборат бўлган асосий мақсадга эришишга хизмат қилувчи қатор вазифаларни амалга оширишга хизмат қилади. Бунга мисол тариқасида фойда, харажатлар ва бошқаларни бошқариш механизмини кўрсатиш мумкин.

Юқорида баён қилинганлар асосида айтиш мумкинки, молиявий механизмнинг таркибий тузилмаси қуйидаги элементлардан иборат: а) молиявий усуллар; б) молиявий дастаклар; в) асосий мақсадга эришишга ёрдам берувчи қатор вазифаларни ечишга хизмат қилувчи механизмлар. Улар ўртасидаги муносабатлар тўплами молиявий механизм элементларини ҳуқуқий ва меъёрий таъминлаш билан белгиланади.

Молиявий механизм амал қилишини ҳуқуқий таъминлаш ўз ичига қонунчилик актлари, қарорлар, фармонлар, буйруқлар ва бошқа ҳуқуқий ҳужжатларни олади. Шунингдек, молиявий механизм амал қилишининг меъёрий таъминоти дейилганда йўриқномалар, меъёрлар, нормалар, тариф ставкалари, услубий кўрсатмалар, тушунтиришлар ва бошқалар назарда тутилади.



3-расм. Молиявий механизмнинг таркибий тузилмаси [4]

3-расмдан келиб чиққан ҳолда механизмни жараёнларни шундай таркиб топтирувчи сифатида талқин қилиш мумкинки, унга кўра, жараён бошқарилиши натижасида (бошқарув ёрдамида) кирувчи ахборотлар ва ресурсларни ўзгартириш жараёнининг мақсадини амалга оширишга имкон беради.

Юқорида қайд этилганларни ҳисобга олган ҳолда молиявий механизмни бошқарув призмаси орқали ҳам кўриб чиқиш керак. Албатта, бу ҳолда бевосита молиявий механизм тўғрисида эмас, балки бошқарув молиявий механизми, яъни корхона қийматини оширишни мақсад қилиш асосида амал қиладиган (фаолият кўрсатадиган, ишлайдиган, ҳаракат қиладиган), молиявий ресурсларни шакллантириш ва тақсимлаш дастаклари ва усулларидадан фойдаланган ҳолда ҳам корхона ичида ва ташқи муҳитда молиявий муносабатларни ташкил қилиш учун мўлжалланган корхоналар молиясини бошқариш тизими тўғрисида гапириш мақсадга мувофиқ.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Зиновьев, В.А. Курс теории механизмов и машин [Текст] / В.А. Зиновьева. - М.:Наука, 1972. - С. 10-11.

2. Показатели финансово-хозяйственной деятельности компаний, акции которых обращаются на бирже [Текст] // Дамодаран Онлайн: [сайт]. URL: <http://pages.stern.nyu.edu/~adamodar/> (муружаат куни 13.05.19)

3. Колчина Н.В. Финансовый менеджмент [Текст] / Н.В. Колчина. - М.: Юнити-Дана, 2004. - С. 90.

4. Тадқиқотдчи ишланмаси

5. Балабанов И.Т. Основы финансового менеджмента [Текст] / И.Т. Балабанов. - М.: Финансы и статистика, 1999. - С. 359.

6. Маликов Т.С., Ҳайдаров Н.Ҳ., Молия: умумдавлат молияси. – Тошкент: “Iqtisod-moliya”, 2009. – 523 б.

7. МУЛЬТИПЛИКАЦИЯ (лот. multiplicatio — кўпайтириш) “кўпайиш”, “ошириш”, “ўсиш” маъноларини англатади. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти Тошкент. 714 б.

8. Юлчиев Асилжон, Эрматов Рустамбек, & Жамолиддинова Мохинур. (2022). Мамлакатимизда кичик бизнес ва тадбиркорликни ривожлантириш ва аҳоли бандлигини таъминлаш. *research and education*, 1(2), 104–111.

9. Тешабаева, О. Н., Мухаммадов, И. Б. О., & Джамолиддинов, Д. Р. (2020). O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi kompleksi iqtisodiyotni rivojlanishida investitsiyalarning o'rni. In минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-хуқуқий ва инновацион жиҳатлари (pp. 600-603).

10. Тешабаева, О., Исроилов, Х. (2022). Ўзбекистонда сув хўжаликлари тизимини бошқариш иқтисодий-молиявий механизмидаги ўзгаришларнинг асосий йўналишлари. Таълим ва тадқиқотлар республика илмий-услубий журнали. 4-сон, 4-қисм (pp.103-112)



RESULTS OF NATIONAL
SCIENTIFIC RESEARCH



OpenAIRE zenodo
1
2022

ЎЗБЕКИСТОНДА ДАВЛАТ БЮДЖЕТИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Тешабаева Одина Насридиновна-ўқитувчи,
Нишонбоев Дониер Эркинжон угли -магистр,
Фарғона давлат университети

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6637604>

Аннотация: Давлат иқтисодий сиёсатининг муҳим мақсадларидан бири иқтисодий ва ижтимоий соҳани ривожлантиришида барқарорликни сақлашдир. Ўтмишда бу мақсад молиявий барқарорлик деб тушунилган бўлса, ҳозирги кунда ўрта ва узоқ муддатда бутун ижтимоий-иқтисодий тизимнинг барқарор ривожланиши масаласи ушбу сиёсий мақсадга эришишнинг асосий мезонидир.

Калим сўзлар: бюджет тизими, солиқ сиёсати, ресурслар, харажат

2021 йилга мўлжалланган солиқ сиёсатида асосий солиқ ставкаларини сақлаб қолиш, акциз солиғи, ер солиғи, жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи ставкаларини Солиқ кодексига киритиш, 73 хил товарга акциз солиғини бекор қилиш, экспорт қилувчиларни қўллаб-қувватлаш ва бошқа чоралар кўзда тутилган. Қонун лойиҳаси Молия вазирлиги томонидан тайёрланган.

Бюджет буюртмалари бюджет таснифидаги маълумотлар бўйича ўтган йиллардаги маблағларни индексация қилиш йўли билан шаклланади. Стандартлар ва тармоқ кўрсаткичлари асосида иш ҳақи ва иш ҳақидан ажратмалар харажатлари, коммунал хизматлар ҳамда инвестиция дастурларини қабул қилишдан келиб чиқадиган харажатлар режалаштирилган.

Молия вазирлиги «Солиқ сиёсатининг 2021 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари қабул қилиниши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар

киритиш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни лойиҳасини тайёрлади.

Молия вазирлигининг хабар беришича, 2021 йилги солиқ сиёсатининг асосий йўналишларида ҚҚС (15%), фойда солиғи (15%, алоҳида тоифалар учун 20%), жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи (12%), юридик шахслардан олинадиган мол-мулк солиғи (2%), қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар учун ер солиғи (0,95%), ижтимоий солиқ (хўжалик юритувчи субъектлар — 12% ва бюджет ташкилотлари — 25%), айланмадан олинадиган солиқ (базавий ставка 4%) **ставкаларини сақлаб қолينيши назарда тутилади.**

Давлат бюджетини режалаштириш тизими бюджетлараро мутаносибликни таъминлашга йўналтирилади. Бироқ, макроиктисодий барқарорликни таъминлаш, иқтисодий ва ижтимоий ривожланиш дастурларини амалга оширишда йиллик режалаштириш салоҳияти жуда чекланган. Яъни, бюджет маблағларини тақсимловчилар ва бюджет маблағларидан фойдаланувчилар режалаштирилган йилда белгиланган маблағ миқдоридан чиқиб кета олмайди.

Йиллик режалаштириш бюджет интизомини таъминлаш учун муҳимдир. Лекин, бундай фискал интизомнинг афзалликлари бир йиллик муддатга чекланади. Йиллик бюджетни даромад ва харажатлар тасдиқланиши пировад натижада макроиктисодий шароитларга мос келмайдиган камчиликка олиб келади. Бу эса ўз навбатида макроиктисодий ўзгаришлар ва уларнинг фискал даромадларга, ҳозирги кунда давлат бюджети бўйича қабул қилинадиган қарорларнинг келажақдаги бюджетларга таъсирини баҳолаш имконини бермайди. Шундан келиб чиқиб, давлатлар ўз ривожланишида ўрта муддатли бюджет режалаштириш механизmidан кенг фойдаланади.

Дунё мамлакатлари ўрта муддатли бюджетни режалаштиришни бюджет жараёнига жорий этишидан қуйидаги мақсадларни кўзлайди:

1. Давлат маблағларининг барқарорлигини мустаҳкамлаш;

2. Самарали ресурсларни тақсимлашни рағбатлантириш;
3. Ресурслардан янада самарали фойдаланишга кўмаклашиш [1].

1-жадвал

Ўрта муддатли фискал, бюджет ва харажатлар чегаралари [1].

Прогнозлар	Чегаралар		
ЯИМ прогнозлари	Ўрта муддатли фискал чегара (The medium-term fiscal framework (MTFF))	Ўрта муддатли бюджет чегараси (The medium-term budget framework (MTBF))	
Инфляция прогнозлари			
Ялпи харажатлар прогнозлари			
Ялпи даромадлар прогнозлари			
Харажатлар прогнозини кенгайтириш			
Функционал тасниф бўйича харажатлар прогнозини кенгайтириш			
Даромад турлари бўйича прогнозлар			
Дастурлар бўйича харажатлар прогнозлари			Ўрта муддатли чегара (The medium-term expenditure framework (or expanded (MTEF))
Прогнозлар натижалари			

Юқоридаги мақсадларга эришиш учун халқаро терминологияда ўрта муддатли тизимлар деб аталадиган ўрта муддатли бюджетни режалаштиришнинг турли моделлари ишлатилади. Бунда ўрта муддатли истиқболда макроиктисодий кўрсаткичлар прогнози ва бюджет сиёсати асосида бюджет кўрсаткичларининг юқори чегараларини белгиланади. Ўрта муддатли чегаралар турли даражадаги тафсилотларга эга бўлиши ва турли мақсадларга эришиши мумкин, лекин қуйидаги кетма-кетликда аниқ шаклланиши эътибор қаратилади:

– ўрта муддатли бюджет чегараси (ЎМБЧ ёки Medium term fiscal framework) бюджетнинг даромад ва харажатлар қисмларини умумий асосини белгилаган ҳолда давлат молиясининг барқарорлигини мустаҳкамлашига;

– ўрта муддатли бюджет чегараси (ЎМБЧ ёки Medium term budget framework) бюджет даромад ва харажатларининг батафсилроқ чегарасини белгилайди ва ресурсларни янада самарали тақсимлашни рағбатлантиришга қаратилади;

– ўрта муддатли дастур чегараси (ЎМДЧ ёки Medium term program framework) бюджетни дастур ва лойиҳалар билан аниқлайди ва ресурслардан унумли фойдаланишни рағбатлантиришга қаратилади.

Юқорида кўрсатилган тизимларнинг ҳар бири 1-жадвалда келтирилган келажакка оид айрим кўрсаткичларни белгилайди.

1-жадвалда келтирилган ўрта муддатли чегаралар ўрта муддатли бюджетни режалаштиришнинг концептуал асосини ташкил этади. Ушбу асосда ишлаб чиқарилган моделлар мамлакатлар бўйича фарқ қилади, лекин улар иккита асосий моделга ажратилади.

2-жадвал

Ўрта муддатли бюджетни режалаштириш моделлари

Моделлар	Мамлакатлар	Давр
Ўрта муддатли бюджет тизими ва йиллик бюджет	ЕИ мамлакатлари, Канада, Австралия, Янги Зеландия, Арманистон, Украина, Беларус	3-4 йил
Кўп йиллик бюджет тизими	Россия, Қозоғистон	3 йил

Ўрта муддатли бюджет тизими ва йиллик бюджет. Ушбу модел билан бюджет бир йил муддатга тузилади, бироқ айти пайтда даромад ва харажатлар (турли бўлимларда, 3-4 йил) учун ўрта муддатли чеклашлар (чегаралар) белгиланади;

2. Кўп йиллик бюджет. Бюджет ўрта муддатга (3-5 йил) “қайноқ” асосда тайёрланади. Бу шуни англатадики, ҳар йили бюджет олдиндан қабул қилинган кўп йиллик бюджетга бир йил қўшиб, бир неча (3-5) йилда қабул қилинади.

Дунё амалиётида биринчи модел кўпроқ қўлланилади ва у ҳар бир мамлакатнинг ўзига хос хусусиятига мос келади. Кўпгина ривожланган давлатлар ўз бюджетини бир йил давомида қабул қилинади, лекин ўрта муддатли бюджет доирасидан четга чиқишга нисбатан жиддий чекловлар мавжуд.

Ўртача муддатли фискал чекловлар, ўрта муддатли молиявий режалар, истиқболли режа ва бошқалар. Турли атамалар қўлланилади, аммо номнинг қандай бўлишидан қатъи назар, ўрта муддатли даврда ўрта муддатли бюджет даромад ва харажатларининг умумий чекловларини аниқлаш функцияси амалга оширилади.


Иккинчи модел фискал интизомга, умуман иқтисодиётнинг ривожланишидаги барқарорликка, шунингдек, давлат бюджетига кўп йиллик бюджетни тайёрлашда катта юк бўлишига боғлиқлиги сабабли кенг тарқалмаган.

Умуман олганда, ўрта муддатли бюджетни режалаштириш жараёни иккита компонентни ўз ичига олади: стратегик “юқоридан пастга” ва вазирликлараро “пастдан юқорига”.

Стратегик компонент (“юқоридан пастга”) саноат томонидан (функционал тасниф бўйича) ёки вазирликлар томонидан ўрнатилиши мумкин бўлган умумий бюджет рамакаларини ва ўрта муддатли томларни аниқлашни ўз ичига олади. Ҳақиқатда, макроиқтисодий прогнозлар моделига асосланган одатда 3-4 йил давомида йиғиладиган бюджет тузилади.

1-расм

Ўрта муддатли бюджетни режалаштириш жараёни



Вазирлик компоненти ("пастдан юқорига") бюджет сўрови шаклида 3-4 йил мобайнида вазирлик вадораларнинг харажатлар эҳтиёжларини белгилаш

Стратегик компонент ("юқоридан пастга") давлат бюджетининг юқори чегаралари 3-4 йил ичида макроиқтисодий прогнозлар моделлар орқали аниқланади

Ўрта муддатли юқори даражадаги бюджетни режалаштириш макроиқтисодий муносабатларни қамраб олишнинг яхлитлиги ватўлиқлигини таъминлашга асосланган бўлиб, бюджетнинг иқтисодиётнинг бошқа тармоқлари билан ўзаро ҳамкорлигини аниқ кўрсатиб беради.

Вазирлик компоненти («пастки юқоридан») вазирликлар ва идораларнинг бюджетга 3-4 йилгача бўлган эҳтиёжини белгилайди ва бюджет сўрови шаклида тақдим этилади. Ушбу ёндашув вазирликлар ўз бюджетларини тайёрлаш ва стратегик бошқаришда салоҳиятни оширишга ёрдам беради.

3-жадвал

Ўрта муддатли бюджетни режалаштириш доирасида бюджет жараёни иштирокчиларининг ўрни

Ишлаб чиқишга масъул орган	Парламент роли	Мамлакатлар
Молия вазирлиги	Тасдиқлайди	Австрия, Австралия, Франция, Россия, Қозоғистон
	Маълумот учун қабул қилади	Япония, Украина
Тармоқ вазирликлар	Маълумот учун қабул қилинади	Буюк Британия, Канада, Янги Зеландия

"Пастдан юқорига" сарф-харажатларининг эҳтиёжларини аниқлашда харажатлар йиллар ва янги фаолият харажатлари бўйича ўзгармай

келадиган қаттиқ (базага) бўлинади. Ушбу ажратиш мавжуд (ўзгармас) сиёсатни давом эттириш ва ўрта муддатда ҳукумат сиёсатини ўзгартириш билан боғлиқ харажатларнинг молиявий таъсирини баҳолаш учун зарур.

Жамғарилган бюджетни "юқоридан пастга" ва бюджет сўровларини "пастдан юқорига" тайёрлагандан сўнг, улардаги маблағлар бўйича вазирликлар/идораларнинг эҳтиёжлари тўпланган бюджет имкониятларини ҳисобга олган ҳолда бюджет маблағларига айлантирилганда, уларни мувофиқлаштириш бошланади.

Ўрта муддатли бюджетни режалаштиришдаги асосий ўрин Молия вазирлиги ёки тармоқ вазирликларига тегишли. Ўрта муддатга парламентга тақдим этилган бюджет лойиҳаси бошқа мақомга эга бўлиши мумкин: баъзи давлатларнинг парламентлари уни ахборот учун қабул қиладилар, бошқа мамлакатлар парламентлари уни қабул қиладилар. Ўрта муддатли бюджетлар ёки кўп йиллик бюджетлар бюджет билан биргаликда ахборот учун ёки тасдиқлаш учун Парламентга тақдим этилади.

Ҳар бир мамлакат иқтисодий сиёсатининг бош мақсади макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш ҳисобланиб, макроиқтисодий сиёсатнинг асосий вазифалари пул-кредит ва солиқ-бюджет сиёсати соҳасидаги воситаларни қўллаш орқали ноинфляцион, барқарор иқтисодий ўсишга эришишни назарда тутди.

Иккала асосий манфаатдор томонларнинг сиёсатни қўллаш натижалари кўпинча зиддиятли кўриниш касб этади. Шунинг учун пул-кредит ва солиқбюджет сиёсати органлари ўртасида мувофиқлаштириш механизмига эҳтиёж иқтисодий сиёсатнинг исталган якуний мақсадларига эришиш учун зарур ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Filc, G., & Scartascini, C. (2010). Medium-Term Frameworks and the Budget Process in Latin America¹. Development Effectiveness and Results-Based Budgeting

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги 2019 йил 17 январдаги ПФ-5635-сонли фармони, Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси ахборот тизими (www.lex.uz).


3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иқтисодиётни янада ривожлантириш ва иқтисодий сиёсат самарадорлигини оширишнинг кўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2019 йил 8 январдаги ПФ-5614-сонли фармони, Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси ахборот тизими (www.lex.uz).

4. Muscatelli, V.A., Tirelli, P., Trecroci, C., 2004. Fiscal and monetary policy interactions: empirical evidence and optimal policy using a structural New-Keynesian model. *J. Macroecon.* 26, 257–280.

5. Тешабаева, О. (2020). Механизмы организации предпринимательской - инвестиционной деятельности экономики Узбекистана. In минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари (pp. 537-540).

6. Тешабаева, О., & Тухтасинова, О. (2018). Некоторые вопросы развития корпоративных структур в Республике Узбекистан. In Приоритеты мировой науки: эксперимент и научная дискуссия (pp. 227-230).

7. Тешабаева, О., Нишонбоев, Д. (2022). Направления совершенствования бюджетной политики в новом Узбекистане. Таълим ва тадқиқотлар республика илмий-услубий журнали. 4-сон, 4-қисм (pp.56-61)



REAL SEKTORNING SANOAT TARMOG'INI MAHALLIYLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA ERISHILGAN NATIJALAR VA ISTIQBOLDAGI REJALAR

B.A.Xolmatov - I.f.n dotsent
N.K.Xudoynazarova – magistr
Farg'ona Davlat Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6639316>

***Annotatsiya:** “O‘zbekiston sanoati rivojlanishining asosiy maqsadi nafaqat ushbu iqtisodiyot sektorida o‘shirish sur‘atlarini oshirishga intilish, balki boy tabiiy resurslar salohiyatidan foydalanish orqali ustuvor tarmoqlar va ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning zamonaviy tarkibini shakllantirish, tashqi va ichki bozorda mamlakat sanoati raqobatdoshligi va samaradorligini oshirish uchun chora-tadbirlar majmuasini shakllantirishdan iborat”¹¹ deb ta’kidlab o‘tgan edi prezidentimiz.*

Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish iqtisodiy o‘shirish va iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan o‘zgartirishning muhim omillaridir.

Kalit so‘zlar: sanoat tarmog‘ida mahalliyashtirish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar, mahalliyashtirish dasturi, kooperatsiya, mahalliyashtirish bo‘yicha imtiyozlar.

Dunyoning barcha davlatlari qatori COVID-19 pandemiyasi O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmadi, hamda o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirlarini ko‘rsatdi. Dastlab, pandemiya natijasida kelib chiqqan iqtisodiy inqiroz va aviaqatnovlarning to‘xtalishi mamlakatimizda endi rivojlanib kelayotgan turizm sohasiga, hamda o‘z - o‘zini yakkalash karantin rejimi joriy qilingach esa tadbirkorlikning qolgan shakllariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Jahon iqtisodiyotiga tobora integratsiyalashib borayotgan mamlakatimiz, asosiy hamkorlarimizda ham kuzatilgan iqtisodiy inqirozlar sabab, davlat chegaralarining yopilishi natijasida 2020 yil yanvar-mart

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so‘zi, 29 dekabr 2018 yil

oylari yakuni bilan tashqi savdo aylanmasi 8 140,4 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 924,1 mln. AQSH dollariga yoki 10,2 foizga kamaydi. Tashqi savdo aylanmada eksport hajmi 10,9 foizga pasayib 3 374,7 mln. AQSH dollarini va import hajmi esa 9,7 foizga kamayib 4 765,7 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.¹²

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, so'nggi yillarda sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilish, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga erishildi. Biroq, 2020 yilning birinchi choragida eksport va import miqdorlari o'rtasidagi farq 2019 yilgi ko'rsatkichlarga nisbatan kamaygan bo'lishiga qaramasdan, inqiroz mamlakatimiz eksport ko'rsatkichiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Buning asosiy omili sifatida, asosiy hamkor davlatlar tomonidan mamlakatimizning tovar va xizmatlariga bo'lgan talabining kamayishini keltirishimiz mumkin. Pandemiya keltirib chiqargan inqiroz sharoitida, mamlakatga horijiy valyuta oqimini ta'minlashning asosiy unsuri bo'lgan eksport ko'rsatkichini yanada yaxshilash muammosi endilikda zamonaviy yechimlarni talab etadi.

Mahalliyashtirilgan mahsulotlar narxi import qilinayotgan o'xshash mahsulotlar narxidan sezilarli darajada arzon. Bu o'z navbatida ichki talabni rag'batlantirmoqda va bozorni sifatli mahalliy mahsulotlar bilan to'ldirilishiga olib kelmoqda.

Yuzlab turdagi mahalliyashtirilgan mahsulotlar nafaqat ichki bozorni to'ldirmoqda, balki tashqi bozorga ham eksport qilinmoqda. Mahalliy tabiiy xomashyo resurslari, import hajmi va tarkibini chuqur tahlil qilish natijasida ishlab chiqilib, keng jamoatchilik va tadbirkorlik sub'yektlariga yetkazilayotgan mahsulotlarni o'zlashtirish takliflari, xususiy investorlarni jalb etishni va sanoatning ustuvor tarmoqlarida faoliyat olib borayotgan barcha xo'jalik sub'yektlarining faoliyatini muvofiqlashuvini taqozo etmoqda.

¹² www.mineconomy.uz

Mahalliyashtirish dasturini samarali amalga oshirishda dunyoning yetakchi horijiy kompaniyalari va investorlarini jalb etish katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Samarqand viloyatidagi og‘ir yuk mashinalari ishlab chiqaruvchi «MAN» kompaniyasi, qishloq xo‘jaligi texnikalari ishlab chiqaruvchi «CLASS» va «Lemken» kompaniyalari, maishiy texnika ishlab chiqaruvchi «Toshiba», «Candy», «LG» va «SAMSUNG» korxonalari shular jumlasidandir.

Ichki talabni rag‘batlantirish, tarmoqlararo va tarmoqlar ichida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish hamda qo‘shimcha tender o‘tkazmasdan mahalliy mahsulotlarni sotib olish imkoniyati soha taraqqiyotiga zamin yaratmoqda.

Xomashyo va materiallar zaxirasini kengaytirish maqsadida, iqtisodiyotning metallurgiya, kimyo, qayta ishlash, qurilish, farmatsevtika, elektrotexnika tarmoqlari salohiyatidan yanada unumliroq foydalanish ko‘zda tutilgan.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida mamlakatimizning barcha hududlarida yangi zamonaviy korxonalar va ish o‘rinlari yaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Shuningdek, mahalliyashtirish dasturiga kirgan korxonalar uchun, yagona soliq to‘lovi, mulk va foyda solig‘i hamda bojxona to‘lovlaridan ozod etish bo‘yicha imtiyozlar o‘rnatilgan.

Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish darajasini oshirish iqtisodiyotning barqaror va izchil rivojlanishi, uning tashqi omillarga tobeligini kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonlariga yangi samarali texnologiyalarning tatbiq etilishini jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi uch yilda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hisobiga shaxta vagonetkalari, vakuum nasoslar, ko‘tarma kranlar, har xil turdagi o‘tga va kislotaga chidamli materiallar, qurilish jihozlari, sendvich panellar, sun‘iy sintetik gazonlar, shisha bankalar, butilkalar, kraxmal, non mahsulotlari uchun achitqilar singari yuz turdan ortiq tovarlarning mamlakatimizga olib kirilishi butunlay to‘xtatilgan.

Maishiy elektrotexnika mahsulotlari, avtomobil filtr va radiatorlari, po‘lat quvurlar, keramik plitalar, tibbiyot ampulalari, poligrafik bo‘yoqlar, bolalar o‘yinchoqlari, sport anjomlari kabi 350 dan ortiq turdagi mahsulotni chetdan keltirish

ikki baravardan ziyodga kamaygan. 2021-yilda 960 loyihani amalga oshirish hisobiga 6 trillion 500 milliard so'mga yaqin mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilishi belgilangan. 122 turdagi o'zlashtirishga taklif etilgan mahsulotlar aniqlangan.

Bundan tashqari, mahalliy iste'molchilarga tanlov imkoniyatini berish, halol raqobat, bozordagi adolatli narx va yuqori sifat ko'rsatkichlariga erishish maqsadida aksariyat import mahsulotlari bo'yicha bojxona tariflari isloh qilindi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatda mahalliy xomashyolar asosida import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda yirik sanoat korxonalarini bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida sanoat kooperatsiyasi aloqalarini yanada kengaytirishni ta'minlash maqsadida qo'yidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

1) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, davlat va xo'jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlari rahbarlari faoliyatida ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini kengaytirishni jadallashtirish **eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri** etib belgilandi;

2) Iqtisodiyot va sanoat vazirligi **ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish jarayonlarini chuqurlashtirish bo'yicha vakolatli organ** sifatida belgilandi;

3) Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tuzilmalarida **hokimning ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish masalalari bo'yicha yordamchisi** lavozimi joriy etildi;

4) Tarmoq xo'jalik birlashmalari va yirik ishlab chiqarish korxonalarida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarida **korxonalar rahbarining mahalliylashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish hamda axborot-texnologiyalari masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari** lavozimi joriy etildi;

Davlatimiz rahbarining 2022- yil 24-yanvardagi qarori bilan 2022-yilga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirish

dasturi qabul qilingan edi. Unga muvofiq, 2 ming 455 ta loyiha doirasida qariyb 37 trillion so‘mlik yangi mahsulotlar ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

“Bugungi o‘zgaruvchan sharoitda iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlashning eng samarali yo‘li bu – ichki imkoniyatlarni ishga solish, import bo‘layotgan ayrim mahsulotlarni o‘zimizda ishlab chiqarish va sanoatni yanada rivojlantirish. Bu milliy iqtisodiyotimizning ustuvor yo‘nalishi bo‘lishi kerak, “¹³– dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yirik korxonalar bilan mahalliy ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida kooperatsiyani mahsulotlar kesimida yo‘lga qo‘yish zarur. Jumladan Navoiy kon metallurgiya kombinati xorijdan olayotgan mahsulotlar va ularga texnik talablar haqidagi ma‘lumotlarni “kooperatsiya portali”ga joylashtirgandan so‘ng, ilgari import qilingan 600 milliard so‘mlik mahsulotlarni hozir 18 ta mahalliy korxonaga yetkazib bermoqda. Bu tajribani barcha tarmoq va hududlarda yo‘lga qo‘yish, import qilinayotgan mahsulotlarni o‘zlashtirishga tadbirkorlarni jalb etish orqali mahalliyashtirishni yanada rivojlantirish mumkin.

Shu maqsadda sanoat yarmarkalari o‘tkazish tartibi ham o‘zgartiriladi. U yerda tayyor mahsulotga xaridor topish bilan birga, o‘zlashtirishga tavsiya qilinayotgan tovarlar bo‘yicha biznes rejalar ham ishlab chiqiladi. Loyihaga qiziqqan tadbirkorlar shu yerning o‘zida buyurtmachi bilan xarid shartnomalarini, banklar bilan moliyalashtirish masalasini kelishib oladi.

2022-2023-yillar uchun qabul qilingan dasturga ko‘ra quyidagi ishlar amalga oshirish rejalashtirildi:

- ✓ Sanoat tarmoqlari yirik korxonalar bilan mahalliy ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida “mahsulotbay” kooperatsiyani yo‘lga qo‘yish;
- ✓ 2022-yil uchun kooperatsiya shartnomalari tuzish rejasi 15 trln so‘mga yetkazish;
- ✓ 1-iyulga qadar jami 283 ta turdagi import qilinayotgan mahsulotlarni mahalliyashtirish bo‘yicha tayyor biznes rejalarini tadbirkorlarga taklif etiladi.

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil 11-mart kuni sanoat kooperatsiyasi va mahalliyashtirishni yanada kengaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidan

Sanoat yarmarkalari faoliyati tubdan qayta ko'rib chiqiladi. Bunda:

- Tayyor mahsulotlarga xaridor topish bilan birga, o'zlashtirish tavsiya qilinayotgan mahsulotlar bo'yicha biznes rejalar ham qilinadi;
- Loyihaga qiziqish bildirgan tadbirkorlar shu yerni o'zida banklar bilan moliyashtirish shartlarini kelishib oladilar;
- Buyurtmachilar loyiha tashabbuskorlari bilan 3 yil muddatgacha kafolatli xarid shartnomasini tuzadilar;
- “ekspomarkaz”ning 1 pavilonida doimiy ishlaydigan sanoat yarmarkasi tashkil etiladi;
- Viloyat markazlarida shuningdek sanoat zonalarida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning “shou-rum”lari ishga tushiriladi.

Shu bilan birga , 2022-yil 1-apreldan boshlab:

- ✓ Yangi loyihalarning marketing tadqiqotlari, loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, horijiy mutaxasislarni jalb qilish xarajatlarining yarmi qoplab beriladi
- ✓ Mahalliy korxonalar mahsulotlarini horijda sertifikatlash xarajatlarining 50% qoplab beriladi.

Ushbu ishlarni moliyashtirish uchun eksportni qo'llab quvvatlash jamg'armasidan 10 mln dollar yo'naltiriladi.

2022-yil aprel oyidan boshlab xom-ashyoni olib kelib, tayyor mahsulot chiqargan va uni chetga sotadigan korxonalariga:

- Eksportyorlar uchun beriladigan barcha subsidiya, imtiyoz va yengilliklar tatbiq qilinadi
- Ularning loyihalari doirasida texnik-iqtisodiy asos, mahsulot sertifikati, bojxona to'lovlari ta'minotitalab etilmaydi
- Ruxsatnoma berish muddati 3 barobar qisqaradi ya'ni 30kundan 10 kunga o'zgaradi
- 1 yil davomida ishlab kelayotgan tadbirkorlarga ruxsatnoma har bir kontraktiga emas, balki faoliyatiga beriladi

➤ Ularni olib kelgan dastgohlari uchun bojxona bojlari undirilmaydi. Bu ishlar mavjud 22ta erkin iqtisodiy zonalar hududlarida tashkil etiladi.


Jumladan:

- ✓ Urgutda oziq-ovqat va elektrotexnika mahsulotlari;
- ✓ Navoiy va Qo'qonda maishiy elektrotexnika
- ✓ Chustda tayyor kiyimlar
- ✓ Bo'stonliqda farmasevtika
- ✓ Angren va Chirchiqda maishiy va sanoat kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlari joylashtiriladi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, sanoatning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e'tibor tarkibiy o'zgarishlarga qaratilgan bo'lib, ular sanoat tarmoqlaridagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va tarkibiy siljishlar bilan birgalikda bashorat qilinadi. Sanoatning tarmoq tarkibini 2030 yilga qadar takomillashtirish YaIMda sanoat ulushini rivojlangan davlatlarda YaIM tarkibidagi xarakterlarga xos bo'lgani kabi 2017 yildagi 33,5 foizdan 2030 yilda 40 foiz oshirish bilan asoslanadi. Bu maqsadga erishi uchun, shuni aytish kerakki, bugungi kunda mamlakatimizda bu boradagi ishlar boshlab yuborilgan. Ayni vaqtda bu ishlar har bir turdagi istiqbolli xomashyo va yarim fabrikat bo'yicha chuqur qayta ishlashning 2020, 2025, 2030 yillarga mo'ljallangan aniq dasturiga ega bo'lish uchun mutlaqo yangi dasturiy kompleks yondashuvni talab etadi. Bundan tashqari, davlatimiz rahbariyati tomonidan tanlab olingan taraqqiyot strategiyasi raqobatdosh, eksportbop hamda import o'rnini bosuvchi, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan bo'lib, u sanoatning barqaror va mutanosib ravishda o'sishi hamda ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash asosida uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish” –
H.Abulqosimov,O.Xamrayev o’quv qo’llanma Toshkent “Iqtisod-Moliya”
2014
2. A.Ortiqov M.Isakov Industrial iqtisodiyot T: “Iqtisodiyot” 2019
3. www.mineconomy.uz (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)
4. www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi)
5. www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)



ЎЗБЕКИСТОНДА БАНК ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИ БОШҚАРУВИ ВА РИВОЖЛАНИШИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Тешабаева Одина Насридиновна-ўқитувчи,
Юлдашева Дилафруз Абдумаликовна-ўқитувчи
Нумонов Муслимбек Абдушукур ўғли-магистр,
Фарғона давлат университети
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6643333>

Аннотация: Мамлакатимиз банк-молия тизимида амалга оширилаётган жадал ислохотлар тижорат банклари капиталлашув даражасини ошириш, молиявий барқарорлигини таъминлаш, иқтисодиётнинг реал секторини кредитлаш кўламини кенгайтириш, банк хизматлари сифатини янада яхшилаш ва айниқса, банкларнинг ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқиш, амалиётга жорий этиш ва унинг назорат тизимини такомиллаштиришни тақозо этмоқда.

Калим сўзлар: банк хизматлари, молия, рақобат, самарадорлик

Бугунги кунда жаҳон банк тизими ва йирик тижорат банклари амалиётидаги муаммолар бўйича олиб борилаётган илмий тадқиқотлар шуни кўрсатадики, банк фаолиятининг сифат жиҳатдан янги даражага чиқишини таъминловчи, ундаги ички ва ташқи рискларни ўз вақтида аниқлаш ҳамда уларни баратаф этиш имкониятларини берувчи, шунингдек, мамлакат иқтисодий-ижтимоий тизимини ривожлантириш йўналишларига мос келувчи ва жаҳон молия бозорларида кузатилаётган салбий тенденцияларга қарши таъсирчан ҳамда ҳар томонлама пухта ўйланган банк стратегиясини ишлаб чиқиш муҳим ҳисобланади. Хусусан, The Goldman Sachs group, inc. банк холдинги томонидан 2016-2018 йилларга мўлжалланган банк фаолиятини ривожлантириш стратегиясининг муваффақиятли амалга оширилиши, 2017 йил якунлари бўйича соф фойда миқдорини 1,9 фоизга, капитал рентабеллигини 1,3 фоизга (2017 йилда 4,9 фоиз) ва операцион харажатлар рентабеллигини 1,6 фоизга (2017 йилда 31,5 фоиз) ошириш имконини берган.

Шу нуқтаи назардан банк хизматлари бозорини ривожлантириш ҳамда хизматлар бозорида рақобат даражасини ошириш масалалари банк секторининг барқарор ривожланишини таъминловчи муҳим шартлардан бирига айланиб бормоқда.

Жаҳон амалиётида тижорат банклари актив ва пасивларини бошқариш стратегиясини шакллантириш, миқдорлар салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, замонавий ИТ технологияларга асосланган ҳолда Smartbanking тизимида фаолият юритувчи банк бўлинмаларини ташкил этиш ва тармоғини кенгайтириш, ҳудудий бўлинмалар тармоғини ривожлантириш сиёсати ва уларни бошқариш самарадорлигини ошириш, функционал стратегиялар билан банк департаментлари томонидан шакллантирилган сиёсатларнинг ўзаро мувофиқлигини таъминлаш, шунингдек, тижорат банклари фаолиятини ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқиш механизмини такомиллаштириш бўйича илмий муаммоларни ҳал этиш долзарб аҳамият касб этмоқда.

Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида банк тизимини янада ривожлантиришга қаратилган “илғор хориж тажрибаси ва халқаро стандартлар асосида, молиявий барқарор ва рақобатдош муассаса сифатида фаолият олиб боришини таъминловчи узоқ муддатли ривожлан-тириш стратегияларини ишлаб чиқиш, банк рисклари ва уларни вужудга келишини барвақт аниқлаш, олдини олиш ва бартараф этишда банк имкониятларини ошириш, турли сценарийларни қўллаган ҳолда ликвидлик позициясини стресс-тестдан ўтказиш амалиётини янада такомиллаштириш, валютани тартибга солишда замонавий бозор механизмларини жорий этиш ва миллий валютанинг барқарорлигини таъминлаш”[1] каби вазифалар белгилаб берилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида», 2017 йил 2 сентябрдаги ПФ-5177-сон

“Валюта сиёсатини либераллаштириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармонлари, 2017 йил 12 сентябрдаги ПҚ-3270-сон “Республика банк тизимини янада ривожлантириш ва барқарорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори ҳамда мазкур фаолиятга тегишли меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга ошириш бугунги кундаги долзарб масалалардан ҳисобланади.

Республикада банк хизматлари кўрсатиш тизимини такомиллаштириш ҳамда тижорат банкларининг рақобатбардошлигини ошириш миллий иқтисодиётнинг барқарор ривожланишида муҳим ўрин тутди.

Республикада банклари фаолиятининг ривожланиши, унинг эркинлашуви иқтисодий рақобат муҳитини шакллантириш жараёнига ҳамоҳанг ҳолда давом этмоқда. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида рақобат объектив зарурият бўлиб, унинг ривожланишини таъминловчи асос ҳисобланади.

Рақобат иқтисодий тараққиётнинг асоси ҳисобланар экан, банклараро рақобат ҳам пировард натижада иқтисодиётга ижобий таъсир кўрсатади. Шундай экан банклараро рақобат ҳам бозор иқтисодиёти шароитида объектив зарурият ҳисобланади.

“Рақобат – бозор иқтисодиёти иштирокчиларининг ўз манфаатларини юзага чиқариш учун бир-бири билан кураши, уларнинг ўзаро беллашувидир”[12]. Иқтисодчи олимларимизнинг юқоридаги таърифидан кўриниб турибдики, рақобат авваламбор ўз манфатини юзага чиқариш учун курашдир. Банклараро рақобат ҳам ҳар бир банк томонидан ўз манфаатларини юзага чиқариш учун яъни фойда олиш учун курашдан иборатдир. Шундай экан, банклараро рақобат авваламбор мижоз учун курашдан иборат бўлади. Қайси банкнинг мижозлари кўп ва обрўли бўлса ўша банкнинг ўз манфаатларини юзага чиқариш имкониятлари юқоридир.

Мижоз учун кураш ва унга таъсир этувчи омилларни 1-чизмада кўришимиз мумкин. Чизмадан кўришиб турибдики мижозларни ўзига жалб этиш банклар томонидан кўрсатиладиган банк хизматларининг кўлами, сифати ва баҳосига, унинг банк ва мижоз учун самарадорлигига, қўшимча сервис ҳамда рекламага боғлиқдир.

1-чизма

Мижоз учун кураш ва унга таъсир этувчи омиллар [11]



Бугунги кунда банк фаолиятини эркинлаштириш шароитида банклараро рақобатнинг кучайиши ва унинг такомиллашуви заруриятга айланиб бормокда. Банк фаолиятида рақобатнинг бир неча тури бўлиб, ҳар бири банкнинг инновацион эҳтиёжини ривожлантиришга ва янги банк хизматларини киритишда ўз ҳиссасини қўшади. Банк хизматларининг рақобатбардошлиги ҳақида гап кетганда, биз унинг инновацион характерини тушунамиз. Маҳаллий молия бозорларида бугунги кунда бозорнинг ҳар бир қатнашчисига катта талаблар қўйилмокда, талабларда рақобатнинг барча турлари қўлланилади. Булар қуйидагилардир:

1. Функционал.
2. Кўринишли.
3. Предметли.
4. Аралаш

Функционал рақобатнинг пайдо бўлиш сабаби шундаки, ҳар қандай молиявий хизматга бўлган эҳтиёжни кўп йўллар билан қониқтириш мумкин. Масалан, корхонанинг моддий талабларини қондириш учун (бизнес режа бўйича) кредит, инвестиция, ссуда ва заёмлар олинади. Баъзи хизматлар муҳим параметрлар билан фарқ қилади ва кўринишли рақобат пайдо бўлади. Масалан, минимал ёки максимал депозит миқдори ва муддати билан.

Мижозларга кўрсатиладиган банк хизматларининг сифати асосида рақобатнинг предметли кўриниши юзага келади. Масалан, ахборотни ишончли ҳимоялаш, банк ўзининг ишончилиги, операцияларнинг тезлиги ва ходимларнинг тезкорлиги ва малакаси.

Банклараро рақобат кураши шароитида рақобатбардошлик муҳим аҳамият касб этади. “Рақобатбардошлик – бу рақобатга чидамли бўлиш, унда ғолиб келиш қобилиятига эга бўлишдир”[12].

Банклараро рақобат курашида банкларнинг рақобатбардошлигига таъсир этувчи омилларни қуйидаги 2-чизмада кўриш мумкин.

2-чизма

Банкларнинг рақобатбардошлигига таъсир этувчи омиллар [11]



Банк бошқаруви ва мутахассислар салоҳияти инсон факторини ташкил этади. Банк капиталининг етарлилиги ва сифати ҳамда банкнинг ликвидлилиги унинг барқарор фаолиятидан далолат беради ва мижозлар ишончига сабаб бўлади. Ресурслар барқарорлиги, активлар сифати ишончли

фаолият замиридир. Фойдалилик кўрсаткичлари банк акционерлари кўзлаган асосий мақсад ҳисобланади.

Банк фаолиятида рақобатнинг характери бозор характери билан белгиланади. Катта шаҳарларда ва саноати ривожланган ҳудудларда кўп банклар, банк филиаллари мавжуд бўлиб, у ерда мижозларнинг бозор қонуни бўйича рақобат ривожланади. Республикамиздаги кичик шаҳарларда ва қишлоқ жойларда банк хизматларига бўлган талаб асосан мини банклар ва кредит уюшмалари орқали қондирилмоқда. Аммо бундай ҳудудларда банк инфратузилмасининг ривожланмаганлиги, алоқа тизимидаги узулишлар банк хизматларини тўлақонли равишда амалга оширилишига тўсиқ бўлмоқда. Бу эса ўз навбатида мижозлар томонидан банк хизматлари учун тўланадиган тўловларни юқори даражада бўлишига олиб келмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Тошкент : Ўзбекистон, 2017. – 104 б.

2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. 2016 йил 7 декабрь /Ш.М.Мирзиёев. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 48 б.

3. Ортиқов А.О. Банклараро рақобат шароитида банк хизматлари ва уларни такомиллаштириш йўллари. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган автореферати – Тошкент, 2009. 19 б.

4. О.Алқориев. “Тижорат банкларида молиявий хизмат турларини ривожлантириш йўналишлари” и.ф.н. дисс. автореф. 2011 й, 54 бет.

5. О.Н.Тешабаева, Х.М.Шерматова. (2022). Современные информационные услуги в обеспечение конкурентоспособности коммерческих банков. Scientific progress 3 (1), (pp.44-51).

6. Тешабаева, О. Н. (2019). Эффективное развитие рекламной маркетинговой деятельности в современном бизнесе. In Тенденции развития мировой торговли в XXI веке (pp. 116-119).

7.Тешабаева,О.Н., Абдуллаева З.(2021). Создание благоприятных условий для привлечения иностранных инвестиций в экономику Узбекистана (pp.57-65)

8.Тешабаева,О.Н.(2020).Механизмы организации предпринимательской-инвестиционной деятельности экономики Узбекистана. In минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жихатлари (pp. 537-540).

9.Тешабаева О.Н., Райимджанова Г.Х., Зайлобиддинов Ш. Внедрение информационно-коммуникационных технологий на развитие электронного бизнеса в Республике Узбекистан. №22/151,2020 г.

10.Тешабаева О.Н., Алижонова У.Ғ.(2021) «Некоторые этапы развития и внедрения информационно-коммуникационных технологий на экономику Узбекистана».№3/14, (pp. 571-575).

11. А.Азларова, М.Абдурахмонова. Ўзбекистон банк тизимида маркетинг фаолиятини такомиллаштириш истиқболлари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали, 2018 йил 1-сон.

12. Ўлмасов А., Вахобов А. Иқтисодиёт назарияси. Т: Шарқ, 2006. 223-б.



RESULTS OF NATIONAL
SCIENTIFIC RESEARCH



OpenAIRE zenodo
1
2022

ЎЗБЕКИСТОНДА ЎРТА МУДДАТЛИ БЮДЖЕТ-СОЛИҚ СИЁСАТИ СТРАТЕГИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Тешабаева Одина Насридиновна-ўқитувчи,
Содиқов Нажибулло Асадулло ўғли- магистр,
Фарғона давлат университети

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6643353>

Аннотация: Мақолада монетар ва фискал сиёсатни мувофиқлаштириш шакллари таҳлил ва таққослаш методлари асосида тадқиқ этилган. Мувофиқлаштириш зарурати далилларни солиштириш ва таққослаш, индукция ва дедукция методларига асосан кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: пул-кредит, бюджет, солиқ сиёсати, молиявий ресурс

Пул-кредит сиёсати қандай амалга ошириладигани, ҳукуматнинг бюджет тақчиллигини (дефицити) молиялаш қобилияти билан боғлиқ, чунки бу қарзга хизмат кўрсатиш харажатлари миқдорига таъсир қилади, шунингдек, мавжуд молиялаштириш манбаларини чеклашига ёки кенгайтиришига олиб келади.

Бошқа томондан эса, ҳукуматнинг молиявий эҳтиёжлари ва уни молиялаштириш стратегияси пулкредит органининг оператив мустақиллик чегараларини белгилайди. Бюджет дефицитининг таъсири нафақат инфляция ва ишлаб чиқаришнинг ўсиш суръатларига, балки дефицит ҳажмининг қандай молиялаштирилишига ҳам боғлиқ.

Ҳукумат қарз мажбуриятларининг маҳаллий ва хорижий инвесторлар томонидан ихтиёрий хариди одатда молиялаштиришнинг мақбул усули ҳисобланади, чунки бундай усулда, катта молиявий дефицитлар, яъни инфляциянинг ўсиши, шунингдек, ташқи иқтисодий алоқаларнинг заифлашуви каби салбий оқибатлар чекланган бўлади. Аниқ бозор сигналлари асосида амалга ошириладиган давлат қимматли қоғозларига ихтиёрий инвестициялар қарор қабул қилувчиларга дарҳол ва ишончли ахборот беради шунингдек, молиялаштиришнинг бу тури жамоатчилик ва ҳукумат учун қандай оқибатларга олиб келишини аниқлаш имконини беради. Юқоридагига

нисбатан молиялаштиришнинг бошқа манбалари фақат муаммоларни янада кучайтириши мумкин, яъни давлат бюджети дефицитининг сезиларли даражада ортишига олиб келиши мумкин.

Марказий банк томонидан ҳукуматга кенг кўламдаги кредит берилиши, ички кредит эмиссиясини жадаллаштиради бу эса халқаро захираларга ҳамда пул захирасига таъсир кўсатади ва шунга мос равишда мамлакатда инфляция суръатини ўсишига олиб келиши мумкин. Давлат қимматбаҳо қоғозларини мажбурий тарзда жойлаштириш молиявий секторда стагнация ҳолатини юзага келишига ва натижада, хусусий секторнинг молиявий бозордан "сиқиб чиқарилиши"га олиб келади.

Агар дефицит чет эл (хорижий) маблағлари ҳисобидан молиялаштирилса, ташқи қарз олишга бўлган қарамлик ҳаддан ташқари кучайишига олиб келиши мумкин бу эса ҳукумат ўз мажбуриятларини бажариш қобилиятига бўлган ишончни сусайтиради. Ривожланаётган мамлакатлар, саноати ривожланган мамлакатларга қараганда бюджет дефицитини кўпроқ Марказий банк орқали молиялаштиради. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, монетар ва фискал сиёсатлар мувофиқлаштирилмаса қуйидаги учта сценарий юзага келиши мумкин.

Биринчи сценарийда Марказий банк асосий ўринни эгаллайди ва бунинг натижасида Марказий банк ҳукуматнинг молиявий эҳтиёжларидан қатъи назар пул базасининг ўсишини белгилайди. Бундай ҳолда давлат бюджет дефицити ички ва ташқи молия бозорларининг молиявий имкониятлари билан чекланиб қолади. Охир-оқибатда ҳукумат, ёки бюджет камомadini мавжуд молиялаштириш билан мос равишда камайтиришга тўғри келади, бу эса бюджет харажатлари таркибини қисқартиришдаги танловлар чекланиши хавфини юзага келтиради, ёки ташқаридан молиялаштиришга олиб келади ёки катта ҳажмда давлат қарз мажбуриятларини ички бозорга жойлаштириш керак бўлади, бу эса реал фоиз ставкаларининг сезиларли даражада ортишига олиб келади.

Иккинчи сценарийда Молия вазирлиги устувор ўринни эгаллайди ва шунга мос равишда Марказий банк (пул-кредит органи) билан маслаҳатлашмасдан давлат бюджети тақчиллиги ҳажмини белгилайди. Агар облигациялар бозорининг молиявий имкониятлари ҳисобга олинса, бундай ҳолда, пул-кредит органи пул базаси ҳисобидан зарур бўлган барча молиялаштириш манбаи билан таъминлашга мажбур бўлади (яъни бевосита ҳукуматга бериладиган кредитлар).

Агар мавжуд нарх даражасини ҳисобга олган ҳолда реал пул базасига бўлган талабнинг ўсиш суръати ошиб кетаётган бўлса, бу инфляция даражасини ўсиб боришига ва халқаро захиралар билан боғлиқ муаммоларни юзага келишига олиб келади. Бундан ташқари, инфляция туфайли юзага келган беқарорлик ички молия бозорининг ривожланишини чеклайди. Ниҳоят, учинчи сценарийда Марказий банк ва Молия вазирлиги иккови ҳам мустақил равишда ҳаракат қиладилар.


Бунинг натижасида пул-кредит ва бюджет-солиқ органлари пул базасининг ўсиши ва бюджет дефицити ҳажмига нисбатан мувофиқ бўлмаган қарорлар қабул қилишлари мумкин. Солиқ органлари бюджет дефицитининг ички ва ташқи облигациялар бозорида эмиссия солиғи ҳисобидан қопланмайдиган қисмини молиялаштиради.

Агар мамлакатда ички молиявий бозорлар етарлича ривожланмаган бўлса, шунингдек ҳукумат ташқи молиявий манбалардан максимал фойдаланган тақдирда ҳам зарурий молиялаштириш манбалари билан таъминлай олмаса, унда юқорида келтирилган икки сценарий юз беради, яъни ё бюджет-солиқ ёки монетар сиёсат бўйсунувчи ҳолат юзага келади. Бундан ташқари, ҳаттоки ички капитал бозори яхши ривожланган ҳолатда ҳам, фискал вазибалар билан монетар сиёсат мақсадлари мувофиқлашмаса ички қимматли қоғозлар бозорида фоиз ставкаларининг сезиларли даражада ўсишига ёки ҳукуматнинг муддатида тўланмаган мажбуриятлари ҳажми ошишига олиб келади.

Юқоридаги сценарийлардан исталган бирида фискал ва пул-кредит сиёсатини мувофиқлаштириш вазиятни яхшилаши мумкин, чунки пул-кредит ва давлат ҳаражатларини бошқариш жараёнларининг ривожланиши бу сиёсатларининг бир-бири билан ўзаро таъсирини мустаҳкамлайди.

Мамлакатда молия бозорларининг ривожланганлиги, пул-кредит сиёсатини юритиш ва давлат ҳаражатларини бошқариш методларини мукаммаллаштириш (юксалтириш)да қўшимча имкониятларни яратади. Ўзбекистонда монетар ва фискал сиёсатни мувофиқлаштириш зарурати мавжудлиги амалиётда яққол кўриниб турибди.

Масалан, 2017–2018 йилларда кредитларнинг ошиши мувозанатли макроиқтисодий шароитларда иқтисодий ўсиш суръатларининг қўшимча тезлашишида ўз аксини топиши керак эди. Лекин, иқтисодиётга ажратилган кредитлар ўсиш суръатининг ялпи ишлаб чиқариш ҳажмининг ўсиш суръатидан 2 баробардан кўпроқ ошиши, иқтисодиётда қўшимча талаб юзага келишига ва талаб ҳажмларининг амалдаги таклиф ҳажмларидан ошиб кетишига, пировардида мусбат ишлаб чиқариш тафовутининг пайдо бўлишига олиб келди.



2013–2018 йилларда ишлаб чиқариш салоҳияти ва амалдаги ишлаб чиқариш ҳажмлари ўртасидаги тафовут.

Амалга оширилган таҳлиллар 2018 йилнинг бошидан бошлаб иқтисодиётда ишлаб чиқаришнинг ижобий тафовути пайдо бўлиб, унинг ўсувчи динамикага эга эканлигини кўрсатмоқда.

Ишлаб чиқариш фарқининг ижобийлиги ва ўсиб бориши 2019 йилда ҳам ички нархларга босимни юзага келтириши ва асосланмаган талаб ҳажмининг ошиб бориши орқали пул-кредит сиёсатини юритиш шарт-шароитларини қийинлаштиради. Шунингдек, бюджет харажатлари ва кредитлар ҳисобига шаклланаётган инвестицион ва истеъмол талабининг катта қисми импорт эвазига қондирилиши импорт ҳажмларини кескин оширмоқда. Бу ташқи савдо балансининг манфий сальдо билан ижро этилишига ва миллий валюта курсига нисбатан девальвацион босимнинг юзага келишига сабаб бўлмоқда.

Илмий, назарий ва амалий тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки, Ўзбекистонда фискал ва монетар сиёсатни мувофиқлаштириш зарурати куйидаги сабабларга кўра намоён бўлмоқда: -макроиқтисодий маълумотлар ва прогнозларни ишлаб чиқишда ўзаро уйғунликнинг сустлиги; -ривожланиш давлат дастурларини давлат ва банклар томонидан фаол молиялаштирилиши пул-кредит кўрсаткичлари шаклланишига, шу жумладан банк тизими ликвидлигига сезиларли даражада таъсир кўрсатаётганлиги;

-бюджет даромад ва харажатларининг ички ва ташқи ҳамда даврий ва мавсумий омилларга таъсирчанлиги юқори эканлиги;

-бюджет тақчиллигининг ҳажми ва уни молиялаштириш манбаларининг аниқ белгилаб қўйилмаганлиги;

-давлат қарз мажбуриятларини муомалага чиқариш натижасида марказлашган харажатларнинг оширилиши, пировардида ялпи талабнинг ўсиши орқали инфляцияга маълум бир босимнинг юзага келиш эҳтимоли мавжудлиги;

-иқтисодиётда ялпи талаб ҳажмининг ялпи таклиф ҳажмига нисбатан юқори бўлиб бораётганлиги;

-давлат корхоналарининг давлат томонидан мунтазам қўллаб-қувватлаб турилиши, уларнинг бозорда монопол ўринда бўлиши ҳамда кредит

ресурслари ва хомашёга имтиёзли ҳуқуқи рақобат муҳитини ёмонлаштираётганлиги, хусусий секторнинг кредит олиш имкониятини сусайтираётганлиги ҳамда унинг ривожланишига тўсқинлик қилиб, нархлар ошишига сезиларли туртки бераётганлиги ва бошқалар.

Хулоса

1. Умумий фискал баланси – консолидациялашган бюджет даромадлари ва харажатларини, ва Давлат дастурларини амалга ошириш учун Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан қопланувчи четдан жалб қилинган қарз маблағлари ҳисобидан амалга ошириладиган харажатларни ўз ичига олувчи умумий баланс.

2. 2020 йил учун Давлат бюджети даромадлари 128 460,0 млрд. сўм (ёки ЯИМнинг 20 фоизи) миқдорида режалаштирилган, бу эса 2019 йил якуни бўйича даромадларнинг кутилаётган ижросидан 15 817,1 млрд. сўмга кўпроқдир. 2020 йил учун Давлат бюджетининг кутилаётган тушумларини баҳолашда иқтисодиётнинг реал ўсиши, солиқлар маъмурчилигини такомиллаштириш, алоҳида солиқ ва божхона имтиёзларининг бекор қилиниши, шунингдек нарх ва валюта курсининг кутилаётган ошиши каби омиллар ҳисобга олинган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иқтисодиётни янада ривожлантириш ва иқтисодий сиёсат самарадорлигини оширишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2019 йил 8 январдаги ПФ-5614-сонли фармони, Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси ахборот тизими (www.lex.uz).

2. Kliem, M., Kriwoluzky, A., Sarferaz, S., 2016. Monetary-fiscal policy interaction and fiscal inflation: a tale of three countries. *Eur.Econ.Rev.*88, 158–184.

3. Тешабаева, О., Нишонбоев, Д. (2022). Направления совершенствования бюджетной политики в новом Узбекистане. Таълим ва тадқиқотлар республика илмий-услубий журнали. 4-сон, 4-қисм (pp.56-61)


4. Одина Насридиновна Тешабаева, & Нажибулло Асадулло Ўғли Содиқов (2022). Ўзбекистонда давлат бюджет маблағларидан молиялаштириш жараёнининг истиқболли йўллари. *Scientific progress*, 3 (4), 225-231.

5. Тешабаева, О.Н. (2020). Механизмы организации предпринимательской-инвестиционной деятельности экономики Узбекистана. In минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жихатлари (pp. 537-540).

6. Nasridinova, T. O. (2022). Use of main production facilities and economic activities of foreign textile enterprise. *International journal of research in commerce, it, engineering and social sciences* issn: 2349-7793 IF: 6.876, 16(01), 45-52.

7. Юлчиев, А.О. (2022). Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришда бюджет ташкилотларини молиялаштириш. *Modern scientific research achievements*. Том 1, (pp.6-11).

8. Олимова Нодира Хамракуловна, Суфиев Рустам Абдурахмонович, & Гуломова Имона Расуловна (2022). Управление бюджетными рисками как приоритетное направление ведения фискальной политики. *Ceteris paribus*, (2), 35-38.



КИЧИК БИЗНЕС ВА УНИ ЮКСАЛТИРИШ ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЁТНИНГ ЖАДАЛЛАШТИРИШНИ МУҲИМ ОМИЛИ

Таджибаев Закир Маликович

ФарДУ, Иқтисодиёт ва сервис кафедраси доценти

Собирова Лобархон Абдулхамидовна

ФДУ, Иқтисодиёт йўналиши, 2-босқич магистранти

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6657574>

Аннотация Мақолада кичик бизнес ва тадбиркорликни мазмун-моҳияти, уни иқтисодиётни ривожлантиришдаги роли, иқтисодиёт тармоқларида ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатишда хиссаси ва унга аҳолини жалб қилинганлик даражаси масалалари таҳлил қилинади.

Хозирги замон бозор иқтисодиёти шароитида кичик тадбиркорлик сектори халқ хўжалигини ривожланишига, жамиятни ижтимоий муаммоларини хал қилишга ва мамлакат аҳолиси бандлиги муаммоларини хал қилишга каттагина таъсир ўтказди. Иқтисодий жихатдан ривожланган барча мамлакатларда ишчи жойлари сони, товарлар ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш бўйича иқтисодий потенциали юқорилиги туфайли тараққий топган мамлакатларнинг деярли барчасида кичик бизнес билан бирга ўрта бизнес субъектлари муҳим роль ўйнайди.

Мамлакатнинг иқтисодий ва ижтимоий ривожланишида кичик бизнесга яхшигина эътибор берилиб, ундан жамият муаммоларни хал қилишда яхши натижалар кутилади ва асосийси кўпинча кутилган натижалар олиниб, у билан боғлиқ бўлган бозор тўқислигига эришилади. Чунки кичик тадбиркорлик корхоналари меҳнатни қўллаш доирасини кенгайтиради, аҳолини тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш учун имконият яратади, оилавий бизнесни ривожлантиришни рағбатлантиради, ижтимоий тарангликни барҳам топишига кўмаклашади, ресурсни тежовчи иқтисодий ўсишни таъминлайди. Булардан ташқари мамлакат ЯИМ шакллантиришга салмоқли хисса қўшади.

Муҳими бозор иқтисодиётида жуда зарур бўлган рақобат муҳитини яратишда бош роллардан бирини ўйнайди. Кези келганда айтиш керакки, рақобат хусусий мулк ва тадбиркорлик билан бирга бозор иқтисодиётининг уч устунини ташкил қилади.

Умуман олганда кичик тадбиркорлик қуйидаги хусусиятларга кўра Ўзбекистонда, бошқа бозор мамлакатларида бўлгани каби, рақобат муҳитини яратиш орқали иқтисодиётни ривожлантириш учун афзалликлар туғдиради:

- Кичик бизнес мамлакат минтақалари бозорини барча қисмларини тўлдиради, яъни йирик бизнес етиб бормаган ёки унга жозибадор бўлмаган сегментларни тўлдириб, бозорни тўлақонли амал қилишига кўмаклашади;

- Кичик корхоналарни очишда йирик молиявий капитал талаб қилинмайди ва уни мавжуд бўлишига ҳожат йўқ;

- Кичик бизнес бозор рақобатини кучайтириб, унга (бозорга) кириш тўсиқлари ва монополия тузилмалари қаршилиги кескинлигини маълум даражада юмшатади;

- Кичик тадбиркорлик корхоналари иқтисодий конъюнктурани ташқи ўзгаришларига мосланувчанлиги юқори бўлади, чунки у мижозга яқин туради ва у билан юзма-юз кўришган ҳода уни истак – хохишларини ўз фаолиятида тез орада ҳисобга олиши мумкин;

- Кичик бизнесни юксалиши ўрта синф шаклланишини рағбатлантириб, мамлакатда ижтимоий барқарорлик қарор топишига катта ҳисса қўшиб, мамлакатда иқтисодий ривожланишни жадаллаштириштиради; Юқоридагилардан хулоса қилиш мумкинки, кичик бизнес субъектлари нафақат иқтисодий, балки сиёсий ва ижтимоий функцияларни ҳам бажаради.

АҚШда кичик бизнес домий равишда янги иш жойлари ва инновацияларнинг асосий манбаси сифатида кўрилади. Ушбу мамлакатда кичик бизнес мавжуд фирмалар сонини 99%и, барча иш жойларини ярмидан кўпроғи, Ақшдан экспорт қилинаётган товар ва хизматларни чорагидан ортиғини эгаллайди. Хусусан, ЕИда бизнес муҳитини енгиллаштириш маркази

(БМЕМ) фаолияти кичик корхоналар учун бизнес муҳитини енгиллаштириш ва қулай шарт-шароитлар барпо этишга қаратилган. АҚШда 1953 йилда ташкил этилган кичик тадбиркорлик маъмурияти (КБМ) узоқ йиллардан буён кичик тадбиркорлик сиёсатининг асосий йўналишларини белгилашда муҳим ўрин тутиб келмоқда. Худди шунга ўхшаш тузилма Португалияда ҳам мавжуд. Кичик тадбиркорлик маъмурияти ўз сиёсатини кичик тадбиркорлик институти ва Инвестиция фонди (IARMEI) орқали амалга оширади. Буюк Британияда кичик тадбиркорлик сервиси (КБС) ташкил этилган бўлиб, у кичик фирмаларнинг малакали сервис хизмати олишларида ўзига хос ўринга эга.

Кичик тадбиркорлик корхоналарини қўллаб-қувватлаш фақатгина уларнинг ҳажми кичик бўлганлиги учун эмас, балки юқори рентабеллик асосида фаолият кўрсата олишлари ҳамда новаторлик қобилияти туфайли ички ва ташқи бозорда рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқара олишлари туфайли ҳам зарурдир.

Биз учун дунёнинг етакчи мамлакати бўлган АҚШни кичик бизнес соҳасида тажрибасида ўрнатилган бўладиган жихати бу унда (АҚШда) бугунги кунда ушбу мамлакатда уч оиладан бири кичик бизнесга жалб қилинганлиги, яъни америкада кичик бизнес тадбиркорликни шунчаки бир тури эмас, балки ўз моҳиятига кўра турмуш тарзидир. Америкада кичик бизнес барча соҳаларда: савдода, ишлаб чиқариш соҳасида, консалтинг хизматида, инновация ижтимоий соҳаларда мавжуд¹⁴.

Тажриба кўрсатишича кичик корхоналар истеъмол соҳасида, айрим маҳсулотлар ва ярим тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришда, йирик корхоналар қизиқиш доирасидан ташқарида бўлган маҳсулотлар тайёрлашда, баъзи-бир ҳолларда илмий сифими катта турдаги маҳсулот ишлаб чиқаришда самаралидир. Шунинг учун ҳозирги пайтда Ўзбекистонда кичик бизнесни ривожлантириш давлат даражасида таг-замин ролини ўйновчи омил сифатида кўрилмоқда. Бунинг исботи сифатида айтиш мумкинки кичик бизнес соҳасини

¹⁴<https://malbusiness.com>

хар томонлама кўллаб-қувватлаш мақсадида охириги икки ярим йилда Президентнинг эллиқдан ортиқ фармон ва қарорлари қабул қилинди.

Жумладан, тадбиркорлик фаолиятини давлат рўйхатидан ўтказиш, турли рухсатномалар олиш ва бошқа кўплаб хизматлар тартиб-қоидалари содалаштирилди. Бу борада қулайлик яратиш учун Давлат хизматлари агентлиги ва унинг жойлардаги марказлари ташкил этилди. Тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича вакил (Бизнес-омбудсман) лавозими жорий қилинди.

Мавжуд маълумотларга қараганда Ўзбекистонда 2021 йилда кичик бизнес корхоналари 45,0% улушни эгаллаган. Бу кўрсаткични тармоқ ва соҳалар бўйича таҳлил қиладиган бўлсак, айтиш керакки, энг катта улуш (деярли 80%) қурилишга тааллуқли бўлган.

Маълумки кичик бизнес хизмат соҳаси учун ҳам, уни истеъмолчилари учун ҳам, бошқа хўжалик юритувчи субъектларга нисбатан, қулайликларга эга. Шу сабабдан мамлакатимизда уни кўрсатилаётган хизматларни умумий ҳажмидаги улуши каттагина кўрсаткични, яъни ярмидан ортиғини ташкил қилади. Ушбу кўрсаткични саноат мисолида кўрадиган бўлсак манзара бошқачароқ бўлиб, деярли 29,0% даражасида бўлган ва бу кўрсаткич экспортдан фарқ қилмайди дейиш мумкин. Бу бежиз эмас, албатта. Чунки хорижга экспортни амалга оширишда саноат катта роль ўйнайди ва унда ишлаб чиқарилган маҳсулотларни экспортга таъсири юқори. Бундан хулоса қилиш мумкинки, мамлакатимизда кичик бизнесни саноат соҳасида мавқени ошириш ва мустаҳкамлаш бевосита экспортни ҳам юксалтиради. Бунини иқтисодий жиҳатдан мақсадга мувофиқлиги шундан иборатки, саноат маҳсулотларини экспортида асосан тайёр маҳсулотлар хорижга чиқарилади. Бу дегани қўшилган қиймат юқори бўлади, яъни бизда банд бўлган ишчи ва хизматчилар хорижий мамлакат фуқаролари ва фирмалари учун хизмат кўрсатиб, улар истеъмол қилган маҳсулот эвазига, демак улар хисобидан даромад (маош) олади. Бундан ташқари, экспорт иштирокчиси бўлган кичик бизнес субъекти эса фойда олади. Давлат учун эса нафлилиги, унга валюта

тушумидир. Шунинг учун ҳам саноат соҳасидаги кичик корхоналар фаолиятини экспорт томонга йўналтириш мамлакат экспортини ошириш ва зарур бўлган валюта тушимини кўпайтиришнинг муҳим омилidir.

Иқтисодий фаолият турлари бўйича 2021 йилнинг биринчи чорагида энг кўп кичик корхоналар ва микрофирмалар савдода – 9093та, саноатда - 5602та, кишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалигида – 4540та, қурилишда – 1847та, яшаш ва овқатланишда – 1522та, ахборот ва алоқада 700 та ташкил қилинган. Янгитдан ташкил топган кичик бизнес субъектларининг энг кўпи, Тошкент шаҳрида бўлган – 4502 та (16,85%). Бундай корхоналар Қашқадарёда – 3050 та (11,4%), Самарқандда – 2412 та (9,0%), Тошкент вилоятида – 2350та (8,8%) даражасида бўлган. Келтирилган маълумотлар қай даражада эканлигини англаш ва қайси бир ҳудуд аҳолиси тадбиркорликка кўпроқ мойиллигини билиш муҳим аҳамият касб этади. Шунинг учун янгитдан ташкил қилинган кичик корхона ва микрофирмалар сонини вилоятлар ва Тошкент шаҳри аҳолиси сони билан таққослаймиз. Тошкент шаҳрининг 10000 аҳолисига янгитдан ташкил қилинган кичик корхоналар сони 10 тадан ортиқроқ бўлган. Бу кўрсаткич Қашқадарёда – 8та, Самарқандда – 6та, Тошкент вилоятида – 8та ни ташкил қилинган. Таҳлиллар кўрсатишича, мамлакатимиз пойтахти Тошкент шаҳри янгитдан яратилган кичик бизнес субъектлари бўйича республикамизда биринчи. Бу нарса табиий хол бўлиб, пойтахтимиз мамлакатимизнинг ишлаб чиқариш, илмий – фан, савдо, тадбиркорлик, маданий маркази бўлиб, унинг аҳолиси учун тадбиркорлик субъектлари яратиш ва тадбиркорлик билан шуғулланиш ҳам фарз, ҳам қарз. Бу соҳада Самарқандни ҳисобга олмаганда (6та) тарифланаётган вилоятлар кўрсаткичи бир даражада эканлигига гувоҳ бўлишимиз мумкин. Демак, вилоятлар аҳолисини тадбиркорликка мойиллик даражаси ўртасида фарқ унча катта бўлмасдан нисбатан бир хилдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони, №ПФ-60, 28.01.2022 йил.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “«Тараққиёт стратегияси» марказининг моддий-техник базасини янада мустаҳкамлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори, №205, 13.04.2017 йил.

3. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини «Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили»да амалга оширишга оид давлат дастурининг 2022 йил I чорагидаги ижроси яқунлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ҳисоботи тўғрисида”ги қарори, №СҚ-522-IV, 28.04.2022 йил.

4. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини «Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили»да амалга оширишга оид давлат дастурининг 2022 йил биринчи чорагида бажарилиши юзасидан Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ҳисоботи тўғрисида”ги қарори, №2067-IV, 26.04.2022 йил

5. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини «Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили»да амалга оширишга оид давлат дастури ижросини таъминлаш бўйича чора-тадбирлари ҳақида”ги қарори, №СҚ-464-IV, 03.02.2022 йил


6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган миллатлар ташкилоти бош ассемблеяси 75-сессиясида сўзлаган нутқини ўрганиш ва кенг жамоатчилик ўртасида тарғиб қилиш. Ўқув қўлланма. Тошкент 2021 - 280 б

7. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: , O'zbekiston 2016. 59 bet.

8. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil qatiy tartib-intizom va shaxsiy vobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bolishi kerak. T.: , O‘zbekiston 2017. 107 bet.

9. Эшов М. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ривожланиши: омиллар, натижалар ва истиқболлар. Т.: Маънавият, 2017

10. Shodibekova D.A., Shodibekov D.I. “Tadbirkorlik va kichik biznes asoslari” (o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlari uchun o‘quv qo‘llanma). – T.: , Iqtisodiyot 2013. 223 bet.



СУВ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖОЙ НОМЛАРИНИНГ ЛИСОНИЙ ҚАТЛАМЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Бозорова Руфина Шароповна

Бухоро давлат университети, ўқитувчи

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6657587>

Аннотация: Мақолада Ўзбекистон ва Германия ҳудудидаги сув билан боғлиқ жой номларининг келиб чиқиш тарихи, жой номларининг маъноси мазмун ва моҳияти асослаб берилган. Азалдан сувнинг ҳар бир халқ учун муқаддас эканлиги, сув билан боғлиқ жой номларининг келиб чиқиш тарихи билан боғлиқ кўплаб афсона ва ривоятлар таҳлил этилган.

Калит сўзлар: Мариенборн, Бранденбург, Мордтал, зиёратгоҳ, ибодатхона, ҳужра, қудуқ, топоним, гидроним, транзит, булоқ.

Аннотация: В статье изложена история происхождения географических названий, связанных с водой на территории Узбекистана и Германии, обоснованы значение и сущность географических названий. С незапамятных времен было проанализировано множество мифов и легенд, связанных с тем, что вода является священной для каждого народа, с историей происхождения географических названий, связанных с водой.

Ключевые слова: Мариенборн, Бранденбург, Мордталь, святилище, часовня, дом, колодец, топоним, гидроним, транзит, родник.

Annotation: In the article, the history of the origin of water-related place names in the territory of Uzbekistan and Germany, the meaning and essence of the place names are given as the basis. From time immemorial, many epistles and legends related to the history of the origin of water-related place names have been analyzed, since water is sacred to each people.

Keywords: Marienborn, Brandenburg, Mordtal, pilgrimage, synagogue, kennel, well, toponim, gidronim, transit, fountain.

Дастлабки цивилизациялар сув билан боғлиқ бўлган дарё, денгиз, кўл бўйларида шаклланган. Инсоният тамаддунининг барча босқичларида сув инсон ҳаётининг фаолияти учун зарур эҳтиёж манбаи бўлиб келган. Ана шу эҳтиёж географик номларнинг пайдо бўлишини келтириб чиқарган. Географик жой номлари жуда оддий бўлиб, дастлаб улар тоғ, дарё, кўл билан боғлиқ номлар билан аталган.

Немис ва ўзбек тилларида мавжуд бўлган топонимларнинг лисоний қатламлари таҳлили, уларнинг Ўзбекистон ва Германиянинг турли тарихий даврларини акс эттирувчи бир неча маданий қатламлари асосида шаклланганлигини кўрсатди. Аксарият олимлар немис топонимлари кельт (франклар, иллирияликлар, аллеманлар), латин, славян ва албатта немис тилларига бориб тақалади деб таъкидлайди. Кўплаб ҳозирги кунда сақланиб қолган ва қўлланилаётган кельт топонимлари товуш шаклини ўзгартирган, масалан, Rhein, Regensburg. Кельтча муайян ҳудуднинг ўз соҳибига тегишлилигини англатувчи -acum, -iacum ибтидосига эга топонимлар, замонавий немис тилида -ach (-ich) ибтидоларига ўзгарган: Andernach (Antunnacum), Jülich (Juliacum) [1].

Дарё, кўл ва кудуқлар катта-кичиклигига, сувнинг ранги, шўрлиги, тозаллиги, чуқурлигига қараб турлича номланган. Сув тиниқ ва тоза бўлса *Ойнакўл*, *Ойнабулоқ*, чуқур, тиниқ бўлса-*Кўксув*, қордан бошланган сувлар - *Оқсув*, лойқароғи-*Айронкўл*, *Сарисув* деб аталган. Дайди сув Фарғонада *Тентаксой* деб аталган бўлиб, Сурхондарёда ҳам шу ном билан боғлиқ Тентаксой баҳорда тошиб, қирғоқлари ўпирилади, емирилади, ёзда суви қуриб қолади.

Сув объектларининг суви шўр ёки нордон бўлса, “*Шўрқудуқ*”, “*Аччиқкўл*”, “*Шўрбулоқ*”, “*Шўрсув*”, “*Шўроб*” деб аталган. Ер остидан сувлар фонтансимон отилиб чиқса – “*Қайнарбулоқ*”, агар булоқлар суви иссиқ ва минералли бўлса “*Иссиқсув*”, “*Обигарм*”, “*Обираҳмат*”, “*Қўтирбулоқ*”, “*Арашон*” деб номланган.

Ҳар бир лексик-семантик гуруҳ у ёки бу компонентни фаоллаштирадиган тил бирликлари билан ифодаланади. Масалан, гидротопонимлар семантикасида сув тушунчаси билан боғлиқ бўлган тил бирликлари қўлланади: нем.: -bach, -bek(en), beck, beke (булоқ): Erbach, Eisbach; -ar, -ach, -a, -aa, -ah (сув омбори): Sachsa; Elma; -bruck (кўприк): Zweibrücken, Delbrücke; -born, -bronn (сой) Herborn, Königsbrunn; -furt, -furth, -ford (порт): Frankfurt, Ouerfurt; -mar, -mari, -mare, -mere (денгиз): Weimar; -mund, -münde, -müde(n), -muid(e) (дарё ўзани): Warnemunde, Dortmund; ўзб.: булоқ – Мингбулоқ, Ойбулоқ; кўл – Тўрткўл, Бозоркўл; сув – Оқсув, Шўрсув; дарё – Қашқадарё, Оқдарё; сой – Чуқурсой, Қипчоқсой; ариқ – Қизилариқ, Бешариқ; канал- Каналбўйи; кудуқ–Туякудуқ, Етимкудуқ; чашма – Сарчашма, Обичашма; об – Лабиоб; ҳовуз – Ҳовузбўйи, Ҳовузбоғ [2].

Сув нафақат глобал, балки, бугунги куннинг долзарб аҳамиятга эга мавзуларидан бири бўлиб ҳисобланади. Айрим мамлакатларда топиниш объекти сифатида кўллар ёки булоқларга сифинишади, уларни муқаддас жой деб билишади. Масалан, Элбадаги Геестхахт, Бранденбург шаҳридаги Лангевалда Пасха булоғи бўлиб, бу ном нафақат ушбу булоқларда сақланиб келинган қадимги урф-одатларни эслатади, балки Ўрта асрларда ва ундан кейин ҳам ёш аёллар Пасха якшанбасида қуёш чиқмасдан туриб, яқин атрофдаги булоқдан сув олиб келишларини одатга айлантирганлар. Булоққа бориб келгунга қадар аёллар ўзаро суҳбат қурмаслиги лозим бўлиб, сув қуёш чиққунга қадар олиб келиниши шарт бўлган. Булоқда аёллар юзларини ювишган, сувдан идишга солиб, уйга доривор ичимлик сифатида олиб келинган. Сув билан боғлиқ бўлган бундай иримларга амал қилганларга гўзаллик, ёшлик, соғлиқ ва бахтли келажак ваъда қилинганлиги ривоятларда келтирилган.

Мариенборн бир вақтлар ГДР транзит йўлидан ГФРга энг катта чегара ўтиш жойи бўлган қишлоқ бўлиб, 500 га яқин аҳолиси мавжуд. Мариенборн нафақат совуқ урушдан бери тарихга сингиб кетган, балки эски монастыр ҳудудида жойлашган бўлиб, бу ерда 1224 йилдан 1810 йилга қадар 70 дан

ортиқ августиналик аёллар истиқомат қилишган. Рассом Тилман Рименшнайдерга тегишли бўлган монастыр хужралари ва саждагоҳи бўлган буюк Романеск черкови бугунги кунда ҳам буни тасдиқлайди. Аммо кичкина қишлоқ Мариенборнда узоқ ўтмишдан дарак берувчи янада кўплаб иморатларни учратиш мумкин.

Бугунги кунда Германия иккига бўлинган кундан буён Мариенборн - Германия Федератив Республикаси ва Германия Демократик Республикаси ўртасидаги чегара ўтиш пункти ёдгорлик сифатида сақланган. Мариенборн, шунингдек, Германиядаги энг қадимий зиёратгоҳдир. Кичик шаҳарчада XII асрдан бошлаб доривор хусусиятларга эга булоқ бор деб ишониш мумкин. Ҳанузгача касаллар, диндорлар ва тасалли излаётганлар машҳур сувни ичиш мақсадида ушбу жойни зиёрат қилишади.

Мариенборн – Германиядаги энг қадимий зиёратгоҳдир. У дастлаб Мордтал деб аталган, сабаби шундаки, Лапвалдернинг бу қоронғу қисмида жуда кўп ёмон ҳодисалар содир бўлган. Буни жой номининг ўзбек тилидаги таржимасидан ҳам идрок этиш мумкин, яъни немис тилида *der Mord*-“qotillik”, *das Tal*-“vodi”, яъни Мордтал - “Қотиллик водийси”. Конрад исмли чўпон 1106 йилда шу жойда ўз бошидан ўтказган ҳодисани эслайди. У бу ерда кўйларини боқиб юрган кунларининг бирида у ёниб турган машғалали аёлларни қудуқ ёнидаги эски эман олдиға бориб, эгилиб ибодат қилаётганларини кўрган. Ибодатхона орқасида 1956 йилгача турган бу эски эман занжирлар билан боғланган, сўнгра момақалди роқ қурбонига айланган. Чўпон кўйларини суғориш учун шу қудуққа ҳайдаб келган. Бироқ ҳайвонлар сувдан кўрқиб, уни ичишмаган. Шунда чўпон Конрад ушбу сувдан фақат одамлар ичиши керак деган хулосаға келган ва кўйларини у ердан ҳайдаб кетади. Кейин у тушида Мария ўғлиға ўз ташвишлари ва изтиробларини изҳор этиши мумкин бўлган ушбу жойни унга совға қилишини сўраётганини кўради. Шундай деб Мария қудуққа тушиб кетади ва унинг ортидан ўғли ҳам ўзини қудуққа ташлайди. Бир неча кун ўтиб у яна туш кўради. Бу гал унинг тушида Борнемадаги Марямнинг ҳайкалини Борнда, яъни қудуққа

чўктираётганларини ҳамда қудуқ устида хоч турганини кўради, шундан кейин у бу қудуқдаги сувнинг муқаддас эканлигини англайди [3].

1190 йилнинг баҳорида бу ерда кичик черков қурилган. Бугунги кунда черковда Марямнинг оқ алебастрдан ясалган ҳайкали бор. Катта ҳайкалнинг ўнг ва чап томонида сокин мулоҳазалар юритиш учун ўриндиқлар мавжуд. Ташқарида қувурдан муқаддас сув отилиб чиқадиган жой бор, булоқнинг ўзи эса шиша пластинка билан қопланган. Бу жойнинг сирли сукунати ва албатта сув кишига ҳар доим тасалли ҳамда умид бахш этган. Саратон касаллигига чалинган болалар бу ерга келиб тиз чўкиб, ибодат қилишади, ўзларини енгил хис қилганларидан сўнг миннатдорчилик изҳор этиб қайтишади.

Тахминан 15 сантиметр баландликдаги қўнғироқ идиши остида Конраднинг тушида фаввора ичига ботган Марям ҳайкали бугунги кунгача сақланган. Ҳайкал 19 асрда қудуқдан топилган бўлиб, Мариенборнни зиёрат қилиш билан бирга ҳайкални ҳам зиёрат қилиш муҳим аҳамият касб этади. У ёғочдан ясалган, жигарранг, қизил, ёрилган ва эски бўлиб, ҳамма ёғи буришган, шунингдек, тирналган – гўёки, Мариенборнда 800 йилдан ортиқ ташриф буюрувчилар эҳтиёжлари, ташвишлари ва илтижолари ўз изини қолдиргандек [4].

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, ҳар бир халқнинг тарихи мавжуд бўлиб, сув билан боғлиқ қадрият ва маданиятларнинг алоҳида ўзига хос хусусиятлари мавжуд. Сув билан боғлиқ жой номларининг келиб чиқиши тарихини ўрганиш, лингвистик таҳлил қилиш долзарб мавзулардан бири бўлиб, умуминсоний қадриятларнинг шаклланишига ҳам олиб келади. Дунёнинг қайси томонида бўлмайдик сув муқаддас манба сифатида улуғланади, қадрланади, оби ҳаёт эканлиги тан олинади. Ўзбекистон ва Германиядаги сув билан боғлиқ жой номларининг шаклланиши ўхшаш бўлиб, шу билан бирга иккала халқнинг сув билан боғлиқ гидропоэтонимларни ўрганишга бўлган эҳтиёж ва қизиқишни келтириб чиқаради.

Юқорида келтирилган мулоҳазаларимиз айнан шу ҳақида бўлиб, сув билан боғлиқ объектлар инсонларнинг ҳожатини чиқаради, дардига дармон,

овутувчи, юпатувчилик вазифасини бажариб, том маънода бутун инсониятни бирлаштиради. Сув билан боғлиқ жой номлари, улар билан боғлиқ иримлар биз яшаб турган ҳудудларда ҳам учрайди. Ўтмишга назар солсак, аجدодларимиз номлаган ҳар бир жой номи узоқ тарихга эгаллиги билан аҳамиятли.

Германиядаги Мариенборн ҳам ҳаётнинг мавжудлигини таъминловчи муқаддас зиёратгоҳлардан бири сифатида тадқиқ этилди. Бу борадаги мулоҳазаларимизни кейинги мақолаларимизда янада кенгроқ таҳлил қилишни мақсад қилиб қўямиз. Зеро, сув билан боғлиқ объектларнинг тадқиқ этилиши ва таҳлили давлатлар ўртасидаги маданиятларнинг янада муштараклашувига ва илмий изланишларнинг ривожланишига олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Аноркулов С.И. “Немис ва ўзбек тилларида топонимларнинг лингвокогнитив аспекти” Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд 2021. -16 б.

2. Аноркулов С.И. “Немис ва ўзбек тилларида топонимларнинг лингвокогнитив аспекти” Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд 2021. -18 б.

3. Бозорова Р.Ш. (2022). “Сув” сўзи билан боғлиқ фразеологик birlikларнинг немис, ўзбек ва рус тилларидаги таҳлили. *Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(1), -278 б. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-277-282>.

4. Schwarz E. Die Ortsnamen der Sudetenländer als Geschichtsquelle. 1978. - 218 S.

5. Бозорова Р.Ш. “О немецкой обиходной речи” НамДУ илмий ахборотномаси 2019 йил 3-сон. -209 б.

6. Бозорова Р.Ш. “Таржима қилишда баъзи ёндашувлар” Тил, адабиёт, таржима, адабий танқидчилик: замонавий ёндашувлар ва истиқболлар

мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. Бухоро-2022 йил.-318 б.

7. Ramazonov, J. (2021). Reflexive Mechanism-As The Main Form Of Controlling Students' Psychological Conditions. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).

8. Ramazonov, J. (2022). Моделирование механизмов самоуправления студентов. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 10(10).

9. Ramazonov, J. J. (2021). THE ROLE OF SELF-GOVERNANCE IN PROVIDING PERSONAL PERFECTION. Scientific progress, 2(2), 1075-1078.


10. Рамазонов, Ж. Д. (2021). ЎЗИНИ ЎЗИ ИДОРА ҚИЛИШ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК МУАММО СИФАТИДА. Ижтимоий Фанларда Инновация онлайн илмий журнали, 1(4), 51-57.

11. Рамазонов, Ж. Д. Талабалар таълим жараёнида ўзини ўзи идора қилишининг ижтимоий-психологик механизмлари. Образование и наука в XXI веке. Международный научно-образовательный электронный журнал, (14), 794-800.

12. Рамазонов, Ж. Д. Талабалар таълим жараёнида ўзини ўзи идора қилишининг ижтимоий-психологик механизмлари. Образование и наука в XXI веке. Международный научно-образовательный электронный журнал, (14), 794-800.

13. Рамазонов, Ж. Д. Талабалик даврида ўзини ўзи идора қилиш механизмлари. Ijodkor o'qituvchi. Ilmiy-uslubiy jurnal materiallari to'plami.

14. Ramazonov, J. (2022). ЎЗИНИ ЎЗИ ИДОРА ҚИЛИШНИНГ ШАХС ШАКЛЛАНИШИДАГИ ЎРНИ ВА РОЛИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 9(9).



MUQOBIL ENERGIYA MANBALARINI ENERGIYA ZAHIRALARIDAGI O'RNII.

Mirzoyev Dilshod Po'lotovich

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti kafedrasida asisstanti.

Amrullayev Behzod Bobur o'g'li

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti ta'lim yo'nalishi talabasi.

Xolbo'tayev Axror Valijon o'g'li

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti ta'lim yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6657637>

***Annotatsiya:** Maqolada qishloq xo'jaligi chiqindilaridan olinayotgan bioyonilg'i muammolari haqida va ularni qishloq xo'jaligida qo'llash natijasida shu sohaga chetdan olib kirilayotgan yonilg'ining miqdorini kamaytirish masalalari yoritilgan.*

***Аннотация:** В статье приводятся проблемы получения и применения биотопливо из сельскохозяйственных отходов в сельском хозяйстве, компенсирующих органических жидких топлив и связанными с ним вопросами.*

***Annotation:** The article presents the problems of obtaining and using biofuels from agricultural waste in agriculture, compensating for organic liquid fuels and related issues.*

Respublikamizda markazlashgan elektr tarmog'i mavjud bo'lishiga qaramasdan, qish faslida ayrim nosozliklarni vujudga kelishi tufayli qishloq hududlarigacha elektr energiya va tabiiy gaz etmaydigan holatlar kuzatilishi mumkin. O'zbekistonning 60%dan ko'proq aholisi qishloq hududida istiqomat qiladi, ulardan deyarli 30,5% qismi kam ta'minlangan. Energiyaning noto'g'ri ta'minlanishi mahalliy aholining daromad topish imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Respublikamizda tabiiy gaz, neft va ko'mir kabi qazilma manbalari mavjud. Biroq mamlakatning gaz manbalari kamayayotganligi uchun muqobil energiya manbalariga talab mavjud. YUrtimizda biogaz texnologiyalarini rivojlanishiga yordam berish loyihasining asosiy maqsadi mahalliy fermalarda

dastlabki biogaz zavodlarini yaratish va ularni amalda sinab ko'rish. Bu amaliy foydani va biomassa energiyasini kichik va o'rta chorva fermalarda ishlatish foydasini namoyon qiladi.

O'zbekiston organik chiqindilardan olinadigan yonilg'i miqdori zaxirasi yiliga yig'iladigan organik chiqindisi eng ko'p mamlakatlar safiga kiradi. Bu organik chiqindilarni qayta ishlash, ya'ni biologik konversiya yo'li bilan fotosintez natijasida gaz shaklidagi yonilg'i (biogaz) olish mumkin. Biogaz tarkibi 50-80% metan gazi hamda 50-20% uglerodli va boshqa turdagi kam miqdordagi gazlardan iborat. Hozirgi kunda dunyo energetik balansida biologik massalardan olinadigan energiyaning umumiy miqdori 12% ni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida esa ishlab chiqarilayotgan umumiy energiyaning 9% ni tashkil etadi. Bu energiya miqdorini oshirishda chiqindilarga ishlov berish, chetdan ishlatilayotgan energiya miqdorini kamaytirishning yagona, arzon usul va texnologiyalarini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida har yili juda katta miqdorda organik chiqindilar hosil bo'ladi. Bu organik moddalarga zamonaviy ishlov berishning bir necha usullari mavjud. Ulardan qulay va arzon, bir marotaba kapital ajratmalar talab etiladigan usullardan biri bu - biologik usuldir. Bu usul o'z navbatida ikkiga bo'linadi:

- Kislородli - aerob
- Kislорodsiz - anaerob ishlov berish.

Ma'lumki, kundalik talab aerob (arzon) usulda biochiqindilarga ishlov berishning ekologik jihatdan mumkin emasligini ko'rsatadi .

Anaerob usulda ishlov berish ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1. Qisqa vaqtda (uch-to'rt kunda) ishlov berilgan yuqori sifatli organik o'g'it olish (bioreaktorda ishlov berilgan shlamning bir kilogrami yer unumdorligini oshirish bo'yicha ishlovsiz dalaga olib chiqilgan organik moddaning sakkiz-o'n kilogramiga teng).
2. YOnilg'i (metan-SN₄) gazini olish.

Shuning bilan birgalikda chiqindilar yig'ilib qolayotgan joylardan atrof muhitga tarqalayotgan zararkunanda hasharotlar va yoqimsiz hid bartaraf etilib, ekologik muhit yaxshilanadi.

Ishlov berish uchun biorektorga solinadigan biomassaning tarkibidagi quruq organik modda miqdoriga, ajralib chiqayotgan gazning salmog'i to'g'ri proporsionalligini ko'ramiz, ammo tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, biomassaning organik tarkibi uning yer yuzasining qaerida etishtirilishi bilan bog'liq ekan. Quyosh energiyasining yillik yerga tushish miqdori qaysi joyda ko'p bo'lsa, o'sha erning biochiqindisida organik modda miqdori yuqoriligini ko'ramiz. Demak, O'rta Osiyo sharoitida ishlatilayotgan bioreaktorlardan olinayotgan yonilg'i gaz miqdori, iqlim sharoiti mo'tadil bo'lmagan joylarga nisbatan yuqori bo'ladi.

Respublikamizda ishlatilayotgan pilot qurilmalarining O'rta Osiyo sharoitiga moslashtirmasdan ishlatish, kutilgan natijalarni bermay, ko'pchilik xollarda bioreaktorlarni qo'llanilishini chegaralash xulosasini keltirib chiqarmoqda. Tajriba va amaliy ishlar shuni ko'rsatadiki, ishlatilayotgan hamda taklif etilayotgan qurilmalar joyning iqlimi va biosferik sharoitidan kelib chiqib yaratilishi maqsadga muvofik.

Toshkent shahrida 2011 yil 700 ming tonnadan ortiq maishiy va 20 ming tonnadan ziyodroq sanoat chiqindilari hosil bo'lgan. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, agar Toshkent shahridan bir yilda chiqarilayotgan chiqindilarga anaerob usulda ishlov berib, undan olingan gazni yonilg'i sifatida foydalanilsa, shaharni issiq suv bilan uch yilgacha ta'minlashga etar ekan. Hosil bo'ladigan organik chiqindilarni esa, tayyor organik o'g'it sifatida foydalanilsa bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yillik biochiqindilarni (qoramol, parranda chiqindilari, o'simlik qoldiqlari va boshqalar) biogaz ishlab chiqarish qurilmalarida qayta ishlansa, nafaqat shu sohani energiya bilan ta'minlash, balki boshqa sohalarda ham foydalanish imkonini yaratadi.

Tajribalarimizda uchun yirik shoxli qoramollar fermasidan (namligi $w=88...96\%$; $rN=6,8 \dots 8,2$ oralig'ida bo'lgan go'ng) olib kelindi. Go'ngni tajriba

qurilmasiga kuniga (kundalik yuklash dozasini 5 ... 30% gacha o'zgartirib) 6 marotaba solib tajribalarda sinab ko'rilganida go'ng tarkibidagi uchuvchi yog'li kislotalarning miqdori 824 ... 1250 mg/l oralig'ida biorektordan chiqayotgan biologik gazning miqdori eng yuqori bo'lganligini ko'rsatdi.

Tajribalar davomida muzlatgichda (4...6 °S haroratda) saqlanayotgan go'ngning tarkibidagi uchuvchi yog'li kislotalar sekin asta ortishi (2000 ... 2700 ml/l) kuzatildi va tajriba davomida shu miqdordagi go'ng qurilmaga solinganda biologik gaz chiqishiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Tajribalar o'tkazishdan oldin organik chiqindilarning tarkibi antibiotik tekshiruvdan o'tkazildi .

Qoramol go'ngining anaerob bijg'ish 45 kun ichida uchuvchi yog'li kislotalarining o'zgarishini biologik gaz chiqishiga ta'siri: 1- uchuvchi yog'li kislotalarning miqdori 824...1250 mg/l bo'lganda; 2-uchuvchi yog'li kislotalarning miqdori 2000 ... 2700 ml/l bo'lganda.

Bundan tashqari laboratoriyamizda o'tkazilayotgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, biogaz olish qurilmalari quyosh kollektori bilan ta'minlansa qo'shimcha olinayotgan energiya miqdorini 1,5...2 marta oshirish imkoni yaratiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Dubrovskiy V.S., Viestur U.E. Metanovoe sbrajivanie selskoxozyaystvennyx otxodov. - Riga: Zinatie, 1988. 204 s.
2. Imomov SH.J., Xvang Sang Gu., Usmonov K.E., SHodiev E.B., Kayumov T.X., «Alternativnoe toplivo na osnove organiki» T., 2013 gg. 160 str.
3. Bekker M. E. Vvedenie v biotexnologiyu. – M., 1978.



QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGIDA ELEKTRLASHTIRISH VA AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARINI O‘RNI.

Mirzoyev Dilshod Po‘lotovich

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti Qishloq va suv xo‘jaligida energiya ta‘minoti kafedrasasi asisssenti.

Amrullayev Behzod Bobur o‘g‘li

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti Qishloq va suv xo‘jaligida energiya ta‘minoti ta‘lim yo‘nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6657676>

Mustaqil Respublikamiz yanada rivojlanishi uchun ma‘naviy etuk, chuqur bilimli yosh avlodni tarbiyalashda Oliy ta‘lim muassasalarining (OTM) salmoqli o‘rni bor. (OTM) ning bitiruvchilari hozirgi kunda vatanimizning barcha tarmoqlarida, jumladan qishloq va suv xo‘jaligida elektr energiya ta‘minotida faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini rivojlantirish, texnologik jarayonlarni takomillashtirish va intensivlash yo‘nalishlaridan biri texnologik qurilmalarni xavfsiz, ishonchli o‘rnatish, samarali foydalanish, eksplutatsiya jarayonlarini to‘la nazorat qilishni ta‘minlashdir. Istiqolol sharofati bilan ma‘naviyat buloqlarining ko‘zi ochilib, biz bu buloqlarning zilol suvlaridan bahramand bo‘la boshladik. Respublikamiz istiqololga erishganidan keyin barcha sohalardagi kabi, ta‘lim tizimida xam jiddiy isloxotlar olib borildi. Ayniqsa, 1997- yil 29- avgustda Respublikamiz Oliy Majlisining IX sessiyasida “Ta‘lim to‘g‘risida” gi qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” ning qabul qilinishi bilan vatanimizning ijtimoiy taraqqiyotida ta‘lim ustivor deb belgilandi va ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim o‘quv muassasalarining fan dasturlarida, o‘quv laboratoriya bazalarini zamonaviy o‘quv texnik jixozlar bilan jixozlashda, hozirgi zamon fan yutuqlari va zamonaviy texnik taraqqiyotning so‘ngi yutuqlari asosida yaratilgan o‘quv adabiyotlar yaratish ustida katta ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘tgan mustaqillik yillari O‘zbekistonimiz uchun samarali bo‘ldi. Yirik o‘zgarishlar, yutuqlar qo‘lga kiritildi. Agrar tarmoqda, jumladan, suv xo‘jaligi

tizimida yangi iqtisodiy munosabatlar shakillandi. Yangi zamonaviy gidromeliorativ tizimlari o'rnatilib, ishga tushirildi. Qishloq va suv xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish tizimlarida mustaqil faoliyat ko'rsatadigan bilimli mutaxassis kadrlarga talab ortib bormoqda. Toshkent Irrigatsiya va melioratsiya instituti Buxoro filialida "Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti" kafedrası tashkil etilib, qator mutaxassislar tayyorlanib kelinmoqda. Respublikamizda suv xo'jaligini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Qishloq xo'jaligi maxsulotlarini etishtirish asosan sug'oriladigan yer dexqonchiligini yo'lga qo'yish orqali tashkil qilinadi. Bundan tashqari, respublikamiz yerlarida yuqori hosil olish uchun katta hajmda meliorativ ishlarni amalga oshirish zarur. Hozirgi kunda respublikamiz suv xo'jaligi tizimida 1600 dan ortiq nasos stansiyalari va 11 mingdan ziyod vertikal quduqlardagi nasos agregatlari ishlab turibdi. Ular yordamida 2 mln gektardan ziyod yerlar, jami sug'oriladigan yerlarni 53% sug'oriladi. 27700 km dan ziyod kanallar sug'oriladigan yerlarni suv bilan ta'minlab turibdi. Hozirda respublikamizda barcha magistral va xo'jaliklararo suv tarqatish tarmoqlari elektrlashtirilgan va avtomat boshqarish tizimlari yo'lga quyilgan.

Amalda barcha qurilayotgan yoki rekonstruksiya qilinayotgan korxonalar elektirlashtirilgan va avtomatlashtirish vositalari bilan jihozlangan. Hozirgi yangi zamonaviy rekonstruksiya va yangi qurilish ishlari hajmining montaj ishlari yuqori unumdorli ishlab chiqarish va vositalarini qo'llashni talab qiladi. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va uning asosiy ko'rsatgichlarini nazorat qilish vositalari, asboblari va qurilmalarining to'xtovsiz (ishonchli) ishlab turishiga yuqori talablar qo'yadi, bunda kamutatsion apparatlarni o'rni katta hisoblanadi. Bajarilayotgan ishlarning ko'lami, o'lchamlari va rostlovchi ta'sirlarning aniqligi ko'proq qurilmalarning montaji (o'rnatish) sifatiga bog'liq bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarida maxsus fanlarning o'qitilishida kamutatsion apparatlarni yangi montaj texnologiyalari sohadagi progressiv echimlar ko'rib

chiqilishi bo'lg'usi kadrlarning sifatini oshiradi. Talabalarning o'rganishi kerak bo'lgan energiya ta'minotining eng muhimlaridan: yangi mikroprocessor texnikasiga asoslangan avtomatlashtirish sistemalari tuzish, energetik vositalari va asboblari bo'lgan blok agregatli montaj uslubini yo'lga quyish, yangi takomillashtirilgan asboblari, energetik va texnologik vositalarni hamda optik tolali kabellar, fotosezgir qabul qilish vositalari bo'lgan sistemalarni qo'llash, plastmassali quvrlardan keng foydalanish, elektr tarmoqlarni to'la ximoya qilish, ishonchli va sifatli elektr energiya bilan ta'minlanish garovidir.

Suv xo'jaligi tizimlarida elektirlashtirish va avtomatlashtirish tizimlarini o'rnatish, sozlash, ta'mirlash va ishlatishda ularning o'ziga xos tomonlarini hisobga olish zarur. Elektrlashtirish sistemalarining elementlari doimo boshqarish obekti bilan bog'liqlikda bo'ladi. Texnologik jarayonlarni elektrlashtirish va avtomatlashtirish masalalarini to'laligicha ochish uchun obekt xususiyatlarini, texnologik talablarni yaxshi o'rganishimiz zarur.

Adabiyotlar

1. "Elektrotexnik materiallar va elektr uskunalari montaji". A.D.Raxmatov, N.T.Toshpo'latov.
 2. "Elektrotexnika va elektronika asoslari". M.T.Turdiyev
- "Transformator va elektr mashinalarni loyihalash". N.N.Sadullaev



RESULTS OF NATIONAL
SCIENTIFIC RESEARCH



OpenAIRE zenodo
1
2022

USING SWOT ANALYSIS IN EDUCATION

Idiyeva Lola

Teacher of the department "Uzbek language and literature" of Bukhara Institute of Natural Resources Management

Narziyeva Madinabonu

Student of the Department of Foreign Languages of the Pedagogical Institute of Bukhara State University

Kerimov Ruslan

Bukhara Institute of Natural "Mechanization of water management and reclamation works 4/2"

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6657706>

Аннотация В этой статье обсуждаются современные инновационные методы развития языковых навыков обучения молодого поколения иностранным языкам а также применение и важность концептуального анализа SWOT в учебном процессе.

Annotation This article discusses modern innovative methods of developing language skills in teaching foreign languages to the younger generation, as well as the application and importance of the SWOT conceptual analysis in the educational process.

The communicative approach is becoming popular, and many of teachers are experimenting with new methods and activities. Different activities, graphic organizers and innovative methods of teaching such as «Warm up», «Brainstorming», «Vienna diagram», «Jig saw», «SWOT analysis», «Case study», «Plus, minus, interesting», «Fishbone» and etc. have been widely using in the lessons. Apart from being an excellent tool to improve the language acquisition, the use of modern methods of teaching foreign languages in the classroom provides a more meaningful context for the students. All these factors lead students to become more participative and communicative members of the class group.

One of the most well known, though still receiving little use is the SWOT analysis method (Benoit, 2009), which appeared as a distinctive approach as far as in the beginning of the 20th century. SWOT analysis is a tool used for strategic planning and strategic management in organizations. It can be used effectively to build

organizational strategy and competitive strategy. In accordance with the System Approach, organizations are wholes that are in interaction with their environments and consist of various sub – systems. In this sense, an organization exists in two environments, one being in itself and the other being outside. It is a necessity to analyze these environments for strategic management practices. This process of examining the organization and its environment is termed SWOT analysis.

Basic Elements of The SWOT Analysis

- S – Strengths
 - W – Weaknesses
 - O – Opportunities
 - T – Threats
- } Internal Environment
- } External Environment

Strengths (internal, positive factors)

- Characteristics of the business or individual that give it an advantage over others in the industry
- Positive tangible and intangible attributes, internal to an organization or individuals
- Examples – abundant financial resources, well – known brand name, lower costs (raw materials or processes) , superior management talent , better marketing skills, good distribution skills, committed employees.

Weakness (internal , negative factors)

- Characteristics that place the firm or individual at a disadvantage relative to others
- Detract the organization from its ability to attain the core goal and influence its growth
- Examples – limited financial resources, very narrow product line, limited distribution, higher costs, weak market image, poor marketing skills, limited management skills, under – trained employees.

Opportunities

- Are external attractive factors that represent reasons your business is likely to prosper
- Chances to make greater profits in the environment – external attractive factors that represent the reason for an organization to exist & develop
- Examples – rapid market growth, rival firms are complacent, changing customer needs/tastes, new uses for product discovered, economic boom, government deregulation, sales decline for a substitute product

Threats (external, negative factors)

- External elements in the environment that could cause trouble for the business – external factors, beyond an organization's control
- Arise when conditions in external environment jeopardize the reliability and profitability of the organization's business
- Examples – entry of foreign competitors, introduction of new substitute products, product life cycle in decline, changing customer needs/tastes, rival firms adopt new strategies, increased government regulation, economic downturn
- To help decision makers share and compare ideas
- To bring a clearer common purpose and understanding of factors for success



- To organize the important factors linked to success and failure in the business world
- To help individual or organization to understand their strengths and weaknesses
- It promotes strategic thinking

SWOT analysis can be used for:

- business planning,
- strategic planning,
- outsourcing a service, activity or resource,
- an investment opportunity,
- a method of sales distribution,
- competitor evaluation,
- marketing,
- an investment opportunity
 - product development,
- research reports,
- etc.

However, the SWOT analysis technology was widely adopted not only in business and policy, but also in other spheres of action, in particular, in education when training students in different disciplines. The method of strategic planning is very important in the context of changes and the development all over the world. SWOT analysis method is giving structural description of any situation, and you should give the solution for the very problem. Materials and methods of SWOT for FL study should be based on realistic professional or everyday problems and situations, and designed to motivate and actively engage students. Typically students are involved in discussions on particular problems and work out solutions or recommendations through their active group work. SWOT analysis method is also excellent topic for dialogues. It is common that Strengths (Strengths), Weaknesses (Weaknesses), Opportunities (Opportunity) and Threats (Threat) are discussed and identified by the students themselves. To be successful in SWOT studies a teacher should take into consideration the level of students' language knowledge. The best choice would be using it with the student groups of intermediate or advanced level, who may have certain problems in grammar, pronunciation or vocabulary use, but for the most part are at ease with speaking the FL.



It is necessary to build the educational process so that each student receives not only knowledge, but also the pleasure from the learning process. Of course, teachers have successfully been using long-proven teaching methods of foreign languages, but in a

rapidly changing world, we must use the latest developments, endeavor to apply the traditional scheme of learning new ideas.


The modern teacher will in fact use a variety of methodologies and approaches, choosing techniques from each method that they consider effective and applying them according to the learning context and objectives. They prepare their lessons to facilitate the understanding of the new language being taught and do not rely on one specific «best method». The advantages of the teaching methods and techniques mentioned above are numerous and their employment contributes to the development of the following students’ skills and abilities: Language learning and intercultural skills. Communication skills: written, oral and non-verbal. Critical thinking skills. Reflective learning abilities. Organizational skills and professional knowledge. Collaborative learning and team-working skills. Life-long learning habits. Managerial and workplace communication skills such as holding a meeting, describing a project, solving a problem, negotiating a contract, giving a presentation, etc. All of these methods and techniques force students into real-life situations and require them to get involved into managerial and workplace communication. It should be noted that one of the main ideas of introducing these methods and techniques into FL courses is to provide opportunities for realistic learning situations, in particular to enable students to learn and use a FL in tasks related to and facilitating their study of other institute and university courses. The SWOT analysis method, case study method, language portfolio, essays and research, oral

presentations and teaching in teams are the areas of the most pronounced collaboration between a FL and other university courses as the tasks should be set in such a way to include the content covered as assignments or projects in professional courses. This not only enables the connecting of the professional knowledge and language knowledge in a meaningful way, but also promotes peer and collaborative learning in a realistic environment, which is one of the key methodological recommendations in contemporary. In a conclusion, implementing SWOT analysis method in English teaching/ learning environment will be effective.

The implementation of this very method leads students to analyze, think critically and evaluate the situation effectively. By the help of this method all four Integrated skills (listening, reading, writing, speaking) and presentation skills are developed. This method provides the formation of perfect, highly qualified specialists in the future. It is necessary to build the educational process so that each student receives not only knowledge, but also the pleasure from the learning process.

Literatures

1. Сайдалиева Г. С. The SWOT analysis method as a means of developing critical thinking among ESP students // Молодой ученый. — 2017. — №24
2. “The SWOT ANALYSIS: Process and Basic Components” presentation by Kamelia Gulam
3. “ Active learning and teaching of foreign languages in Uzbekistan “ , Educational and cultural issues magazine



SHAPING ECOSYSTEMS AND BEYOND BANKS

Tolibjonov KHurshidbek

Student of Kokand University

Yetmishboev Shakhzodbek

Student of the Fergana branch of the TATU

Azamov Shoxruxmirzo

Student of the Fergana branch of the TATU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6658760>

Annotation: *This article describes shaping ecosystems and beyond banks. People who are not close to this field may think that these two are different fields. If we understand the essence of these areas, we will certainly find important aspects of each other. Throughout the article, you can learn clear and analytical information about both of these areas.*

Keywords: *Financial ecosystem, P2P, DBF, notebook techniques, AI, big data, bitcoin*

It is natural to expect that a well-designed digital bank will become the basis of a much larger financial ecosystem or even a set of interconnected ecosystems. As important components of such an ecosystem, digital service providers can be considered as insurers, brokers, wealth managers, roboadvisors, credit card issuers, cross-border payment providers, currency exchanges and P2P lenders. The ability of these companies to meet the financial needs of their customers will be significantly improved as they enter a broader financial system through digital banking. At the same time, the bank benefits by gaining additional information about customers' requirements and habits, thus closing the information-related communication chain. Customers should be provided with appropriate privacy guarantees.

In addition, the digital cash issued by the bank can serve as a lubricant, allowing the trading wheels to rotate faster and more efficiently than is currently possible. One can imagine DBF in the center of the Internet of Things, which can be

considered a bank of things. For example, if a bank customer notifies him that the roof needs to be repaired, the bank can immediately recommend several contractors, arrange offers, help the customer choose the most suitable one, and arrange for its financing. Thus, in addition to the financial business, DBF can include a variety of non-financial participants in its ecosystem. All of these developments will increase the social utility of the bank and its appreciation by the public, while at the same time increasing its profitability. Banks need to keep in mind that there is no time to lose, as the competition for current digital champions for their customers' digital wallets will be fierce from Google, Amazon, Facebook and Alibaba.

The unsatisfactory state of affairs with existing banks offers a unique opportunity to build a digital bank from scratch. Such a bank carries out its mission through the use of the most advanced technologies, including cryptography and distributed notebook techniques, AI, big data and in-depth study. From the very beginning, it is based on optimizing balance; placement of digital, distributed notebook-inspired infrastructure; and comprehensive automation and digitization of the middle and back office, as well as enhanced security using the most advanced cryptographic methods throughout the organization. By design, this bank will be highly efficient, profitable and fast. And its infrastructure will be flexible enough to work with private digital currencies (e.g. bitcoin) and potential state-issued currencies (e.g. Bitcoin). If it wants, this bank will be able to issue digital currency itself. The Bank freely uses artificial intelligence and big data analysis to create an unprecedented customer experience, automate the issuance of personal and small and medium business loans and improve risk management. By design, such a bank is valued by investors, customers and regulators.

And yet, by building such a bank, have we fallen into the trap of the old paradigm? If you look at WeChat or Sesame and say nothing about the fears of leading telecommunications companies, you will see that even leading companies like Facebook and Google are intimidated by the C-level. Surprisingly, many legacy banks seem more reliable. WeChat is redefining what financial services mean in relation to a wider range of consumer services that attract individuals.

The key is to have customer-oriented information in all areas of life that is stored in a standard format with a standard API that works not only in the corner of financial services or products, but in the entire digital ecosystem. (So it's like a universal PDS, but customers don't own or manage the data; PDS does.) Using this central, panoptic data, WeChat offers life opportunities (e.g., entertainment, business, finance, family) smooth and consistent.

It provides customers with fully integrated payments, credit and banking services, incredible consulting capabilities and excellent KYC / AML, all in a completely transparent manner. Users simply go online and in person, find interesting things, and buy, sell, and trade without problems. WeChat and Sesame also combine health, lifestyle and employment services with money services, making it completely transparent without separate apps or websites. Consumers can only care about things that help them live a better life. However, this depends on the ability of consumers to provide credit when needed. Given the somewhat uncertain and limited capabilities of P2P networks to lend, digital banks need to come to the rescue.

A similar future is emerging for SMEs: customers are shepherding their purchases and there are almost no cash flow issues such as loans, payments and KYC / AML. In the first months of its operation, WeChat reportedly reached more than 1 million SMEs integrated into its services.

Is there a "no banking" future for digital banking? Instead of running digital banking as a separate service, banking functions are invisibly integrated everywhere. There are several urgent problems with this model:

1. Make money. Due to the exclusive and unique role of banks in the creation of loan money, non-bank entities do not have the necessary capacity to meet the financial needs of their customers.

2. Normative restrictions. There are many restrictions on offering banking services to companies in Western Europe and the United States. If China begins to adopt more restrictive financial regulations to better protect consumers, these

regulations will create a less hospitable business environment for these types of services.

3. Securities market pressure. Does WeChat (or the next WeChat) want to expand its high-tech stock market and load it up with discounts for financial services? The more successful you are in financial services, the more acute the question becomes. However, if the technology company is funded intentionally and dimensionally, it can increase shareholder value.


Despite these challenges, is there a model we can call an “invisible bank” that adds to our daily lives without friction? The answer is yes and no - the old banking model will inevitably disappear over time. Some believe that the integration of artificial intelligence into cryptocurrency could pave the way for this invisible banking future (DeFi or decentralized finance); others believe Big Tech like Amazon, Apple, or Ali Baba will make it easier and benefit from it. Nevertheless, in the transition period, digital banks play a role as transaction oils and activators in daily life.

REFERENCE :

1. Xurshidbek, Tolibjonov, Yetmishboyev Yetmishboyev, and Azamov Shoxruxmirzo. "ECONOMIC FRICTIONS AND FORCES IN FINANCIAL SERVICES." *INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE* 1.1 (2022): 62-66.
2. Shakhzodbek, Etmishboev, Tolibjonov KHurshidbek, and Azamov Shoxruxmirzo. "FROM BANK TO FINTECH AND THE POWER OF NETWORK EFFECTS." *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI* (2022): 14-16.
3. Scott, Van Reenen, and Zachariadis, “The Long-Term Effect of Digital Innovation on Bank Performance”; Zachariadis, “Diffusion and Use of Financial Telecommunication.”
4. A. Broeders and S. Khanna, “Strategic Choices for Banks in the Digital Age” (McKinsey & Company, January 1, 2015), <https://www>

.mckinsey.com/industries/financial-services/our-insights/strategic-choices-for-banks-in-the-digital-age.

5. M. Munger, “Coase and the ‘Sharing Economy,’” in *Forever Contemporary: The Economics of Ronald Coase*, ed. Cento Veljanovski (London: Institute for Economic Affairs, 2015), 187–208.



INGLIZ TILIDA GAP STRUKTURASINING TIZIMLINISHIDA YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARINING ROLI

Abdurahmonov Islom Abdulakim o‘g‘li

Andijon davlat universiteti

O‘zga tilli guruhlarda rus tili yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Jumayeva Mukarrama Bekzod qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6675938>

***Annotasiya:** Maqolada ingliz tilidagi gap strukturasining tizimlanishida yordamcho so‘z turkumlarini yechilmagan dolzarb roli haqida ko‘rsatilgan. Maqolada inglizshunos professorlarning bu borada olib brogan izlanishlari ham aks etgan.*

***Kalit so‘zlar:** *частм речу, parts of speech, morfologik va sintaktik, -statives. articles, preposition, conjunction, particle, modal verb.**

Mustaqillikni qo‘lga kiritganimizdan keyin tarixan qisqa vaqt ichida mamlakatimizda iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy va ma‘naviy –ma‘rifiy sohalarda juda katta ijobiy islohotlar o‘tkazildi. Bu borada erishilgan yutuqlar davlatimiz tomonidan ishlab chiqilgan demokratik jamiyat qurish konsepsiyasi nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu konsepsiya millatimizning o‘ziga xos urf-odatlarini, an‘analari, qadiryatlari va mentaliteti hamda mamlakatimiz taraqqiyoti darajalarini qat‘iy hisobga olish bilan “o‘zbek modelini” o‘zida aks ettirgan. Unga muvofiq ilm-fanni rivojlantirish mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha ishlarda unga tanish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risidagi” farmoni (2002 yil 20-fevral), Vazirlar mahkamasining “Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni ayniqsa, mamlakatimiz prezidentining “Chet tillarini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” yaqinda (2012 yil 10 dekabrda) 18/75

qarori) qabul qilgan qarori va boshqa me'yoriy hujjatlar O'zbekistonda ilm-fanni, shu jumladan tilshunoslikni ham rivojlantirish muhim rol o'ynamoqda.

So'z turkumlari tilning grammatik sistemasida eng universal hodisalaridan biri bo'lib, ular barcha tillarga xos, biroq har bir til qurilishida so'z turkumlarining klassifikatsiyasi alohida qarashni talab etadi. Chunki bir tildagi sematik ma'no boshqa tilda ham mavjud bo'lgan holda uning grammatik belgisi ikkinchi tilda bo'lmasligi mumkin. Har bir so'z turkumining o'ziga xos grammatik va sematik belgilari bor va shu sababli ular bir-birlaridan farqlanadilar.

So'z turkumlari nutqning alohida qismlari, gap bo'laklari va so'zlarining har xil tiplari emas. Shu jihatdan rus tilidagi "часть речи" (nutq bo'laklari) yoki ingliz tilidagi "parts of speech" va o'zbek tilidagi "so'z turkumlari" tushunchasi va terminlari ancha chegaralangan va ifodalangan ma'no doirasi jihatidan har xil tushunilishi mumkin. So'zlar grammatik (morfologik va sintaktik) va leksik-sematik belgilarga ko'ra alohida guruhlariga bo'linadi. So'zlarning ana shu belgilarini umumlashtirib har bir guruhdagi so'zlarga leksik-grammatik kategoriyalar sifatida qaraladi.

Inglizshunos olimlar I.P.Ivanova, L.L.Iofik va L.P. Chaxoyanlarning bu masaladagi qarashlariga tayanamiz. Ular akedemik L.V.Sherba ta'limotiga tayanib hozirgi ingliz tilidagi so'zlarni 13 ta turkumga ajratib, ularni asosiy va yordamchi so'z guruhlariga bo'ladilar. Asosiy so'z turkumlari sifatida ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l holatni ifodalovchi so'zlar (слова категории состоянни -statives) modal va undov so'zlar ko'rsatiladi. Yordamchi so'zlar guruhida esa bog'lovchilar, predloglar, artikllar va ko'makchilar kiritiladi. Ularning qarashlaricha, so'z turkumi so'zlarning leksik-grammatik guruhlariga bo'lib, ular biri-bilan shaklan yasalishi, ifodalangan grammatik ma'nosi, yangi so'z yoki yangi shakl yasash hamda gap tarkibida bajaradigan vazifasiga ko'ra farq qiladilar. Ularning grammatik ma'nosi ular ifodalangan leksik ma'no – sematikasi asosida hosil bo'ladi. Biroq shuni nazarda tutish lozimki, leksik ma'no faqat shu so'zga mos bo'lib, uning grammatik ma'nosi ham boshqa so'zlarda ham ifodalanishi mumkin. Mualliflarning

fikricha, soʻzning maʼno plani yetakchi omil boʻlib, ularni guruhlashda asosiy rol oʻynaydi.

Formal grammatik koʻrsatkichlarga ega boʻluvchi soʻz turkumlari (masalan, soʻz oʻzgartiruvchi-turlanuvchi otlar va olmoshlar: tuslanuvchi feʼllar) va oʻzgarmaydigon (tuslanmaydigan)soʻz turkumlari bir-biridan tamoman farq qiladi. Asosiy soʻz turkumlari deb atalmish guruh vakillarini u yoki bu soʻz turkumlariga birlashtirishda ularning leksik-sematik xususiyatlarigagina asoslanilmaydi, balki ular formal-grammatik belgilari asosida sinflarga boʻlinadi. Soʻzlarning grammatik belgilari morfologik va sintaktik boʻlishi mumkin. Soʻz turkumlarini morfologik belgilari soʻz oʻzgartiruvchi morfemalar yoki grammatik kategoriyalardan iborat. Baʼzi soʻz turkumlari soʻz oʻzgartiruvchi morfemalarga ega emas (masalan, predlog, bogʻlovchi, yuklama va koʻmakchilar.) Shu tufayli ularni mustaqil soʻz turkumlaridan – ot, sifat, olmosh, son, feʼl, ravishda farqlab, yordamchi soʻz turkumlari deb qaraladi. Undan tashqari, alohida soʻz turkumlariga modal soʻzlar, undov va taqlid soʻzlar kiradi.

Yordamchi soʻz turkumlari ingliz tili grammatikasida munozarali masalalaridan biridir. Professor B.A. Ilish ularni 6 turga (articles, preposition, conjunction, particle, modal verb and interjection) ajratsa, Xaymovich va Rogovskayalar yuqoridagilarga yana 2 turni qoʻshadi (statives and response words). Yordamchi soʻz turkumlariga amaliy grammatikalarda batafsil maʼlumot berib oʻtilishini hisobga olgan holda ushbu oʻrinda biz ayrim munozarali jihatlariga toʻxtalib oʻtmoqchimiz.

Xulosa: Artikllarni Xaymovich va Rogovskayalar (noun-specifiers) deb atashadi. Lekin shuni aytib oʻtish kerakki, artikllar nafaqat otlar, balki otlashgan feʼl (verbal noun), sifat (substativized adjective) va sonlar bilan ham ishlatilishi mumkin. Shu sababli ham ushbu qarash biroz munozarali hisoblanadi.

Ingliz tili grammatikasini oʻrgatishning hozirgi bosqichida alohida eʼtibor talab qiladigan masalasiga yordamchi soʻzlar sematikasini oʻrganish ham kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

A.И. Смиринцкий. Морфология английского языка. М.1958

М.Т.Ирискулов А.Кулдошев. Инглиз тили назарий грамматикаси. Т.2008

Mukarrama Bekzodovna Jumayeva (2021). INTERACTIVE METHODS USED IN PRIMARY SCHOOLS. Scientific progress, 2 (4), 881-885.



RESULTS OF NATIONAL
SCIENTIFIC RESEARCH



OpenAIRE ZENODO
1
2022

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA SATIRA VA YUMOR

Zokirova Diyora Iqboljon qizi

Toshkent moliya instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6675972>

***Annotatsiya.** Maqolada Abdulla Qahhor asarlarining badiiy jozibadorligi, tilining samimiyligi va mukammalligi hamda adibning mahorati haqida mulohazalar yuritilgan. Adibning hikoyalarida satira va yumorning o' rni va bu boradagi asarlari tahlili ko'rib chiqilgan.*

***Kalit so'zlar.** Abdulla Qahhor, adib mahorati, hikoyalar, satira va yumor, realistik hikoyalar.*

Kirish. XX asrning buyuk yozuvchilaridan biri Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon "Adabiyot nadir?" maqolasida adabiyotning jamiyat hayotida tutgan o'rniga baho berib, shunday yozadi: "Hech to'xtamasdan harakat qilib turgan vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar bilan kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa, millat yashar... Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan qaralgan, majruh yarador ko'ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydurgan, o'tkir yurak kirlarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug' va ravshan qiladurgan, chang va tuproqlar to'lgan ko'zlarimizni artub tozalaydurg'on buloq suvi bo'lganlikdan bizga g'oyat kerakdur"¹⁵ Adib o'zining bu maqolasi orqali adabiyotning, adabiy ta'limning mazmunini, mohiyatini belgilab berganday. Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barcha sohada hayotga tatbiq etilayotgan istiqbolli loyihalar, joylarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı bunyodkorlik ishlari xalqimizning nafaqat turmush tarzini, balki dunyoqarashini ham tubdan o'zgartirmoqda. Bunday ezgu jarayonni madaniyat va san'at rivojiga,

¹⁵ Abdulhamid Chólpon. Adabiyot nadur.

ijod ahliga ko‘rsatilayotgan yuksak e‘tibor misolida ham ko‘rish mumkin. So‘nggi ikki yilda mazkur sohaga taalluqli 20ga yaqin Farmon va qarorlar qabul qilindi. Ular ijrosi yuzasidan sa‘y-harakatlar olib borilyapdi. Prezidentimizning joriy yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ushbu jabhadagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan muhim hujjat sifatida alohida ahamiyatga ega. Binobarin, davlatimiz rahbari ta‘biri bilan aytganda, mamlakatimizda madaniyat va san‘at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi.¹⁶ Ayni shu nuqtai nazardan qaraganda, ozbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish, ko‘pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim r bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, o‘ylaymanki, katta ahamiyatga ega.¹⁷

Tahlil va natijalar. Adib hikoyalarini shartli ravishda uch yo‘nalishga ajratish mumkin: tarixiy hikoyalar, hajviy hikoyalar, zamonaviy hikoyalar. Abdulla Qahhorning hikoyalarida satira va yumor juda kuchli edi. Uning jajji hikoyalarida satirik va yumorist sifatida o‘z talantining yangi qirrasini namoyish qildi. Unda kulgichilikka mo‘illik zo‘r edi. Ma‘lumki, barcha yomon illatlarni, kamchilik va nuqsonlarni fosh etishda va ularga qarshi kurashishda, shu bilan birga, yaxshi narsalarni ulug‘lashda satira jamiyatda g‘oyat katta rol o‘ynaydi. Satirani inkor etib bo‘lmaydi. Satirani inkor etuvchilar haqida Abdulla Qahhor shunday deb yozgan edi: “Satira o‘tiga uchragan kishi, — vijdoni bo‘lsa, odamlarning yuziga qarolmaydi, vijdoni bo‘lmasa, og‘zidan ko‘pik sochib, yozuvchining ketidan bolta ko‘tarib yuguradi”. Keling adibning satirik hikoyalari tahliliga o‘tishdan oldin satira va yumor haqida tushunchaga ega bo‘lib olsak. Matyoqub Qo‘shjonov o‘zining "Abdulla Qahhor mahorati" kitobida quyidagicha tarif keltiradi: *"Hajv bilan yumor orasida Xitoy devori yo‘qligi ma'lum. Lekin ba'zida hajviyat bilan yumorni ajratish*

¹⁶ <https://xs.uz/uz/post/madaniyat-va-sanat-taraqqij-etmasa-zhamiyat-rivozhlanmajdi>

¹⁷ Shavkat Mirziyoyevning Ozbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda organish va targib qilishning dolzarb masalalari» mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqidani.

qiyinchilik tug'diradi. Yumor qatnashmagan hajv bo'lmaganidek, hajviy ma'no kasb etmagan yumoristik asar ham bo'lmaydi. Bizning nazarimizda hajviy asar bilan yumoristik asarlar orasidagi farq, avvalo, inkor qilish usuliga, hajviy maqsad uchun qo'llanilgan yo'l va vositalarga bog'liq. Hajviy asarlarda bosh vosita ayovsiz, jiddiy fosh qilish bo'lsa, yumoristik asarlarda bosh vosita masxara qiluvchi achchiq handadir. Har bir hajviy asarda ham achchiq handaning ham o'rni bor. Gap mana shu o'rinning darajasida. Jiddiy fosh qilish yo'li bilan yaratilgan hajviy asarlarda achchiq handa qandaydir yordamchi rol o'ynab ayovsiz fosh qilish yo'lini yanada qo'llab-quvvatlash uchun xizmat qiladi. Yumoristik asarlarda esa achchiq handa bosh rolni o'ynaydi. Sof hajviy asarlarda jiddiy fosh qilish asarning joni, handa tani bo'lsa, yumoristik asarlarda masxaralovchi handa asarning ham joni ham tanidir".¹⁸

Abdulla Qahhor bu dunyoga kelib, esini tanib, ilk bor ko'nglida ogir taassurot qoldirgan narsa-hayotda keng tarqalgan tengsizlik, mutelik, fikrlashdan mahrumlik, qullik psixologiyasidir. Yozuvchining ilk muvaffaqiyatli chiqqan hikoyasi «Boshsiz odam»dayoq mustaqil fikrlashdan mahrum, mute bir kimsaning hajviy xarakteri yaratilgan. Shundan keyin yozuvchi butun ijodi davomida bu toifa nomustaqil, mute odamlar obraziga takror-takror murojaat etadi. Har gal bu ijtimoiy illatning qandaydir yangi bir qirrasini ochadi. Shuning uchun ham Qahhor bu xil hikoyalari bilan, asosan, jamiyatning og'riqli nuqtalarini ko'tarib chiqqan. Masalan, "O'jar", "Adabiyot muallimi", "Mayiz yemagan xotinlar" va boshqa hikoyalarda bunday holatlarda ko'rishimiz mumkin. Yozuvchining «Adabiyot muallimi», «Sanatkor» hikoyalarda ham fojivaviy ruh ustuvor. Har ikki asardagi o'zlarini dono, bilimdon, madaniyatli qilib ko'rsatishga intilgan kimsalar o'zgalarning achchiq istehzolariga, nadomatlariga loyiqdirlar. Bir umrga o'zgalarga kulgi bo'lib yashash ham aslida o'ziga xos fojidadir.

«Adabiyot muallimi» hikoyasi bosh personaji Boqijon Baqoyev nodon, ota madaniyatsiz bir kimsa. Hikoyada yozuvchi biron orinda uni nodon, madaniyatsiz

18 Qoshjonov M. Qahhor mahorati: Monografiya. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.

deb atamaydi, oshkora qoralamaydi. Personaj o‘zining nodon, madaniyatsizligini har qadamda xatti-harakatlari, fikrlash tarzi, gap-so‘zlari orqali o‘zi fosh etadi. Nafis, yani badiiy adabiyot muallimi bo‘la turib jiyani, talaba Hamidaning Chexov va uning «Uyqu istagi» hikoyasi haqidagi oddiy savollariga tayinli javob berolmaydi, aslida u javob berishga qodir emas. Bu odamning fojiasi shundaki, aybini tan olgisi kelmaydi, o‘zini har bop bilan bilimdon qilib korsatishga urinadi, aravani quruq olib qochadi: uning xayolida, tilida bir-biriga qovushmagan nomlar, har xil atamalar, ilmiy tushunchalar... Uning fikrlash yosini gap-so‘zlarida aniqlik, izchillik yo‘q, duch kelgan tomonga otib ketaveradi. Yozuvchi hikoyani yakunlar ekan, savol beruvchi talaba qizning «guvillab turgan boshida shundan boshqa hech narsa yo‘q edi», d deb yozadi: «praktikum, minimum, maksimum, Deterding, Stending, Shelling, Mering, Demping...»

Shu tariqa ko‘z oldingizda nodon, notayin odamning nihoyatda aniq hajviy qiyofasi, ichki dunyosi, qolaversa manisiz fojiali hayoti namoyon bo‘ladi. “Adabiyot muallimi” qissasida ziyolilarning loqaydligi, bilimsizligini tanqid qiladi. Adabiyot o‘qituvchisining savodsizligicha qahramonlarni tanimasligi, yod olgan malumotlaridan nariga o‘tmasligi qoralanadi. U adabiyot o‘qituvchisini birgina suhbatda bunday mantiqsiz, bemani fikrlashini tanqid qiladi. Muallif shu tariqa jamiyatni tanazzulga yetaklayotgan shaxs turini namuna korsatadi. Yozuvchining ko‘plab hikoyalarida hayot mavzusi ustunlik qiladi.

Shuni e'tirof qilishim kerakki, satirik hikoyaning yozilishiga turtki bo‘lgan fakt, hayot hodisasi o‘zicha satirik mazmunga ega bo‘lavermaydi. Hodisa shaklning yaralishiga turtki bo‘ladi, hikoya yozib chiqilgandan keyin, boshqa mazmunga kirishi mumkin. Bunday holatda gap yana shundaki, yozuvchi ongida malum bir hayot hodisasining alomatlari toplanadi; bu alomatlar obrazda gavdalanish uchun faqat muayyan sababga, muayyan shaxs yoki vaziyatning topilishiga qarab qoladi. Bunda yozuvchi tasavvurida shakllanib qolgan tipga bunday muayyan shaxs ichki

tomondan qanchalik mos kelishining ahamiyati qolmaydi. Hodisaning mohiyatini yozuvchi belgilab olgandan keyin uni faqat malum shaklga solish qoladi.¹⁹

O‘zbek adabiyotida hikoyachilik maktabini yaratgan Abdulla Qahhorning 1956-yili yozilgan “To‘yda aza” asari oradan roppa-rosa oltmish yil o‘tgan bo‘lsa-da, hamon yangiligicha turibdi. Eskirmaydigan hikoya. Leonid Lench: “O‘lim to‘g‘risida kulgili qilib yozish juda qiyin gap, bu faqat Chexovning, fransuzlarning qo‘llaridan kelgan edi. Bizda buning uddasidan chiqadiganlar kam. Abdulla Qahhor esa, buning uddasidan chiqqan. Kichik hikoyada siyqaday tuyulgan voqea uning qalami tufayli hayotning barcha jonli ranglari bilan tovlanib ko‘rinadi”²⁰, degan edi. Bu hikoya haqida bundan ortiq baho, ajoyib ta’rif bo‘lmasa kerak.

«Bemor» hikoyasida qattiq og‘rib, vafot etgan ayol taqdiri va unga biror yordam berishdan batamom o‘jiz, qo‘li kalta Sotiboldining ahvoli, uyquga to‘ymagan, hali aniq shakl olmagan jujuq tilda onaizoriga tuni bilan xudodan shifo tilab chiquvchi «begunoh go‘dak» - qizcha holati bayon etilgan. Ona esa har qanday vaziyatda ham o‘z bolasini o‘ylaydi. Bu hikoyaga «Osmon yiroq, yer qattiq» maqoli epigraf qilib olingan.

Qahhor tabiati, iste’dod yo‘nalishi jihatidan hayotdagi, odamlar qismatidagi fojeylikni teran his etadigan adibdir. Uning eng yetuk hikoyalari ayni fojiali holat, qismatlar ifodalangan asarlardir. Hikoyalaridagi personajlar, hayotdan olingan epizodlar, lavhalar garchi muayyan intiho, badiiy yechim bilan yakunlansa-da, bunday yakun galdagi fojialar, ko‘rguliklarning debochasi vazifasini o‘taydi. «Bemor»dagi Sotiboldi xotining o‘limi, uyqu aralash ayasining dardiga davo tilagan qizaloq va xotini dardiga davo qidirib bor-budidan judo bo‘lgan erning yangidan yangi sarson-sargardonliklari ibtidosidir. Yozuvchining komik hodisalar, hajviy xarakterlar ifodalangan «Adabiyot muallimi», «San’atkor» hikoyalarida ham fojey ruh ustuvor. Har ikki asardagi o‘zlarini dono, bilimdon, madaniyatli qilib ko‘rsatishga intilgan kimsalar o‘zgalarning achchiq istehzolariga, nadomatlariga loyiqdirlar. Bir umrga o‘zgalarga kulgi bo‘lib yashash ham aslida o‘ziga xos

19 Abdulla Qahhor. Hayot hodisasidan badiiy toqimaga. 1965.

20 <https://saviya.uz/shaxsiy-tarbiya/hikoyaning-sehrli-dunyosi/>


fojiyadir. Abdulla Qahhor hikoyalarida satira va fojiya shu qadar qorishib ketganki, ularni bir biridan ajratish imkonsiz.

Xulosa. Adibning asarlari chindan ham o‘zini ko‘rsata olgan desak mubolag’a bo‘lmaydi. Odatda har qanday yaxshi asar ikkita xolis, ammo beshafqat hakam sinovidan o‘tadi. Biri - kitobxon sinovi, biri- vaqt sinovi. Abdulla Qahorning ko‘plab hikoyalari, roman va qissalari, dramatik asarlari har ikki sinovdan yorug‘ yuz bilan o‘tdi. O‘tkir Hoshimov aytganidek: *"Abdulla Qahhor aynan bugungi kuni, yurtimizning istiqloli, Vatan mustaqilligini bir umr orzu qilgan adib edi. Uning kechagi kun haqidagi asarlarini mutolaa qilgan yosh avlod bugungi kuni teranroq qadrlashga o‘rganadi. Adib asarlarining sehri ham shunda..."*

Xulosa qilib aytish mumkinki, odamlar turmushidan olingan epizodlarda, lavhalarda ular hayotiga, qismatiga daxldor fojeiy mohiyatni korish, teran his etish, personajlar xarakteri va qismatini ularning ruhiyati ifodasi orqali yorqin badiiy detallar vositasida gavdalantirish Abdulla Qahhor hikoyanavislik sanatining eng muhim jihatlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Shavkat Mirzyoyevning Ozbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda organish va targib qilishning dolzarb masalalari» mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqidan.
2. Abdulhamid Chólpon. Adabiyot nadir.
3. Qoshjonov M. Diydor.- Toshkent: Sharq, 2004. — 330b.
4. Naim Karimov. Xalq dilining tarjimoni.
5. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907>
6. <https://xs.uz/uz/post/madaniyat-va-sanat-taraqqij-etmasa-zhamiyat-rivozhlanmajdi>



BADIIY MATNDA METAFORALARNING AHAMIYATI

Yoqubboyeva Shoxista To'raxon qizi

Andijon davlat universiteti

Filologiya (o'zbek tili) fakulteti 3-bosqich talabasi

Telefon: + 998 99 406 03 12

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6675995>

Annotatsiya: *ushbu maqolada ma'no ko'chish usullaridan biri hisoblangan metaforalarning badiiy matnda qo'llanilishi va ularning ahamiyati, xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *ko'chma ma'no, troplar, metaforik-funksionallik, metaforik-metonimiya, metaforik-sinekdoxa.*

O'zbek tilshunosligi fani o'tgan davr mobaynida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Buni tilning barcha sathlari bilan bog'liq muammolarning o'rtaga tashlanishi va olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ham ko'rsatib turibdi. Har qanday matnning mazmunini tushunish uchun til leksikasi va grammatikasini bilish yetarli bo'lsa, badiiy matnning mazmunini idrok etish uchun badiiy matnning o'ziga xos lisoniy-poetik qonuniyatlarini ham bilish lozim bo'ladi.

Ma'lumki, so'zlar asl ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noni ham anglatadi. So'zlar ko'chma ma'noda qo'llanganda predmet-hodisalarni atabgina qolmay, o'sha predmet va hodisalarni tasvirlash vazifasini ham bajaradi. Ko'chma ma'no tildagi so'zlarning to'g'ri ma'nosi negizida vujudga keladi. Ko'chma ma'noli so'zlar ilmiy va rasmiy uslubdan tashqari barcha uslublarda qo'llaniladi. So'zlarning ko'chma ma'nosi faqat kontekstda reallashadi.

Nom ko'chishi asosida yangi ma'no hosil bo'lishi barcha mutaxassislar tomonidan e'tirof etilsa-da, lekin nom ko'chishiga olib keluvchi hodisalar, ularning turi masalasidagi qarashlar turlichadir. Ba'zi adabiyotlarda nom ko'chishiga olib keladigan hodisaning ikki turi ko'rsatilsa, ayrim adabiyotlarda bunday hodisalarning undan ko'p turlari ko'rsatiladi. Lingvistik adabiyotlarning ko'pchiligida esa (ayniqsa,

keyingi vaqtlarda nashr etilgan adabiyotlarda) nom ko'chishiga olib keluvchi hodisaning to'rt turi keltiriladi: metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik.

Badiiy matnda leksik sathdagi ko'chma (trop)lar nihoyatda katta ahamiyatga ega, ular badiiy mazmuni ifodalashda eng faol vositalardir. Ayniqsa, ko'chimlar orasida metafora muhim va keng qo'llanuvchi vosita sifatida tilimizda badiiy tasavvurlarning natijalari asosida yuzaga kelgan. Tilda ilgari mavjud bo'lgan nomning muayyan o'xshashlik asosida yangi ma'no uchun qo'llanishi oddiy nominatsiya vazifasinigina bajarmaydi, balki tinglovchiga ta'sir etish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi hamda tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi.

Metaforani faqat ko'chim yoki badiiy vosita emas, balki inson tafakkurining, xususan, obrazli tafakkurning muhim mexanizmlaridan biri sifatida tushunish bilan bog'liq holda XIX asr o'rtalaridan adabiyotshunoslik qatori tilshunoslik, falsafa, mantiq, psixologiya, semiotika kabi ko'plab ilm sohalari ham o'zining qiziqishlari doirasida tadqiq etgan. O'zbek adabiyotshunosligida ham metaforani ko'chim sifatidagina tushunish barham topib, uning badiiy asarda, badiiy tafakkurda tutgan o'rni, ijodiy uslubni belgilovchilik xususiyati o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab o'rganila boshlandi. O'zbek tilshunosligida 70-yillardan boshlab, ko'p ma'nolilik va so'zlarning ko'chma ma'nolarini tadqiq qilishga bag'ishlangan bir qator asarlar maydonga keldi. Bu borada tilshunos olim M.Mirtojievning xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim. Shuningdek, metaforani tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan, alohida ijodkor she'riyatida tutgan o'rnini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar yaratildi. Bu tadqiqotlarda ko'chma ma'noni hosil qiluvchi vositalar qatorida metaforaga ham o'rin berilgan va ko'chma ma'noni vujudga keltiruvchi vositalar sistemasida metaforaning boshqa vositalardan farqli jihatlarini aniqlashga e'tibor qaratilgan. G.Qobuljonova metafora va uning lingvistik tabiatini alohida monografik planda o'rgangan.

O'zbek tilida metafora leksik ma'no taraqqiyot yo'llaridan biri sifatida qaraladi va ko'chimning o'xshashlikka asoslangan turi sifatida baholanadi. Sh.Rahmatullayev metafora ko'chimning boshqa turlari bilan sinkretik ishlatila olish imkoniyatiga

e'tibor qaratadi: metaforik-funksionallik, metaforik-metonimiya, metaforik-sinekdoxa va hokazo. Samolyotning qanoti metaforik birikmasida qush qanotiga nafaqat vazifa, balki shaklan ham o'xshaydi. Shuning uchun bu kabi holatlarni funksional-metaforik ko'chirish desa ham bo'ladi.

A.Avelivechning fikricha, metafora so'zlovchining quyidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi: birinchidan, bir narsani nomlash, ikkinchidan, nomlanganda ham nomning "gapiradigan bo'lish zaruriyati".²¹ Bu yerda nomlash atamasi ostida bir-biridan mohiyatan farq qiluvchi ikki xil hodisa nazarda tutiladi.

1.Nomsiz narsani nomlash.

2.Nomli narsaga qayta nom berish (ikkilamchi).

Nomsiz narsani nomlash o'z nomidan ham ko'rinib turganidek, kontekstda biror narsani so'zlovchi o'ziga moslab nom berishidir.

Ikkilamchi nomlash zaruriyati nimadan kelib chiqadi? Bu zaruriyat mavjud bo'lgan nom so'zlovchi nuqtayi nazaridan ayni nutqiy sharoitni ta'minlay olmay qolganda yuzaga keladi.²² Ikkilamchi nomlashda so'zlovchining subyektiv munosabati ham ifodalanadi, natijada metaforik ko'chma ma'noga ega bo'layotgan so'z yoki birikmalar konotativ ma'noning hosil bo'lishiga xizmat qiladi. Ikkilamchi nomlash quyidagi jihatlari bilan ahamiyatlidir: nutqni qisqa va lo'nda qiladi, aniqlashtiradi.

Agar muayyan so'zda ayni jarayon (ikkilamchi) da qatnashish imkoniyati bo'lmasa, u bu jarayonda qatnasha olmaydi. Bunday imkoniyat esa so'z sememasi (ma'nosi)ning tarkibiy qismlari – semalarining nisbiy mustaqillikka erisha olish qobiliyatidir. Ya'ni ikkilamchi nominatsiya uchun zaruriy semalar yorqinlashadi, mustaqillashadi va mutanosib semaga ega bo'lgan boshqa bir so'z bilan sintagmatik aloqaga kirishadi. Natijada ikkilamchi nominatsiya yuzaga keladi.

²¹ А.К.Авеличев. Заметки о метафора. Вест. – Москва. Ун-та. Сер. 10.Филология. 1973-N1-с. 25-28.

²² G.Qobuljonova. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini. Filol.fan.nomzodi...diss.avtoref. T.: - 2000.

O'zbek tilshunosligida komponent-semik tahlilga e'tibor rivojlana boshlagach, metafora tabiatini o'rganishga ana shu tahlil usullarini tadbiiq etishga intilishlar yuzaga kela boshladi. Shu xil yo'nalish namoyondalaridan biri Z.Tohirov metaforani leksema sememasining pragmatik semasi sifatida baholaydi.²³ Shuningdek, metafora va o'xshatish orasidagi farqni shakldagina ko'radi.

Metaforalar shoirning o'z fikrlarini kitobxonga ta'sir qiladigan darajada obrazli qilib ifodalash vositasi sifatida she'riy asarlarning hamma ko'rinishlarida u yoki bu tarzda namoyon bo'ladi. Poetik matnlarda yozuvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga bog'liq holda she'rda tasvirlangan mavzuning qanday ekanligiga qarab lisoniy vositalar muhim uslubiy vazifa bajarishga xizmat qiladi. Bunday vositalar uslubiyatga oid ishlarda ifoda-tasvir vositalari, badiiy matnning o'ziga xosligini ta'minlovchi, bo'yoqdorlikni yuzaga keltiruvchi estetik hodisa sifatida ham ahamiyatli hisoblanadi. Agar matnda bu turdagi vositalar o'rinli qo'llanilsa, asarda muallif tomonidan tanlangan obraz badiiy bo'yoqlarda o'quvchi yoki tinglovchi ko'z o'ngida aks etadi. Badiiy matnda qo'llanilgan metaforalar o'z ta'sirchanlik xususiyati bilan o'quvchining his-tuyg'ulariga ta'sir etadi, uni zavqlantiradi, turli ruhiy holatlarga soladi. Bundan tashqari metaforalar kishiga o'z fikrlarini tilda mavjud bo'lgan vositalar yordamida uzundan uzun jumlar orqali ifodalashdan qutqaradi. Metaforalar yordamida yozuvchining fikrlari qisqa va aniq, sodda va obrazli tarzda o'z aksini topadi.

Badiiy matnlarni o'rganish o'zbek ijodkorlarining muallif nutqi va personaj nutqini individuallashtirish, portret, turli tabiat manzaralari va poetik obraz yaratishda ifoda-tasvir, lingvopoetik vositalardan, leksik-frazeologik resurslar, xalq tili birliklaridan unumli foydalanish mahorati, ularning o'zbek adabiy tili xazinasini boyitishga qo'shgan munosib hissalarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

²³ Z.Tohirov. Metafora sememasi pragmatik semasi//O'zbek tili va adabiyoti. – 1984.

1. А.К.Авеличев. Заметки о метафора. Вест. – Москва. Ун-та. Сер. 10.Филология. 1973-N1-с. 25-28.
2. G.Qobuljonova. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini. Filol.fan.nomzodi...diss.avtoref. T.: - 2000.
3. Z.Tohirov.Metafora sememasi pragmatik semasi//O'zbek tili va adabiyoti. – 1984.



YURTIMIZDA KOREYS TILINI O'RGATISHNING AHAMIYATI

O'zDJTU Sharq filologiyasi fakulteti

2-kurs FKOR-2014 guruhi talabasi

Qo'chqorova Parizoda Abror qizi

Telefon: +99891 001 22 31

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6774395>

***Annotasiya.** Mazkur maqola Koreys tili fani to'rt aspectga (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berish, ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.*

***Kalit so'zlar:** Ta'lim texnologiyalari, aspect, zamonaviy jarayon, axborot texnologiyalari, innovatsion texnologiyalar, ilm-fan, texnika, texnologik vositalar*

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2012 yil 13 dekabrda PQ 1875 –sonli qarori qabul qilingandan so'ng mamlakatimizda chet tillarni o'qitishga, o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Yurtimizda chet tillarni o'qitilishida yangicha bosqich, yangucha davr boshlandi. Koreys tilidarslarining o'qitilishi jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, "Hozirgi paytda xorijiy tillarni

o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir". Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini" o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Koreys tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda.

Koreys tili fani to'rt aspectga (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innavatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy taxnologiyaning roli beqiyosdir.

Texnologik vositalardan foydalanish koreys tilio'rganishning har bir aspect (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi.

Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan: – kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin; – chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniadagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; – ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish; – CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda maktablarda interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi. O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zamirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avallo, o'qitishning bir usulidir.

O'quvchilar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali o'quvchiga ta'lim-tarbiya ham beradi. O'quvchi koreyscha o'yin o'ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi. Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni

qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Koreys tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir.


Bugungi kunda koreys tili o'qituvchilari Koreya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda: – “Muammoli vaziyat yechimi” (창의적인 문제 해결) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi; – “Quvnoq topishmoqlar” (메리 수수께끼) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish Koreys tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar; – “Tezkor javob” (빠른 답변) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi; – “Chigil yozdi” 워밍업 운동) o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish; – “Pantomima” (무언극) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi; – “Hikoya zanjiri” (연쇄 이야기) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda yordam beradi; – “Rolli o'yinlar” (연기하는 캐릭터) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin. Hunarga o'rgatish uchun "통역사", "번역가", "작가", "시인" kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib o'quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin; – “Allomalar yig'ini” (사상가 회의) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni “taklif qilish” mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so'zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo'lib tarbiyalanishiga yordam beradi; – “Rasmlar so'zlaganda” (사진이 말을 할 때) usuli ancha qulay bo'lib, koreys tilini o'rgatishda, talaba, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim; – Kviz kartochnalari

(퀴즈 카드) o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi. Ko'rib chiqqanimizdek, har bir innovatsion texnologiya o'ziga xos afzallik jihatlariga egadir. Bunday usullarning barchasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchining ta'lim jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda, Koreys tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi. Ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqshimiz bilan o'z xissamizni qo'shishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmuratova U. B. "Koreys tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil
2. Отабоева Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — с. 36–37
3. Xatamova Q., Mirzayeva M.N. "koreys tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar" (uslubiy qo'llanma), navoiy, 2006, 40 bet.
4. Xoldorova M., Fayziyeva N., f. Rixsittilayeva. "Chet tilini o'qitishda yordamchi vositalardan foydalanish". Toshkent: nizomiy nomidagi tdpu, 2005



**ЎЗБЕКИСТОНДА КАМБАҒАЛЛИКНИ ОЛДИНИ
ОЛИШНИНГ АМАЛИЁТДАГИ АХВОЛИ ВА УНИНГ
МАВЖУД ИМКОНИАТЛАРИ**

Мелибоева Сарвиноз Собиржон қизи

“Оила ва хотин-қизлар” илмий-тадқиқот институти” мустақил изланувчиси.

erkaboyeva60@bk.ru

+998911406769

Жураева Камола Ғайратовна

Қуқон Давлат Педагогика Институти Бошланғич Таълим юналиши 3 босқич
талабаси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6774403>

***Аннотация** Ушбу мақола оилавий хунармандчилик қадриятлари воситасида камбағалликни олдини олишнинг Ўзбекистондаги ахволи ва унинг мавжуд имкониятларига бағишланган бўлиб мақолада оилавий хунармандчиликка оид малака ва куникмаларни мувафаққиятли шакллантиришига таъсир этувчи омиллар, хотин-қизларни ҳамда ёшларни касб-хунарга ўргатиши орқали тадбиркорликка йўналтириши бўйича амалиё тавсиялар берилган.*

***Калим сўзлар:** камбағалликни олдини олиш, хотин-қизлар тадбиркорлиги, касбий педагогика, эжтиёжманд аҳоли қатлами*

***Аннотация** Данная статья посвящена ситуации предотвращения бедности в Узбекистане через ценности семейного ремесла и его существующие возможности.*

***Ключевые слова:** профилактика бедности, женское предпринимательство, профессиональная педагогика, малообеспеченные.*

***Annotation** This article is devoted to the situation of poverty prevention in Uzbekistan through the values of family crafts and its existing opportunities.*

***Keywords:** poverty prevention, women's entrepreneurship, professional pedagogy, the needy.*

Ўзбекистон республикасини ривожлантиришнинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган “Тараққиёт стратегияси” ҳамда давлат дастурларида белгиланган оилаларни муҳофаза қилиш, иш ўринлари сонини ошириш, янги

иш ўринларини яратиш, аҳолини камбағаллик ҳолатидан чиқариш каби вазифаларни ҳисобга олган ҳолда малакали ишчи кучига бўлган талаб ва таклифни мувозанатини вужудга келтириш заруриятга айланмоқда. Ёшларимизни касбга йўналтириш механизмини барпо этиш, касб-ҳунар таълими тизими моддий техник базасини яхшилаш, иқтисодиёт эҳтиёжларига кўра мослаштириш билан бир қаторда оилавий ҳунармандчиликни ривожлантиришнинг ҳам моддий техник имкониятларини ошириш, давлат томонидан субсидиялар ажратиш, маҳаллабай ишлаш жараёнида оилавий ҳунармандчилик билан шуғулланадиган оилалар томонидан амалга оширилаётган ишларни маҳалла миқёсида кенгайтириш лозим. Натижада ишсизлар ва иш излаётганлар таркибида ёшлар салмоғини кескин равишда пасайтиришга эришилади.

Мамлакатимизда камбағалликни қисқартириш устувор вазифа этиб белгиланди ва бу йўналишда кенг кўламли чора-тадбирларни амалга оширишни бошланди. Камбағалликни қисқартириш учун биринчи навбатда ишсизликни камайтириш, аввало, аҳолини замонавий касб-ҳунарларга ўқитиш, уларнинг иқтисодий ва молиявий саводхонлигини ошириш, одамларда, айниқса аёлларда тадбиркорликка иштиёқни уйғотиш зарур.

Ўзбекистон тараққиётининг бугунги босқичида “2021-2030 йилларда камбағалчиликни қисқартириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори лойиҳаси мамлакатимизда 2030 йилга бориб камбағаллик даражасини икки баробарга қисқартириш вазифасини қўйилиши илм-фан, технология, ишлаб чиқариш олдига муҳим вазифаларни қўймоқда [1]. Айниқса, республикаimizдаги камбағал аҳоли қатламини касб-ҳунарга ўргатиш масаласи педагогика фани олдидаги долзарб масалалардан ҳисобланади. Ушбу муаммо ечимини топишда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича “Ҳаракатлар стратегияси”да “Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни кенг ривожлантириш учун қулай ишбилармонлик муҳитини яратиш, меҳнатга лаёқатли аҳолининг меҳнат ва тадбиркорлик фаоллигини тўлиқ амалга ошириш учун шароит яратиш,

хусусий тадбиркорлик соҳасига жалб этиш” каби муҳим чора-тадбирлар белгилаб берилган. Шунингдек, “Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш” йили Давлат дастурининг 192-бандига мувофиқ, хотин-қизларнинг тадбиркорлик ва хунармандчилик фаолиятига кенг жалб этиш орқали ишсиз, бандлиги таъминланмаган, ижтимоий ҳимояга муҳтож хотин-қизларга касб-хунар ўргатиш орқали уларнинг бандлигини таъминлаш вазифалари қўйилмоқда [2]. Шундай экан, аҳолининг эҳтиёжманд қатлами вакиллари касб-хунарга йўналтириш, уларни касб-хунарга оид билим, малака ва кўникмалар билан қуроллантириш асосий вазифаларимиздан биридир. Агар харидорбоп маҳсулотни ишлаб чиқариш учун иқтисодий саводхонлик қоидаларига амал қилиш керак бўлса, унга оид кўникма ҳосил қилиш учун хунарманд, тадбиркор тегишли натижаларга эриштирувчи тўғри усулларни билиши лозим.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикасини 2022-2026 йилларда ривожлантиришнинг “Тараққиёт стратегияси” лойиҳасида [3] :

- Мамлакатда янги иш ўринлари яратиш, аҳоли даромадларини ошириш ва шу орқали 2026 йил якунига қадар камбағалликни камида 2 бараварга қисқартириш;
- Камбағалликни қисқартириш давлат дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш;
- Норасмий ишлаётган 2,5 миллион нафар фуқаронинг бандлигини легаллаштиришга ёрдам бериш орқали уларда ижтимоий кафолат ва имтиёزلардан тўлиқ фойдаланиш имкониятини яратиш;
- Аёллар орасидаги ишсизлик даражасини 2 марта камайтириш, 700 мингдан зиёд ишсиз хотин-қизларни давлат ҳисобидан касб-хунарга ўқитиш. Иш билан банд бўлмаган хотин-қизларни тадбиркорлик ва ўзини ўзи банд қилиш бўйича комплекс чора-тадбирларни амалга ошириш;
- Имконияти чекланган ва ногиронлиги бўлган шахсларнинг бандлигини 3 баравар ошириш;

- Касбга ўқитиш кўламини 2 баравар ошириб, жами 1 миллион нафар ишсиз фуқарони касб-ҳунарларга ўқитиш ва бу жараёнда нодавлат таълим муассасаларининг иштирокини 30 фоизга етказиш;
- Касбий таълим билан тизимли равишда шуғулланиш масалаларини тўлиқ равишда Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги ихтиёрига ўтказиш;
- Умумтаълим мактабларининг касб ўрганиш истагидаги битирувчиларини давлат томонидан камида бир касбни эгаллашига кўмаклашувчи тизимни жорий этиш каби фуқароларимизни янада яхши яшашларини таъминлашга хизмат қилувчи бир қатор вазифалар белгилаб берилмоқда.

Ёш авлодни замонавий техника ва ишлаб чиқариш технологияси, халқ хўжалигининг турли соҳалари бўйича янги билимлар, меҳнат малакалари ва касб кўникмалари, хўжаликни юритишнинг янги усуллари ҳамда ишбилармонлик асослари билан қуроллантириш таълим тизими олдида турган вазифалардан бири ҳисобланади. Бу вазифани амалга оширишда ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, мафкуравий тузумда рўй бераётган туб ўзгаришлар билан касб-ҳунар таълимининг илмий-услубий, педагогик, моддий-техникавий жиҳатдан замонавий таъминлашда, касб-ҳунар таълимини амалга оширишнинг анъанавий шакллари, йўллари, мазмуни, воситалари, услублари ўртасидаги зиддиятларни бартараф этиш лозим. Касб-ҳунар таълимини амалга оширишда узлуксиз таълимнинг бошқа бўғинлари билан узвийликни таъминлаш, унинг мақсади ва жамият олдида тутган вазифалари, методологик асослари билан тарихий ривожланиши, миллий маданияти, таълимга қўйилган жаҳон андозалари ўртасида ҳам зиддиятлар мавжуд. Касб-ҳунар таълимининг ўзига хос хусусиятлари билан ўқувчиларнинг назарий билимларни ўзлаштириши ва амалда қўллаш механизмнинг дидактик асосларини ишлаб чиқиш керак. Ҳунар ўғатадиган таълим муассасалари фаолияти мазмуни билан ижтимоий-иқтисодий ўзгаришларни ҳисобга олган ҳолда жамоатчилик, хусусий, шахсий, қўшма, давлат корхоналари, оилавий ҳунармандчилик

кадриятлари билан бу тизимни амалга оширишга боғлиқ ўзаро алоқ механизмининг тузилиши ўртасидаги зиддиятлар ечимини ҳам ҳал қилиш керак.

Зеро, хунармандчиликка оид малака ва кўникмаларни муваффақиятли шакллантиришда:

❖ фаолият мотивларининг мақсадга йўналтирилганлигига;

1. фаолиятга нисбатан қизиқишнинг устуворлигига;
2. хунар ўрганувчи шахснинг ёш ва индивидуал хусусиятларига;
3. малака ва кўникманинг мураккаблик даражасига;
4. мақсадга мувофиқ яратилган меҳнат қилиш шарт-шароитларига;
5. устоз томонидан қўлланилаётган усул, восита, ишни ташкил этиш шакллариининг натижадорлигига;
6. устоз ва шогирд ўртасида ўрнатилган ўзаро самимий муносабатнинг устуворлигига боғлиқдир.

“Хунармандчилик фаолияти – халқнинг тарихан қарор топган, махсус билимлар, кўникмалар, сир-асрорлар, услубларга асосланиб, қўл меҳнати, асбоб-ускуналар ва кичик механизация воситаларидан фойдаланиб, анъанавий ҳамда замон талабларидан келиб чиққан ҳолда маиший, уй-рўзғор буюмлар ишлаб чиқариш (хизмат кўрсатиш), тайёрлаш бўйича ижодий ёки профессионал фаолият” ҳисобланади. [4]

Кейинги йилларда пандемия билан боғлиқ қатор чекловлар натижасида аҳоли турмуш даражаси соҳасида вазият янада мураккаблашди. Турли мамлакатлар камбағаллик даражасини камайтириш учун турли моделларни қўллашмоқда. Мисол учун, Швеция давлати ишсизларни ўқитиш ва қайта тайёрлаб, талаб юқори бўлган соҳаларда ишлаш қобилиятини тиклаш орқали тўлиқ бандлик ва даромадлар тенгсизлигини камайтиришни таъминламоқда. Хитойда эса қишлоқ хўжалигини, шу жумладан, қишлоқ ҳудудларини ривожлантириш ва ер ислохотларига қаратилган кенг қўламли чора-тадбирлар амалга оширилиш орқали муаммоларни ечишга ҳаракат қилинмоқда.

Ўзбекистон шароитида ҳам ривожланган мамлакатлар тажрибасига таянган ҳолда камбағалликни қисқартиришга комплекс ёндашилмоқда. Натижада меҳнатга лаёқатли аҳолини имкон қадар иш билан таъминлаш ва бир вақтнинг ўзида муҳтож одамларни камбағаллик чегарасидан чиқаришга қаратилиб, давлат томонидан ижтимоий қўллаб қувватлашга эътибор берилмоқда. Кам таъминланганлар, имконияти чекланган фуқаролар, ижтимоий ҳимояга муҳтож оилалар, ёлғиз кексалар, доимий ишсиз фуқаролар, карантин тufайли ишсиз қолган фуқаролар, эпидемиологик жиҳатдан ночор худудлардан қайтган фуқароларга молиявий кўмак берилмоқда. Бу жараён маҳаллабай ишлаш тизими орқали “Темир дафтар”, “Аёллар дафтари”, “Ёшлар дафтари” каби муаммоларни ечимига қаратилган тадбирлар орқали амалга оширилмоқда. Сўнгги йилларда камбағалликни енгишга ҳисса қўшадиган бошқа соҳаларда ҳам салмоқли саъй-ҳаракатлар амалга оширилди. Уларга янги иш ўринлари яратиш ва тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш, қишлоқ жойлари ва қишлоқ хўжалигини ривожлантириш, қишлоқ жойларда инфратузилмани такомиллаштириш, соғлиқни сақлаш, касб-хунар таълими ва тарбиясини яхшилаш ҳамда иқтисодий миграция киради. Бу соҳаларда охириги йилларда амалга оширилаётган ижобий ўзгаришлар мамлакатимизнинг узок муддатли камбағалликни қисқартириш дастурининг муҳим қисми ҳисобланади.

Шу мақсадда камбағалликни олдини олишда оилавий ҳунармандчилик турлари воситасида аҳолини касбга йўналтириш бўйича дастурлар ишлаб чиқиш ҳамда бу жараёнда қуйидагиларни ҳисобга олиш лозим деб ҳисобладик:

биринчидан, миллий ҳунармандчилик маҳсулотларига бўлган талаб ва эҳтиёжларни ўрганиш;

иккинчидан, ҳунарманд тадбиркорлар фаолиятини йўлга қўйиш учун давлат томонидан яратиб берилаётган шарт-шароит, имтиёзлар ҳақида тушунчалар бериб бориш;

учинчидан, миллий ҳунармандчиликни эгаллашга иштиёқманд кам таъминланган ёшларни қизиқиши, мойиллиги ва қобилиятига асосланиб саралаб олиш;

тўртинчидан, маҳаллалар қошида миллий ҳунармандчиликка ўргатиш учун зарур ҳисобланган шароитларни яратиш;


бешинчидан, миллий ҳунармандчилик маҳсулотларини яратиш бўйича етарлича тажрибага эга, миллий маҳсулотлар бозорини яхши биладиган ҳунармандларни жараёнда иштироқини таъминлаш;

олтинчидан, эҳтиёжманд оила вакиллари миллий ҳунармандчиликка ўргатиш орқали иш жойига эга бўлишларига эришиш;

еттинчидан, миллий ҳунармандчиликка ўргатиш жараёнида инновацион технологияларни қўллаш орқали меҳнат самарадорлигига эришиш каби педагогик омиллар таъсирини инобатга олиш эҳтиёжманд аҳоли қатламининг моддий фаровонлигини оширишга ижобий таъсир кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистонда 2030 йилга бориб камбағаллик даражасини икки баробарига қисқартириш вазифасини қўйилмоқда. Kun.uz/2021. 2021 йил 04.03.2021.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида 22.01.2018 йилдаги ПФ-5308-сон Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ҳунармандчилик фаолияти тўғрисида” ги ПҚ-4539-сон Қарори. 28.11.2019.



FACTORS INFLUENCING THE SOCIALIZATION OF THE INDIVIDUAL

Ahmedova Umidakhon Kadirzhanovna ,

Andijan State University,
Chairwoman of the women's council of the university,
Senior Lecturer, Department of
General Technical Sciences and Labor education,
umida_akhmedova_uzb@mail.ru, +998916074200

Rakhmankulova Nargizakhon

Andijan State University,
Faculty of Physics and Mathematics Student
nargizarahmonqulov@gmail.com,
+998936927800

Abdumannapova Madinabonu Fazliddin qizi

Andijan State University Pedagogical Institute
Technological Education 1st year student
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6774411>

***Annotation:** A person is a member of a particular society, as a member of society he is in a different system of relations. A person cannot exist outside of society, without his influence. Therefore, the issues of the interdependence of the individual and society are important, topical issues. The set of people in a society depends on the nature of the interactions that occur between these people, the content of the complex social partnership activities they carry out. As long as everyone lives in a society, he strives to have a special place and an independent position in it. He exemplifies aspiration, talent and activism.*

***Keywords:** sociality, individuality, object, activity, adaptation, individuality, integration.*

The product of interpersonal-social and interpersonal relations is the individual, who is the subject of conscious activity. The most important of the qualities pertaining to a person is that he perceives these external, social influences with his consciousness and perception (object) and then acts as a subject of these influences. A person's social behavior is influenced by various external forces, a set of social relations: political, ideological, economic, spiritual, moral and others. The individual is influenced by different systems of social relations, and many social institutions are associated with the family, neighborhood, art, culture, etc. These

influences essentially determine certain specific areas of interaction between individuals who are actually members of society.

[1.As a member of society, various relationships are influenced, first of all, in the sphere of relations arising in the process of production and consumption of material wealth. The psychology of the individual depends on whether his freedom is oppressive, whether he has political rights, whether he discusses social issues, or whether he is an executor of the will of the ruling class. The person is also under the influence of ideological relationships. The system of ideas about society shapes the psychology of the individual, his worldview, social institutions. The main reason why a person is called a product of social relations is that he is always in the circle of people, in the sphere of interaction that they know. This indicates that one of the most leading and influential activities of an individual is communication. In the process of communication, people interact with each other. And as a result, from the point of view of society, people, personal qualities, psychology is established in the establishment and in other relations in general. The wider a person's sphere of communication, the more diverse his connection with different spheres of life, and the deeper a person can penetrate the world of social relations, the richer his spiritual world will be.] A person's position is a system of his or her relationships. The mental characteristics of a person determine a person's social experience, his social institutions.

The process of a person's development should not be seen as the development of the emotional and volitional cognitive processes that characterize a person's individuality. A person develops in a group, that is, under the influence of interactions and communication established in that group. Hence, group development is manifested as a factor in the development of the individual in the group. An individual's specific need, that is, individual characteristics, satisfies the need to be a person and allows him to perform various tasks. Group communities with this level of development are of great importance.

[2.The development of the individual can be thought of as joining a new social environment and uniting with it. The stability of this environment can vary.

Conditionally, this environment is assumed to be constantly evolving (e.g., first grade of school, production crew, each part, etc.) In a relatively stable environment, a person's development goes through 3 stages. These are the stages of adaptation, individualization and integration. Individuality - the distinctive social characteristics and psyche of the individual and its irreversibility. Adaptation - as a result of adaptation of the sensory organs to the driving force, a certain sensitivity may increase or decrease. Sensitivity to strong influences to weak influences gradually increases. As the effect increases, the sensitivity gradually decreases. Integration - a concept that describes the state of interdependence of individual parts and functions of the body and the process that leads to such a state.] The process of development of the person should not be considered as the development of emotional and volitional cognitive processes characterizing the individuality of the person. A person develops in a group, that is, under the influence of interactions and communication established in that group. Man is active by nature. The structure of human activity includes a variety of involuntary, automated characters (facial expressions, pantomime, gestures, etc.), as well as imaginary movements with a high degree of complexity. It is said that it is a known habit to perform actions that are necessary for a person to perform under certain conditions. Even the most ephemeral portrait cannot give a complete picture of a person's character from his usual actions and movements. When a character affects a person's appearance, he finds a free expression in his actions, behavior, and activities. Character is first of all freely expressed in people's actions, attitudes and activities. Character is first of all freely expressed in people's behavior, attitudes and activities. Character must first be judged on the basis of human behavior. Their essence is more fully reflected in these actions.

[3.The spiritual world of man is made up of a continuous set of actions, one directly requiring the other, and they rule in a system of continuous chains. In the same way the person is in the psyche impressions of the external environment, memories of the past, creative thoughts about the future, good intentions, desires, goals and aspirations, reflections, thoughts and problems, emotional experiences,

volitional qualities are constantly intertwined. In exchange for rin replacement, a solid foundation is laid for the ontogenetic world.]

The course of the spiritual world, its speed, content, form, scope, feature, character, the quality, the mechanism is different, it is observed in each person in different ways. This is probably why people respond differently to natural phenomena, social life events, factors, and influences. while creating an emotional environment that encourages the maturity of each individual and the high work capacity of the whole team, it is important to start by regulating the relationships between group members and the values that prevail in them. Your relationship with the teaching staff is formal and informal structures are highlighted. Here, both structures are considered only from the point of view of the individual in the community. The formal structure of a relationship is a system of situations (positions) given by society from the outside that the community must function. In the system of informal interpersonal relationships, the circumstances are determined by the uniqueness of each student and the characteristics of that class. Even in elementary school, your child should be in a certain, engaging position in the classroom, such as a leader, the best student, the best athlete, and so on. aspiration is observed. Social status is a two-dimensional measure: an individual's social behavior and characterized by the social hope of those around you. Social behavior is real behavior that allows a person to decide for himself in any role. Social expectations are the attitude of those around you towards this person. If someone makes a decision in this situation, it is as if those around them are "tied" to it. As students progress into high school, they not only become more aware of their social status, but also often seek to change their beliefs. Granted, social expectations are a barrier will give. Spending time 'smir' as social expectations are stable it will be difficult for the student to change the situation, the help of an educator is needed here. Since man is a social being, he has the ability to understand himself.[4. Only in social life, in all kinds of relationships with other people, does a person realize that he is "I" knowledge arises and develops. A person's self-awareness includes who he or she is as an individual, his or her past and future, his or her rights and duties,


and finally his or her own strengths and weaknesses. the force that influences is the growth and change of social factors, or in other words, the productive forces of society as well as the relations of production. In addition, another powerful factor influencing the composition of the human personality is man-made is that your experience is passed on to children through the means of upbringing.] The role of the external, social environment and upbringing in the mental development of a person and in the formation of personal qualities is of paramount importance. However, the composition of the human personality, as mentioned above, depends not only on these two factors, but also on a third factor. This factor is hereditary, some anatomical and biological is the effect of your character. Humans are inherited some anatomical and biological features. For example, body composition, hair and eye color, voice, speech patterns, and certain movements can be innate. However, it should never be forgotten that a person is never inherited the qualities that are related to his mental qualities, that is, his mental aspects. Finally, in rare cases, certain skills, such as music and math, can be inherited. There must be certain conditions for such opportunities to be realized.

References: 1. George Gurdjieff. Meeting wonderful people. ISBN: 978-5-386-08815-6 2015.-45s.

2. Elkonin DB Psychology of human development. - M .: Aspect Press, 2001 .-- 460 p.

3. Savelyeva N. Handbook of a teacher-psychologist of a children's educational institution - Rostov ND: Phoenix, 2005 38-p

4. E. Seguin. Education of hygiene and legal treatment of mentally abnormal children. - M .: <http://www.alib.ru/au-segen/>



TURIM BOZORIDA LOGISTIKANING TUTGAN O'RNI VA FUNKTSIYALARI

Turdiyeva Umidaxon O'rol qizi

Termiz Davlat Universiteti

Iqtisodiyot va turizm fakulteti

Turizm yo'nalishi 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6774427>

***Annotatsiya:** Logistika - bu tashqi va ichki bo'lishi mumkin bo'lgan keng va diversifikatsiyalangan biznes sohasi va shuning uchun u deyarli barcha kompaniyalar faoliyatiga kiritilgan. Maqolada turizm bozori logistika nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi, u moddiy va axborot oqimlarini boshqarishni doimiy ravishda optimallashtirishga, ushbu oqimlarning har qanday o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Ko'pchilik logistika faqat tovarlarni tashishni o'z ichiga oladi, deb o'ylaydi, ammo xizmat ko'rsatish kabi iqtisodiyotning muhim sohasi e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Ma'lumki, xizmatlar ko'lami yuqori rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning 60-80% ga etadi. Binobarin, biz logistikaning xizmat ko'rsatish sohasini past baholay olmaymiz. Xizmatlar ro'yxati ancha uzun bo'lgani uchun turizm xizmati logistikasini o'rganish uchun ob'ektiv sabablar mavjud.*

***Kalit so'zlar:** Logistika, xizmat ko'rsatish sohasi, transport vositalari, turizm bozori, ta'minot zanjiri, iste'molchilarning ehtiyojlari, turizm logistikasi, tovarlar, xizmatlar va tegishli ma'lumotlar oqimi, xalqaro xizmat ko'rsatish bozori, turistik mahsulot oqimi, xizmatlar bozorini boshqarish, ta'minot logistikasi, ishlab chiqarish va marketing logistikasi.*

Turizm ko'p qirrali rivojlangan iqtisodiyot tarmog'i bo'lib, muayyan mamlakatlar iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi. Turizm, masalan, transport vositalari va yo'l qurilishini rivojlantirishga, mamlakatlar o'rtasida odamlar almashinuviga va yangi ish o'rinlarini yaratishga yordam beradi. Zamonaviy dunyoda boshqa mamlakatlarga sayohatlar, ham shaxsiy sayohatlar, ham biznes sayohatlari odamlar hayotining muhim qismini egallaydi. Shunday qilib, turizm bozori jadal rivojlanmoqda.

Logistika va ta'minot zanjiri haqidagi adabiyotlarda xizmat ko'rsatish sohasiga qaraganda ishlab chiqarish sanoatiga ko'proq e'tibor qaratilgan. Turizm ham bundan mustasno emas: ushbu sohada logistikani qo'llash e'tibordan chetda qolmoqda va sanoatning jadal rivojlanishiga qaramay, vaziyat o'zgarmaydi.

Shunday qilib, logistikaning turizmdagi roli va qo'llanilishini tahlil qilish uchun turizm logistikasi tushunchasini aniqlash kerak. Logistika va turizmni alohida boshlash maqsadga muvofiqdir. Logistika – bu iste'molchilar ehtiyoji va talablarini qondirish uchun etkazib beruvchilarning kelib chiqish joyidan boshlab iste'mol qilish va xizmatdan keyingi xizmat ko'rsatish nuqtasiga qadar tovarlar, xizmatlar va tegishli ma'lumotlar oqimini o'rganadigan fan.

Turizmni ochib berib, uni turli jihatlardan ko'rib chiqish mumkin. Avvalo, turizm turli xil faoliyat turlarini, millionlab odamlarni va ulkan pul mablag'larini o'z ichiga olgan iqtisodiyot tarmog'idir. Ikkinchidan, turizm - bu xalqaro xizmat ko'rsatish bozori bo'lib, unda ishlab chiqaruvchi va sotuvchi turistik xizmatni xaridor yoki xizmatning iste'molchisi rolini o'z zimmasiga olgan turistga sotadigan turistik agentlikdir.

Shunday qilib, turizm logistikasi ma'lum bir turistik resursni sotish va turistik oqimga asoslangan turistik mahsulot oqimini o'rganadigan fandır. Asosiy maqsad an'anaviy bo'lib, turistlarning ehtiyojlarini qondirishni anglatadi. Logistikani ta'minot zanjiri kontseptsiyasidan ajratilgan holda muhokama qilib bo'lmaydi. Ta'minot zanjiri - bu mijozlar uchun tovarlarni etkazib berish uchun yaratilgan tashkilot, etkazib beruvchilar va mijozlar tarmog'i bo'lganligi sababli, turizm ta'minot zanjiri (TTZ) turistik mahsulotlarning turli tarkibiy qismlarini etkazib beradigan turizm tashkilotlari o'rtasidagi biznes jarayonlarining integratsiyasi sifatida belgilanishi mumkin. ma'lum bir turistik yo'nalishda yakuniy turistik xizmatdan foydalanishga olib keladi.

Turistik ta'minot zanjiri mahsulotning tabiati va uning taqsimlanishi tufayli murakkab tushunchadir. Turistik mahsulot o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, xizmat ko'rsatish sifatida ishlab chiqarish tovarlaridan farq qiladi. Avvalo, turistik xizmat transport, joylashtirish, ko'ngilochar joylar, diqqatga sazovor joylar, xarid

qilish, ovqatlanish, sog'liqni saqlash va xavfsizlik masalalari va boshqa ob'ektlar va xizmatlar kabi ko'plab tarkibiy qismlardan iborat murakkab mahsulotdir.

Ikkinchidan, etkazib berish jarayoni boshqacha. Tovarlar xaridor ularni sotib olishi mumkin bo'lgan do'konga yoki to'g'ridan-to'g'ri mijozga etkazib beriladi. Turistik xizmatlarda turist birinchi navbatda turistik mahsulotni iste'mol qilishi mumkin bo'lgan ma'lum bir yo'nalishga etkazilishi kerak. (1-rasm).



Uchinchidan, bu yaroqlilik muddati tez va bir martalik mahsulot, ya'ni uni bir martadan ortiq ishlatish uchun saqlash mumkin emas.

To'rtinchi nuqta - mahsulotni tavsiflash axborotga bog'liq. Chunki xaridor mahsulotning xususiyatlarini tekshira olmaydi u sinab ko'rmaguncha, reklama, boshqa mijozlarning fikr-mulohazalari va mahsulot taqdimotining boshqa manbalari va u haqidagi ma'lumotlar katta rol o'ynaydi.

Oxirgi xususiyatlar turistik mahsulotning dinamikasi va o'zgaruvchanligidir, chunki uning tarkibiy qismlari mavsum va iqlim, mashhurlik, iqtisodiy va siyosiy vaziyat kabi omillarga qarab o'zgaruvchan va juda o'zgaruvchan.

Ta'minot zanjiridagi asosiy shaxs - bu talabni keltirib chiqaradigan va ta'minot zanjiri samarali boshqaruvi ehtiyojlarini qondirishga harakat qiladigan mijoz yani turist. Turist o'z ta'tilini sayohatda o'tkazish uchun sayohat agentligiga yoki bevosita turoperatorga murojaat qilishi mumkin, ular birlashtirilgan yoki alohida biznes

institutlari bo'lishi mumkin. Bu holda turistik agent turist va turoperator o'rtasida turistik mahsulotning chakana sotuvchisi rolini o'ynaydi. Turoperatorning vazifasi turli xil sayohat xizmatlarini sotib olish va ulardan dam olish paketlarini shakllantirishdan iborat bo'lib, ular sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish doirasida turistlarga belgilangan manzildagi xizmatlar va mahsulotlar haqida maslahat berishlari mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganidek, turistik xizmat murakkab mahsulot bo'lib, shuning uchun bitta sayohat uchun tur paketini yig'ish uchun operator juda ko'p etkazib beruvchilarni o'z ichiga oladi. Dam olish paketi turar joy, transport va ekskursiyalar kabi ko'plab komponentlarni, shuningdek, restoranlar, barlar, savdo majmualari va esdalik do'konlari, favqulodda vaziyatlarda kasalxonalarini o'z ichiga oladi. Bularning barchasi bilan bog'liq holda, turoperator aviakompaniyalar, mehmonxona operatorlari va transfer operatorlari kabi birinchi darajali etkazib beruvchilar bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishadi. To'g'ridan-to'g'ri etkazib beruvchilar, o'z navbatida, o'zlarining biznes ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlar ko'rsatadigan ikkinchi darajali etkazib beruvchilar bilan shartnoma tuzadilar, masalan: aviakompaniyalar, oziq-ovqat mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish. Ko'plab tashkilotlar ishtirok etganligi sababli, axborot almashinuvi ta'minot zanjiri samarali ishlashida muhim rol o'ynaydi


Turistik logistika tuzilmasi uning tarkibiy qismini, mintaqaviy va funksional doirasini qamrab oladi. Turistik mahsulotning murakkabligi tarkibiy tuzilmaga ta'sir qiladi, unga quyidagilar kiradi:

- 1) rekreatsiya va turizm resurslari logistikasi (turizmning resurs bazasi);
- 2) turistlarni joylashtirish (mehmonxona sanoati) va oziq-ovqat (restoran biznesi) logistika sohalari;
- 3) axborot infratuzilmasi (turizmdagi axborot logistikasi);
- 4) transport infratuzilmasi logistikasi;
- 5) ekskursiya xizmatining moddiy-texnik ta'minoti;
- 6) turizmda tegishli xizmatlarning logistikasi;
- 7) turizm mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish logistikasi.

Funksional turizm logistika tuzilmasi an'anaviy komponentlarni o'z ichiga oladi: ta'minot logistikasi, ishlab chiqarish va marketing logistikasi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sarkar P.K., Maitri V., Joshi G.J., 2015. 'Transportni rejalashtirish: tamoyillar, amaliyotlar, siyosatlar'. PHI Learning Private Limited. Dehli;
2. Sinclair M. T., Stabler M., 2002. 'Turizmdagi yutuqlar: Turizm iqtisodiyoti'. London, AQSh: Routledge;
3. Shahrin N., Puad. A., boshqalar, 2014. 'Sayyohlik manziliga uzoq sayohati: sharh hujjati'. SHS Web of Conferences12;
4. Škapa R., 2014. teskari logistika barqaror vosita sifatida 'Turizm sanoati: qamrov va motivatsiya'. Evropa turizm, mehmondo'stlik va dam olish jurnali. 5-jild, 1-son, 135-155-betlar. 2014 yil, Leyriya politexnika instituti, Portugaliya.



**AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TASVIRIY SAN'ATI
VA MINIATYURA MAKTABLARINING RIVOJLANISHI.**

To'raboyeva Farangiz Shermuhammad qizi
Termiz davlat universiteti tarix fakulteti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6792375>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar davridagi tasviriy san'at va miniatyura maktablarining paydo bo'lishi, rivojlanishi va ommalashuvi haqida bir qator tahliliy mulohazali fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur va Temuriylar, Mir Ali Tabriziy, Kamoliddin Behzod, tasviriy san'at, miniatyura, syujet, portret.

Amir Temur davrida ham miniatyura bilan bezatilgan qo'lyozmalarni tor doiradagi zodagonlar sevib mutolaa qilishgan. Tarixda o'chmas iz qoldirgan buyuk shaxs, ulkan bunyodkor, yirik davlat arbobi, mohir sarkarda, ilm-fan va madaniyat homiysi bo'lmish Amir Temur davri butun bir tarix zarvaraqlarida eng gullagan davr hisoblanadi. U o'zidan kelajak avlodga bitmas-tuganmas me'ros qoldirdi. Qayerni zabt etmasin, ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdi. Masalan uning davrida Samarqand, Kesh, SHosh kabi shaxarlarimizda osmono'par binolar qad ko'tardi, bir qancha bog'u-rog'lar bunyod etdi. Uning davrida me'morchilik, amaliy san'at, devoriy surat, qo'lyozma san'ati, miniatyura va boshqa ko'pgina san'at turlari keng rivojlangan²⁴.

Amir Temur va Temuriylar davri o'zining devoriy suratlari va miniatyuralari bilan tanilgan bo'lib, o'zini islomgacha bulgan ildizi va an'anasiga ega. Qo'lyozma kitobidagi miniatyura tasvirlari-devoriy suratdan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

²⁴ Ashrapova I. Kamoliddin Behzod. –Toshkent., 1982. – B. 65.

Shuning uchun Temur va Temuriylar davri qo‘lyozma miniatyuralariga o‘tishdan avval devoriy sur‘atlarga murojat qilamiz.

Ilk devoriy surat fragmentlari ilk antik shaxarchalarida ochilgan. (Tuproq qal‘a saroyi, I-II asrlardagi Xolchayonda, Dalvarzintepadagi yashash uylari ibodatxonalarda, O‘zbekistonning janubidagi monastirlarda, Qadimgi Baqtriya erlarida topilgan). Shuningdek, ilk O‘rta asr shaxarchalari Panjikent, Varaxsha, Afrosiyob, SHaxriston devorlarida yuzlab madaniy va turar joylari VI-VIII asrlarda ko‘pgina syujetli tasvirlari Markaziy Osiyoda tasvir san‘atning chuqur an‘analari bo‘lganligidan guvohlik beradi.

Syujetlar tematikasining turlicligi va boyligi katta hayrat tug‘diradi. Unda xalqning ertak-folklor, matal, epik, mifologik boy dunyosi ijodning nozik nafis san‘ati boy bo‘lganligida dalolat beradi .

Islomgacha bo‘lgan devoriy saratlarning ishlangan syujetlari keyinchalik o‘z aksini kitob miniatyurasida topdi. Bular mukammal ishlangan; mayxo‘rlikka bilimdonlar tashrifi, jang va ritsarlar, boy karvonlar, to‘y saxnalari, ko‘mish marosimlari, ov qushlari va itlari qatnashgan ov mavzusi, narda o‘yini va arfa, lyutna nay musiqachilarinig qatnashuvi sahnalaridir. O‘sha davr devoriy suratlarida maxluqlar (ajdar, yalmog‘iz) bilan bo‘lgan qaxramonona jang sahnalari ifoda etilgan. Iloh yoki erlik hukmdorning timsollari sahnada markaziy o‘rinni egallagan. Bir qator an‘anaviy sxemalar ishlab chiqilgan. Unda turli detallar ifodalangan holda moslashtirilgan.

Ko‘p topilgan qo‘llanmalar, sxemalar, uslubiy chizgilar, kompozitsiyalar bir necha asrlardan so‘ng kitob miniatyurasiga kirib keldi. Antik davrning maxobatli devoriy suratlari va ilk o‘rta asr kitob miniatyurasi orasidagi vaqt davomida amaliy san‘at buyumlarida qisman tasviriy motivlar qo‘llanilgan.

X-XII asrlarda O‘rta Sharq islomni qat‘iy qabul qilish davrida devoriy surat tematikasi hali butunlay esdan chiqmagan bo‘lgan. Ayniqsa, saroy hayotida, lekin

interer devorlarining syujetli kartinalari oʻrni ornametal va epigrafik bezaklar bilan yopilib, qatʼiylik yoki koʻprangli dabdabani koʻrsatgan²⁵.

Amir Temur meʼmoriy inshootlarning asosiy buyurtmachisi boʻlgan. Ibn Arabshox, Yazdiy, Boburning Hirot saroyida Bogʻi-SHamol, Dilkusho kabi Samarqand saroyini devoriy suratlarini oʻziga xos ajoyibligini katta hayajon bilan aytib oʻtganlar. Bu inshootlarda tashriflar-majlislar, sohibqironning kulib turgan yoki suronli portretlari, uning oʻgʻillari, nabiralari, yurishlari va shaharni, qalʼalarni qamal qilishlar, xukumdorning tantavor bayramlari, ovlar, malikalar ishtirokidagi sahnalar tasvirlangan.

Amir Temur fikricha, mahobatli rang tasvir oʻzida mujassamlagan turli xil janrlari: portret, batal, saroy hayoti, oʻziga hos voqeʼlikni tasvirlashi kerak boʻlgan. Hukumdor boshqaruvi davridagi asosiy rassom ustalar Pir Ahmad Bogʻi SHamoliy boʻlib, Bogʻi Shamol saroyi devoriy suratlarini yaratgan boʻlishi ham mumkin. Shirin beka ogʻo, Bibi xonim, Tuman ogʻo maqbaralarida ham peyzaj tasvirlaridan qoldiqlar saqlanib qolgan. Kompozitsiyasi boʻyicha u vertikal panno qilib ishlangan.

Qoʻlyozma kitoblaridagi miniatyura tasvirlari devoriy suratdan keyingi oʻrinda turadi. Bilimga, kitobga mehri baland boʻlgan Temur tinmay turli mamlakatlardan qoʻlyozma kitoblarni olib kelgan, buyurtma qildirgan. Shunday boy, afsonaviy kutubxona tashkil etgan. Yazdiyning bergan maʼlumotlariga qaraganda Amir Temurning muhim kunstkamera-noyob buyumlar saqlanadigan joyi boʻlgan. Unda Arjang Manining mashhur albomidagi haqiqiy original suratlari boʻlgan. Bu suratda qadimgi Manixey tasviri oʻrin olgan boʻlib, XV asr Samarqand rassomlari tanishishi mumkin boʻlgan. Oʻrta Sharqda “Arjang” tasvirlari tasviriy sanʼatning buyuk timsoli hisoblangan.

²⁵ Norqulov N., Nizomiddinov I. Miniatyura tarixidan lavhalar. –Toshkent: Gʻafur Gʻulom, 1970. – B. 25.

Amir Temur hukumronligi davrida kitob illyustratsiyasi san'ati uzoq davlatlargacha cho'zilgan. XIV asr oxiri XV asr boshlarida Samarqand, Xirot, Bag'dod, Sheroz, Tabriz, Yazdiy kabi shaharlarda rassomlik markazlari bo'lgan.

Temuriylar davri O'rta Osiyoning iqtisodiy-ijtimoiy hayoti, madaniyati, ilm-fani, adabiyoti, san'ati taraqqiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'ldi. Samarqandda yashab ijod etgan Rumi, Mirzo Ulug'bek, J.Koshiy va Ali Qushchilarning astronomiya fani taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini butun dunyo tan oldi. Jahonga mashhur tarixchilardan – Nizomiddin Shomiy, Sh.A.Yazdiy, A.Samarqandiy, Hofizi Abro', Muhammad Mirxond kabi olimlarning asarlari hali xamon mutaxassislar uchun mo'tabar manba, tunganmas xazinadir. Badiiy adabiyot sohasidagi Sakkokiy, Lutfiy, A.Jomiy, A.Navoiy, X.V.Koshifiylarning asarlari esa hozirgi kungacha yuksak mahorat mahsul bo'lib hisoblanadi²⁶.

O'sha davr boshida Mir Ali Tabriziy tomonidan yaratilgan eng go'zal nastaliq yozuvi etakchi o'rinni egallab, bu yozuvni puxta egallagan Jafar va Azhar Boysunquriy, Abdurahim Xorazmiy, S.A.Mashhadiy, M.A.Heraviy kabi xattotlar, Ustod Abdulxay, Mansur, G'iyosiddin Naqqosh, Pir Ahmad Bog'ishamoliy, Mirak Naqqosh, Shoh Muzaffar, Qosim Ali Chehrakusho, Yuriy Muzahhib, Jamoliddin Yusuf kabi miniatyurasozlar o'z sohalarida ustod san'atkorlar bo'lib, Samarqand va Hirot maktablarining shuhratini dunyoga tanitganlar²⁷.

Ulug'bek hukumronligi davrida qiziqarli illyustratsiyalangan qo'lyozmalar vujudga kelgan. Ular orasida bizgacha etib kelganlari :

-Abduraxmon So'fiyning astronomik traktati "Suvar al-kavakib as-Sabita" (Parij, Milliy kutubxonasi);

- Ulug'bekning burgut oviga bo'lgan sayohati bilan bog'liq alohida miniatyura qo'lyozmasi. Yuqorida-karkasli ayvonda tasvirlanuvchining nomi

²⁶Oyidinov N. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. –Toshkent: O'qituvchi, 1997. – B. 15

²⁷ Usmonov O. Kamoliddin Bexzod. –Toshkent., 2000. –B. 46.

ko'rsatib o'tilgan. "Ulug' sulton, Ulug'bek Ko'ragon, uning boshqaruvini ollox o'zi qo'llasin" deya bitilgan (Topkapi Saroy, Istanbul). - Nizomiyning "Hamsa"si va unga ishlangan XVIIIta miniatyura (Topkapi Saroy, Istanbul, N-786).

Miniatyura tasviridagi ajoyib tarixiy noyob xujjatlar qatorida xukumdor Ulug'bek va uning oilasini burgut ovida tasvirlanishidir. Miniatyurada etiketlilik hukum suradi. Bu miniatyura ko'rinishidan diptix bo'lishi mumkin, lekin uning chap qismi saqlanib qolinmagan. Nizomiyning "Hamsa" sini o'rganib chiqqan olimlar uni aynan Ulug'bek Ko'ragon davriga tegishliligini asrdagi medalonidan bildirganlar. Unga ishlangan miniatyurani sinchiklab ko'rganlarida miniatyuralardan 14 tasi Sulton aliga, qolgan 14 tasi esa nomalum rassomga tegishli bo'lib chiqdi.

1420 yildan boshlab Xirot rassomlik markazi oldinga chiqq boshladi. Navoiy o'zining "Majolis un-nafois" asarida Boysung'urning davrini yoritadi: "Uning mehribonchiligidan shunchalik ko' xattotlar, rassomlar, musiqachilar va qo'shiqchilar ko'payib ketdiki, boshqa xukumdor davrida shuncha bo'lganmikan, aniqmas".

Temuriylar miniatyurasining gullagan davri Hirotida bu sulolaning so'nggi hukumdori Sulton Husayn Boyqaro vaqtida(1469-1506yy) amalga oshadi, shuningdek uning vaziri buyuk shoir, davlat arbobi Alisher Navoiyning ham hissasi katta bo'lgan. U iste'dodli san'at shnavandalarini-rassomlar, musiqachilar, qo'shiqchilar, xattotlarning homiysi bo'lgan. Z.M.Boburning yozishicha: "Sulton Husayn Mirzo davri bu eng yaxshi vaqt bo'lgan. Xuroson ayniqsa Hirot uning hukumdorligi vaqtida olimlar va bir qancha allomalar bilan to'la bo'lgan. Har bir inson biror-bir hunar bilan shug'ullangan, ularning mana shu ishni tugallab, maromiga etkazish kerak degan maqsadi va hoxishlari bo'lgan"²⁸.


Temuriylar davlatidagi barcha miniatyura maktablarining tematikaga umumg'oyaviy yo'nalishi ikki voqeaga tarixan mos tushgan. Ular Amir Temurning jahon sahnasiga chiqishi va islom dunyosida sufizm targ'iboti singari komil insonni

²⁸ Амир Тему́р в мировой истории. –S. 168.

tarbiyalash yo'lini izlashda muhim shakllanishning tugashi bilan bog'liq. Temuriylar davri boshidan ko'p falokatlarni o'tkazganki, nihoyat davlatni barpo etishda eng aktual masala bu hayotni barcha ijtimoiy tomonlarini ham hisobga olgan holda sufizm g'oyalari bilan yonma-yon turib, islom an'analariga rioya qilish bo'lgan.

Adabiyotlar

1. Ashrapova I. Kamoliddin Behzod. –Toshkent., 1982. – B. 65.
2. Meligaliyevich Q. A. NEW UZBEKISTAN IN A NEW NEIGHBORHOOD RELATIONS WITH THE COUNTRIES OF CENTRAL ASIA //Eurasian Journal of Academic Research. – 2021. – T. 1. – №. 6. – C. 12-19.
3. Norqulov N., Nizomiddinov I. Miniatyura tarixidan lavhalar. –Toshkent: G'afur G'ulom, 1970. – B. 25.
4. Oydinov N. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. –Toshkent: O'qituvchi, 1997. – B. 15
5. Usmonov O. Kamoliddin Behzod. –Toshkent., 2000. –B. 46.
6. Амир Тему́р в мировой истории. –S. 168.



SALAT BARGI VA UNING KASALLIKLARGA CHIDAMLILIGI

Urganch Davlat Universiteti Bioinjeneriya va oziq-ovqat xavfsizligi fakulteti

**Sharipova Maftuna Yunusbek qizi,
Farxodova Surayyo Nizomiddin qizi,
Xaitboyeva Go'zal Soburovna**

maftunasharipova2001@gmail.com +998997720407

surayyofarxodova@gmail.com +998905583735

haitbaevagozal@gmail.com +998976001343

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6798831>

Annotatsiya : Salat bargi, suvga bo'lgan talabi, yig'ish tartibi, kasalliklarga chidamliligi.

Kalit so'zlari : Salat bargi, uni yig'ishtirish tartibi, suvga talabchanligi , chidamliligi.

Annotation: Lettuce leaf, demand for water, collection procedure, yield.

Keywords: Lettuce leaf, the order of its collection, water requirements, collection.

Реферат: Листья салата, потребность в воде, способ сбора, устойчивость к болезням.

Ключевые слова: салат, способы его сбора, потребность в воде, долговечность.

Salat bargining suvga bo'lgan talablari

Salat bargining chuqur ildizlarni rivojlantirish shart emas. Aslida, bizga ildiz o'sishdan ko'ra salat barglarning o'sishi muhim. Salat bargining Marul navini sug'orish yengil, tez-tez va izchil bo'lishi kerak. Maqsad shunchaki tuproq namligini saqlashdir. Tez-tez sug'orishdan saqlanish kerak. Chunki ortiqcha sug'orish ildizlarning chirishiga, kasalliklarga va o'sishning sekinlashishiga olib keladi.

Kasallik va zararkunandalardan himoya qilish

Shira salat barglarini osongina yo'q qiladi. Oziq moddalar va suv so'rilishi natijasida barglar jingalak bo'lib, quriydi. Shira ham kasallik tarqatadi va mog'or bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi. Siz bu oq zararkunandalarni marul


barglarining pastki qismida yashiringan holda topasiz. Shira bilan kurashish uchun tizimli insektitsid yo'q, shuning uchun sizning eng yaxshi usul xon qizi qo'ng'izlari kabi tabiiy yirtqichlarni jalb qilish yoki bog'dorchilik sovunini yoki neem yog'ini qo'llashdir. Salyangozlar, shilimshiqlar va tirtillar ham Marul bargini yaxshi ko'radilar. Insektitsidlar bir usul, ammo tuzoqlar, organik o'lja va qo'lda yig'ish bu keng tarqalgan zararkunandalarga organik echimlar beradi. Agar salat bargi jigarrang va jingalak bo'lib ketayotganini sezsangiz, u yonish deb ataladigan fiziologik holatda bo'lishi mumkin. Namlik barqaror bo'lmaganda ko'pincha marulda tipburn paydo bo'ladi. Buning yechimi qizarib ketgan marul barglarini kesib olish va doimiy sug'orish jadvalini boshlash talab etiladi.

Salat bargini qanday yig'ib olish kerak

Marul bargini ekishdan keyin 30 dan 70 kungacha yig'ib olish kerak. Marulni qachon yig'ish kerakligi xilma-xilligiga va u nima uchun ishlatilishiga bog'liq. Darhaqiqat, vaqt shaxsiy imtiyozlarga asoslanadi. Sizning salat bargingiz siz xohlagan hajmga yetganda, uni yig'ib olishingiz mumkin bo'ladi. Ertalab marul bargini yig'ib olish natijasida uning ta'mi yaxshilanadi. Aslida salat bargini yig'ish juda oson. Siz butun to'plamni kesib olishingiz mumkin yoki bir vaqtning o'zida bir nechta barglarni olib tashlashingiz mumkin. Salat bargining Romaine, sariyog 'boshi va boshqa navlari yerga yaqin joyda osongina kesiladi. Agar biz salat bargining boshqa navini yig'ib olsak, qolgan hali yaxshi pishib ulgurmagan salat barglari o'sishni davom ettirish uchun joy hosil qilgan bo'lamiz .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sheraliyev A.Sh., Umumiy va qishloq xo'jalik fitopatologiyasi, (Darslik). Talqin" nashryoti. Toshkent, 2004.
2. Xolmurodov E.A. va boshqalar. Qishlok xo'jalik fitopatologiyasi.(Darslik) "Navro'z" nashryoti. -Toshkent, 2014.
3. Sattarova R.K., Xolmurodov E.A., Xakimova N.T.,Allayarov A.N. Umumiy fitopatologiya. (Darslik) "Navro'z" nashryoti. -Toshkent, 2017.
4. George N.Agrios. plant pathology. Elsevier Academic press, Florida, 2004.



TADBIRKORLIK FAOLIYATI ERKINLIGINING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI

Ilimbayev Sardor

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti 3-kurs talabasi
Telefon: +998(33)1601801
ilimbayev1801@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6798983>

Annotatsiya: Mazkur maqolada tadbirkorlik faoliyatining huquqiy maqomi mavjud O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nechog'lik tartibga solinganligi bilan bog'liq muhim va ishonchli normalar mavjudligi, ularning asosida qabul qilingan hamda birgalikda tadbirkorlar huquqlari kafolatlarining ustuvor mezon sifatida xizmat qilayotgan qonun hujjatlaridagi ahamiyatga molik masalalarni tahlil qilib o'tamiz. Shuningdek, yurtimizda Konstitutsiyani o'zgartirish bilan bog'liq amalga oshirilayotgan, xususan, omma tomonidan tadbirkorlik faoliyatining huquqiy kafolatlarini takomillashtirish to'g'risidagi takliflar soni oshib bormoqda.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, xususiy mulk, tadbirkorlik subyektlari, iqtisodiy faoliyat, mulkdor, davlat, fuqaro, yalpi ichki mahsulot.

Tadbirkorlik huquqi esa huquq tarmog'i sifatida tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi huquq normalari yig'indisidan iboratligi barchamizga ma'lum. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XII bobi jamiyatning iqtisodiy negizlari deb nomlanib, unda tadbirkorlik haqida ham so'z borgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasiga ko'ra, bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi, davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlashini, xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi, mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkinligi belgilab qo'ygan. Bu tadbirkorlik faoliyatining konstitutsiyaviy kafolatlari hisoblanib, ularning huquqlari

himoya qilinishi lozimligini anglatadi. Bundan tashqari, bu norma O‘zbekiston Respublikasi hududidagi har bir fuqaroning tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi va mulkdor bo‘lish huquqini kafolatlaydi.

Professor O.T. Husanovning fikrlariga ko‘ra, mamlakat iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etadi. Davlat esa, ularning tengligi bir xilda muhofaza etilishini ta‘minlaydi. Konstitutsiyada xususiy mulk hamda umumiy bo‘ylik hisoblanuvchi davlat mulkining mavjudligi ko‘rsatilgan. Bozor iqtisodiyoti ma‘lum prinsiplarga tayanadi. Bular mamlakat iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslanishining konstitutsiyada mustahkamlanganligi, mulk shakllarining xilma-xilligi va ularning bab-baravar muhofaza etilishi; iste‘molchi huquqining ustuvorligi, erkin iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, xususiy mulkning daxlsizligi va davlat himoyasida bo‘lishi, mulkdan mahrum etish faqat qonunga asosan amalga oshirilishi hisoblanadi. Davlat ana shu prinsiplarni amalga oshirishni ta‘minlaydi va jamiyat iqtisodiy negizlarining huquqiy asoslarini mustahkamlash vazifasini bajaradi. Shunday qilib, jamiyatning iqtisodiy negizlari, bu – xilma-xil mulk shakllari (ommaviy, umumxalq va xususiy mulk) turli qonunga muvofiq tashkil qilinadigan iqtisodiy faoliyat, barcha mulklarni bab-baravar muhofaza qilish mexanizmlaridan iboratdir²⁹.

Ushbu olimni fikrini tahlil qilsak, tadbirkorlik qilish erkinligini bozor iqtisodiyotini prinsiplaridan biri sifatida e‘tirof etib, jamiyat iqtisodiy negizlarining huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilishi darkorligini ta‘kidlagan.

Yuqoridagi konstitutsiyaviy norma O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-maydagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun bilan ham belgilangan bo‘lib, ushbu qonunning asosiy vazifalari fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratishdagi, ularning ishchanlik faolligini oshirishdan, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Ushbu qonunning 3-moddasida tadbirkorlik

²⁹ O.T. Husanov “Konstitutsiyaviy huquq”. Darslik. – Toshkent: “Adolat”, 2013. 202 b.

tushunchasi berilgan bo‘lib, unga ko‘ra tadbirkorlik — tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyatdir. Bu qonunda ham tadbirkorlik faoliyati davlat tomonidan kafolatlangan bo‘lib, 18 va 19-moddalarida tadbirkorlik faoliyati erkinligining konstitutsiyaviy kafolatlari, ya’ni davlat iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza qilishini kafolatlanishi, xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi, mulkdor mulkiga o‘z xohishicha egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi, tadbirkorlarga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy qarorlari, ularning mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsiligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi hamda tadbirkorlik faoliyati subyektlari qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan va ta’sis hujjatlarida ko‘rsatilmagan har qanday faoliyat turi bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shug‘ullanishlari mumkinligi ko‘rsatilgan³⁰.

Bulardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, bunday konsitutsiyaviy kafolatlar tadbirkorlik faoliyatini tom ma’noda jadal rivojlanishiga, tadbirkorlarning huquqlari kafolatlanishiga, mamlakat iqtisodiyotining gullab-yashnashiga, ichki va tashqi iqtisodiy bozor kengayishiga, yalpi ichki mahsulot ortishiga xizmat qilib kelmoqda.

Biroq, rivojlangan davlatlar konstitutsiyasi, xususan, AQSh konstitutsiyasiga diqqatimizni qaratadigan bo‘lsak, korporatsiyalar foyda olishga intilish huquqiga ega. Xodimlarning burchi rentabellikni oshirish uchun o‘z vazifalarini sidqidildan bajarishdan iboratdir. Korporatsiya faqat foyda ko‘rish uchun o‘z xodimlarining yoki jamiyatning huquqlarini buzolmaydi. Masalan, kompaniya xodimlarga eng kam ish haqidan kamroq maosh to‘lay olmaydi yoki daromadni oshirish uchun ularni xavfli soatlarda ishlashga majburlay olmaydi. Kompaniyalar boshqa kompaniya

³⁰ http://minjustuz.ru/uz/gcontent.scm_groupId=4140§ionId=4262&contentId=7530.html

manfaatdor tomonlari, jismoniy shaxslar yoki jamiyat huquqlarini buzadigan poraxo‘rlik, sifatsiz xizmat yoki soxta reklama kabi g‘ayriqonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirmasligi lozim.

Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadlari orasida jamiyatga qaytishning muhimligi, bu rol ijtimoiy mas‘uliyat sifatida tanilgan. Korxonalar ma‘lum bir jamiyat a‘zolari oldida axloqiy majburiyatlarga ega. Biznes etikasi qoidasi jamiyat a‘zolari va tashkil etilgan korxonalar o‘rtasida o‘zaro kelishuvni ta‘minlaydi. Jamiyat a‘zolariga jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qiladigan imtiyozlardan foydalangan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga ruxsat beradi. Bu imtiyozlarga iqtisodiy samaradorlik, takomillashtirilgan qarorlar qabul qilish hamda zamonaviy texnologiya va resurslarni egallash va ulardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish kiradi. Ushbu ijtimoiy ruxsat huquqiy tan olish va ijtimoiy tabiiy va inson resurslaridan foydalanish uchun ruxsat olish bilan tenglashtiriladi. Lekin, bularning barchasi belgilangan qonunlar doirasida amalga oshirilishi kerak.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar soliq va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘lashi lozimligi, ishlab chiqarish jarayonida atrof-muhit qoidalariga rioya etishi, mehnat qonunchiligiga rioya etishi, cheklovchi savdo amaliyotlaridan hamda korrupsiyadan saqlanishi lozimligi belgilab qo‘yilgan³¹.

Mamlakatimizda Konstitutsiyani isloh qilish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar hamda takliflar orasida zikr qilib yuritayotgan mavzumizga ham alohida urg‘u berilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 20-iyun kuni Konstitutsiyaviy komissiya a‘zolari bilan uchrashdi. Davlat rahbari yangi Konstitutsiya loyihasini qabul qilish uchun referendum o‘tkazilishini e‘lon qildi. Uchrashuvda prezident asosiy qonunga qator normalarni kiritish bo‘yicha ilgari surgan takliflari orasida tadbirkorlar qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirishga, cheklanmagan miqdorda daromad olishga haqliligi, davlat xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik va

³¹ [https://www.upcounsel.com/business-constitutional rights#:~: 20for%20sim](https://www.upcounsel.com/business-constitutional-rights#:~:20for%20sim)

investitsiyaviy muhit hamda sharoitlarni ta'minlashi, erkin va halol raqobatni himoya qilishi, iqtisodiy faoliyatda monopollashtirishga yo'l qo'yilmasligini kafolatlashi lozimligi kabilari mavjud³². Bu tadbirkorlar uchun yanada yangi va keng imkoniyatlarga yo'l ochishi bilan bir qatorda ularni qonuniylashtirilgan faoliyat prinsipi asosida faoliyat yuritishini konstitutsiyaviy-huquqiy muhofazasini ham ta'minlaydi desak ta'bir joiz bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytadigan bo'lsak, tadbirkorlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlanmagan har qanday faoliyat turi bilan shug'ullanib, undan daromad olishga haqli bo'lishi shartligi konstitutsiyaviy islohotlarning bosh bo'g'inlaridan biriga aylanishi kerak. Shuningdek, davlat qanchalik tadbirkorlarga kengroq huquq va imkoniyatlar yaratishi, ularda shunchalik majburiyatlar ko'lamini hamda qaysi bir qonunchilikda belgilangan faoliyat turi bo'lmasin ushbu faoliyatda ma'suliyat hissini oshirishi bilan ham izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi <https://lex.uz/docs/-20596>
2. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonun <https://lex.uz/docs/-2006789>

Asosiy adabiyotlar:


1. O.T. Husanov "Konstitutsiyaviy huquq". Darslik. – Toshkent: "Adolat", 2013.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitsiyasiga sharh – T.: "O'zbekiston" 2013.

Internet web-saytlar:

1. www.lex.uz
2. www.yurida.uz
3. www.norma.uz
4. http://minjustuz.ru/uz/gcontent.scm_groupId=4140§ionId=4262&contentId=7530.html

³² <https://kun.uz/73615385>

5. <https://kun.uz/73615385>
6. [https://www.upcounsel.com/business-constitutional rights#:~: 20for% 20sim](https://www.upcounsel.com/business-constitutional-rights#:~:20for%20sim)



QAND JO'XORINING XALQ XOJALIGIDAGI AXAMIYATI

¹Azizov Aktam Sharipovich, professor.

²Nasibaliyev Jamshid, magistr.

¹Toshkent davlat agrar universiteti kafedra professori

²Toshkent davlat agrar universiteti kafedra magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6799640>

Annotatsiya. Ushbu maqolada qand jo'xorini saqlash va qayta ishlashda uning nonvovlik xususiyatlari ilmiy asoslash hamda xalq xojaligidagi axamiyati to'g'risida amaliy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Qand jo'xori, qurg'oqchilik, hosildorlik, poya sharbati, ozuqaviy qiymati, qayta ishlash sanoati.

Аннотация. В данной статье представлена практическая информация о научных основах хранения и переработки сахарная кукурузы и ее значении в народном хозяйстве.

Ключевые слова: Сахарная кукуруза, засуха, продуктивность, стеблевой сок, питательность, перерабатывающая промышленность.

Annotation. This article provides practical information about the scientific justification of sugar corn storage and processing and its importance in the national economy.

Key words: Sugar corn, drought, productivity, stem juice, nutritional value, processing industry.

Kirish. Ma'lumki, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash xalq xo'jaligida juda katta ahamiyatga ega. Shunday ekan, mustaqil respublikamiz aholisining turmush tarzini yanada yaxshilash uchun nafaqat qishloq xo'jaligi, xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarini ham kompleks rivojlantirish kerak bo'ladi.

Jumladan, Respublikamiz Prezidenti SH.M.Mirziyoev va Vazirlar Maxkamasi qishloq xojaligini rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirishga katta e'tibor berib kelmoqda. Buning uchun qishloq xojaligi korxonalari

bilan yetishtiruvchilarning hamkorligini mustaxkamlash, fan bilan ishlab chiqarishni bog'lik holda olib borish barcha soxalarda rejalarni bajarishda muxim omil xisoblanadi. Ayniqsa qishloq xojaligida yetishtirilgan xom ashyoni qayta ishlash jarayonlari o'ta murakkab bo'lib, bajariladigan ishlarni tezlashtirish va maxsulot sifatini oshirish asosan yangi texnologiyalarni izlab topish va ularni keng ko'lamda qo'llashga bog'lik.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda dunyo bo'yicha qand jo'xori 85 dan ortiq mamlakatlarda qariyb 50 mln. gektardan ortiq maydonda yetishtirilmoqda, uning yalpi hosili 64 mln. tonnani tashkil etmoqda. Yetishtirilgan hosilning asosiy qismi qand va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda qo'llanilsa, ma'lum qismi chorvachilikda yem-xashak sifatida foydalaniladi. Dunyo bo'yicha qand jo'xori yetishtirishda yetakchilik qilayotgan Hindiston – (18,5 mln.ga), Argentina – (8,9 mln.ga), Kamerun – (8.0 mln.ga), Braziliya – (7,3 mln.ga) va Xitoy (5,5 mln.ga) kabi davlatlarda ushbu ekin turining yuqori hosildor, kasallik va zararkunandalarga chidamli yangi navlarini yaratish, o'simlik poyasi va don tarkibida qand, oqsil va boshqa muhim ozuqa moddalar miqdorini maksimal oshirishga qaratilgan maqbul agrotexnik tadbirlarni ishlab chiqish masalalari dolzarb muammo hisoblanadi. So'ngi yillarda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida qand jo'xori poyasini qayta ishlab bioyoqilg'i olish yo'lida birqancha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, AQSH va Braziliya davlatlari zimmasiga dunyo bo'yicha ishlab chiqarilayotgan bioyoqilg'ining (bioetanol) 70% dan ortiq ulushi to'g'ri keladi. Bioetanol yoqilg'isini ishlab chiqarishda foydalaniladigan xom-ashyosining asosiy qismini qishloq xo'jaligi ekinlari tashkil etadi. Jumladan, donli ekinlardan 34-36%, kartoshkadan 9-12%, qand lavlagidan 12%, shakarqamishdan 6-8%, qand jo'xoridan 9-15%, tapinamburdan 9-13% bioetanol olish mumkinligi to'g'risida ilmiy natijalar mavjud.

Tadqiqotning maqsadi qand jo'xoring poya sharbatida yuqori qand to'plovchi navlarini tanlash, yetishtirish va ulardan muqobil energiya xomashyosi sifatida foydalarish istiqbollarni ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sho'rlangan va tipik bo'z tuproq sharoitlarida qand jo'xori navlarini o'sishi va rivojlanishining morfobiologik xususiyatlari, xo'jalik qimmatli belgilarining shakllanishi va o'suv davrini tadqiq qilish;

qand jo'xori navlari poyasida o'suv fazasiga bog'liq ravishda qand to'planish dinamikasini aniqlash;

qand jo'xori navlari xo'jalik-qimmatli belgilari o'rtasidagi korrelyasion bog'liqlikni tadqiq qilish;

muqobil energiya xomashyosi sifatida foydalanishga mo'ljallangan qand jo'xori navlari biomassasi va sharbatini biokimyoviy tahlil qilish;

muqobil energiya xomashyosi sifatida qand jo'xori sharbatini bijg'itish uchun maqbul achitqi shtammlarini tanlash;

qayta tiklanuvchi energiya manbai sifatida o'simlik xomashyosiga dastlabki ishlov berish texnologiyasini ishlab chiqish;

qand jo'xori biomassasidan muqobil energiya xomashyosi sifatida foydalanishga mo'ljallangan universal aktivatorli vakuum-bug'latish qurilmasining tajriba nusxasini yaratish va ishlab chiqarishda sinash;

qand jo'xori biomassasidan muqobil energiya olish jarayonida hosil bo'ladigan ikkilamchi mahsulotlardan qishloq xo'jaligida samarali foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar tayyorlash.

Tadqiqotning ob'ekti bo'lib poyasining tarkibida yuqori miqdorda uglevod to'plovchi qand jo'xorining ertapishar, o'rtapishar va kechpishar guruhlariga mansub O'zbekiston 5, Qorabosh, Voljskoe 51, Asalberg, Oranjevoe 160, Yantar ranniy, O'zbekiston 18, Golozerno, ICSR 93034 va G-7 navlari, poya sharbatini bijg'itish jarayonida foydalaniladigan *Saccharomyces cerevisiae* achitqisining irqlari va shtamlari va bioyoqilg'i (bioetanol) olishga mo'ljallangan "Universal aktivatorli vakuum bug'latish" qurilmasining tajriba nusxasi xizmat qilgan.

Qand jo'xorini saqlash va qayta ishlashda uning nonvovlik xususiyatlari ilmiy asoslash hamda xalq xojaligidagi axamiyati

Qand jo'xori o'zining biologik xususiyatlariga ko'ra keng qo'llanilish imkoniyatlariga ega o'simlik hisoblanadi. Qurg'oqchilik, tuproq sho'rlanishiga

chidamlilik, tuproq turlarini tanlamaslik, o'g'itlash va sug'orishga yuqori darajada sezgirlik va yuqori biomassa hosildorligi ushbu o'simlikka xos xususiyatlardandir. Uning biomassasi qator olimlarning [1; 27–31-b.] ta'kidlashicha, chorva mollari uchun silos, tannarxi arzon bo'lgan qand va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

Qandli jo'xori asosan ozuqa maqsadlarda yetishtiriladi. Rivojlanayotgan davlatlarda u asosiy oziq-ovqat ekinidir. Undan un, yorma va non mahsulotlari tayyorlashda ishlatiladi. Rivojlangan davlatlarda jo'xori bioetanol mahsulotini ishlab chiqarishda xom-ashyo sifatida foydalaniladi [2; 3-11-b].

Har yili jahonda jo'xori 47-50 mln gektar maydonga ekiladi. AQSHda don uchun ekilgan maydoni 5.2 mln gektardan ko'p, o'rtacha hosildorligi esa 33.6 ts/ga bo'lgan. Yevropa mamlakatlarida eng yuqori hosildorlikga Ispaniya erishgan 34 ming ga maydondan o'rtacha 55.3 ts don hosili olingan. Xitoyda don uchun 3 mln.ga yerga jo'xori ekilib, o'rtacha hosildorligi 25.0 ts/ga. Hindistonda 10.5 mln.ga yerdan olingan, o'rtacha hosildorligi 9.5 ts/ga bo'lgan [3; 11–54-b.].

XX asrning boshlarida O'zbekistonda jo'xori 140 ming gektarga ekilib, hosildorligi 24-28 sentner bo'lgan. Hozirgi kunda uning maydonlari ancha kam. Don uchun ekiladigan maydon 5.0 ming gektar atrofida, hosildorligi esa 10 ts/ga bo'lgan [4; 112–202-b.].

Dunyo bo'yicha qurg'oqchilikka o'ta chidamli o'simliklardan biri qand jo'xori o'simligi (*Sorghumsaccharatum Pers.*) hisoblanadi. Bu borada ko'plab ilmiy-adabiy manbalar va global hisobotlarda alohida ta'kidlangan [5; 210-214-b.].

Qand jo'xorini makkajo'xoriga nisbatan raqobatdoshligiga quyidagilar kiradi: yuqori hosildorligi; urug'ni sarfi (2-3 marta) va sotib olish xarajatini kamligi; poyasini yuqori egiluvchanligi; kech ekish va erta yig'ishtirish imkoniyatga egaligi; yer ustki qismining yuqori maysa hosil qilishi (2-3 o'rim); universal foydalanish mumkinligi va h.q.

Qand jo'xorini don tarkibida: oqsil (11-15 %), kraxmal (68-73 %), yog' (3,5-4.5 %), karotin, B gurux vitaminlari, riboflavin va oshlovchi moddalardan iborat [6; 7–19-b.].

Qator olimlarning ta'kidlashicha [7; 27–31-b.]; [8; 19–32-b.], qand jo'xori hosildorligi jihatidan yuqori imkoniyatlarga ega, mahsulot sifatida universal darajada foydalanish mumkin bo'lgan aynan shunday ekindir. Bundan tashkari dala dehqonchiligida foydalaniladigan ekinlar ichida qurg'oqchilikka, issiqqa chidamliligi bo'yicha ham ushbu ekin yuqori ustunlikka egadir.

K.Botabekova, K.K. Azizovlarning [9; 74-75-b.] yozishicha, jo'xori asosan ozuqa maqsadlarda yetishtiriladi. Qator davlatlarda u asosiy oziq-ovqat ekini hisoblanadi, undan un, yorma va non mahsulotlari tayyorlashda ishlatiladi.

Qand jo'xori poyasidan ajratib olingan sharbatni qayta ishlab, glyukoza-fruktoza qiyomi, spirt, pivo, sirka kislotasi, hattoki bioyoqilg'i mahsulotlari olinadi.

Qator olimlarning tajribalarida qand jo'xori poyasidan olingan qiyom tarkibida K, Na, Cu, Mn, Fe, Zn, Ca, P, Mg, Co, S, shuningdek, 3% gacha protein, qator almashinilmaydigan aminokislotalar (inson organizmda hosil bo'lmaydigan, ovqat orqali olinadigan), B₁, B₂, PP, E va D vitaminlar mavjud bo'lishi aniqlangan. Ko'rinib turibdiki, uning qiyomi yuqori oziqa qiymatiga egadir.

Tajribalarda aniqlanishicha, qand jo'xori qiyomi seziiy radiaktiv moddasini kamaytirish xususiyatiga ega. Ushbu o'simlikdan olingan qiyom tarkibida glyukoza, saxaroza, fruktoza teng miqdorda bo'lishi aniqlangan. Moldaviya seleksioner olimlariining ta'kidlashicha, bir gektar maydonga ekilgan qand jo'xori ekinidan 8-10 tonna asalari asaliga tenglashtirilgan qand jo'xori qiyomini olish mumkin.


Qator olimlarning tadqiqotlarida aniqlanishicha, bir tonna yaxshi etilgan poya xomashyosidan 18-24% qand moddasiga ega bo'lgan 550 litrgacha sharbat olish mumkin.

Xulosa. Yuqoridagi ma'lumotlardan ham ko'rinib turibdiki, qand jo'xorini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash, qishloq xojaligidagi axamiyati va nonvoylik xususiyatlari bir-biriga bog'liqlik jihatlari yaxshi o'rganilmagan. Bizning asosiy maksadimiz qand jo'xorini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash, qishloq xojaligidagi axamiyati va nonvoylik xususiyatlarining mahsulot sifatiga ta'sirini o'rgangan olimlarning ma'lumotlarini tahlil qilib, ilmiy ishimda to'liq

o'rganilmagan muammolarni yanada chuqurroq o'rganish rejalashtirilgan. Olingan ilmiy ma'lumotlar kelgusida qand jo'xorini saqlash va qayta ishlash sohasida foydalanish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Малиновский Б.Н. Наследование ЦМС у сорго. В кн. «Гетерозис в растениеводстве». Ставрополь, 1966. С. 154.
2. Аббас О.Т. Выращивание сахарного сорго в условиях дельты Волги и разработка технологии производства напитков функционального назначения на его основе: Автореф. дис. канд.с-х.наук: 06.01.09.- Астрахань, 2009.- С.3-11.
3. Алабушев А.В. Технологические приёмы возделывания и использования сорго. – Ростов-на-Дону, 2007. – С. 11-54.
4. Атабаева Х.Н., Массино И.В. Биология зерновых культур (учебник). Ташкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – С. 112-202.
5. Fernandes G., Thais G. Braga. Evaluation of potential ethanol production and nutrients for four varieties of sweet sorghum during maturation // Renewable Energy.-2014.-Vol. 71.- P. 518–524.
6. Малиновский Б.Н. Сорго-надёжный источник кормов в зоне Северного Кавказа // Сорго-ценная кормовая культура. – Ростов н/Д., Изд-во Ростовского университета, 1984. – С. 7-19с.
7. Масленникова Е.В. Сорго. Серия «Пищевая промышленность» // Изд-во «Знание», - М., 1984. - С.27-31.
8. Алабушев, А.В. Эффективность производства сорго. Текст. / А.В. Алабушев, Л.Н.Анипенко. Ростов-на-Дону, ЗАО «Книга», 2002. С. 19-32.
9. Бегдуллаева Т., Орел Л., Руденко И., Ибрагимов Н., Ламерс Дж., Тодерич К.Н, Халикулов З., Мартиус К. Продуктивность местных и интродуцированных сортов сахарного сорго в условиях Каракалпакстана.// Вестник ККО АН РУз. 2009. №2, С. 215.



THEORETICAL FOUNDATIONS AND CALCULATION METHODS OF ENERGY-SAVING MODES OF AUTOMATED ELECTRICAL VEHICLES

Abduraxmonov Aziz Mahmud ògli

Student of Termiz Institute of Engineering and Technology
+998994241477

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6891015>

***Abstract:** It is known that about 60 - 70% of the electricity generated in the whole world is consumed by the electric drives of various mechanisms and equipment. Almost 50% of the electricity produced in the world is consumed by alternating current and constant current electrical systems. This article provides information about the theoretical basis and calculation methods of energy-saving modes of the system.*

***Key words:** Useful work coefficient, electric motor, drive, Asynchronous electric drive.*

Currently, there are the following main ways to save energy in an automated electric vehicle:

1. By improving the motor selection method according to the real change of the load of the production mechanism, the correct selection of the motor power of the electric drive, because if the motor power is smaller than the load power, the motor will convert energy inefficiently and die when working. the power wasted in the wall and in the transmission line is greatly increased.
2. Replacement of automated electric drive motors of production mechanisms with energy-saving electric motors with increased FIK and power coefficient values due to increase in asset mass (copper and iron);
3. The transition from non-speed-adjustable electric drives to adjustable-speed electric drives allows to save resources (water, heat, etc.) not only in the automated electric drive system, but also in the production mechanism.
4. Development and creation of a special technical solution that ensures the minimum energy requirement in cases where the load is variable in electrical circuits

whose speed is not adjustable, as well as in controlled automated electrical circuits due to changes in the coordinates of the electrical circuit according to the requirements of the technological process. Choosing and implementing one of the above ways of energy saving depends on the specific conditions created by the technological mechanism, and each of them has its own advantages and disadvantages. Taking into account the energy crisis and the increase in the prices of energy carriers, the way to save a large part of the required energy due to the improvement of electric traffic control means is of particular importance. A promising way is the fourth way, which allows to save energy by 30-40% due to the improvement of the automatic electric drive control algorithm. Therefore, the main attention should be focused on the theoretical issues and calculation methods of energy-saving automated electric driving due to the fundamental improvement of the control algorithm and the most convenient (optimal) control, which ensures the least energy required, due to the operation of new automated electric driving systems. It is known that the largest consumer of electricity in all countries is mainly alternating current electric vehicles, especially electric vehicles with asynchronous motors, which convert almost half of the electricity produced in the world into mechanical energy. The operation of the main part of these motors with a low load or at values much smaller than the nominal one leads to a significant reduction of FIK and SOSP of the electrical system. This situation greatly affects the excessive consumption of electricity and heat energy in the world. Therefore, as an object of analysis, mainly automated electric drive with asynchronous motor was taken. But it will be useful to consider the methods of optimal management of direct current electrical systems.

For fans, air conditioners, pumps and air drive (resting) and other general industrial mechanisms, which are widely used in all industries and various fields of agriculture, depending on the real load of the mechanism, which is important in the national economy, the number of electrical systems improvement of indicators is carried out with the help of an electric drive system with high efficiency. An electric drive system with an extremely controlled asynchronous motor includes:

asynchronous motor M connected to the output of the thyristor voltage adjuster TKR, the control system of the thyristor adjuster BT, the signal collector adder S; motor voltage measuring transducer K 0'0 ' - the output voltage signal differentiation block (KDB) of this measuring transducer is connected;

the electric motor power measurement converter Q 0 '0 ' - the output is connected to the multiplier block (KB);

the output of the arithmetic block (AB) is also connected to this block;

The output of KB is connected to the differentiating block (QDB);

The outputs of the differentiation blocks KDB and QDB are connected to the input of the dividing block (BB), and the output of BB is connected to one of the inputs of S. Reducing the wasted electrical energy when asynchronous electric machines work with a changing load is carried out by adjusting the voltage supplied to the motor stator in the function of load or current.

If the asynchronous electric motor is controlled with the minimum power loss in a wide range of frequency changes, the temperature increase of the motor will be minimum, its absolute value will be slightly smaller than the set value. Therefore, automatically maintaining the optimal value of the magnetic current, which minimizes the loss of electric magnetic power, in turn ensures the minimum heating of the motor and creates conditions for the increase of not only the FIK, but also the useful power reserve in a wide range of frequency changes. .

In the conditions of the current energy crisis, besides the traditional functions of production devices, such as starting, braking, speed and torque adjustment, an additional, but now the most important, function - energy saving function - is loaded. If this important function is implemented, the electric drive system will have high technical-economical and energetic indicators when the load on the shaft of the electric motor changes in a wide range, from pure operation to nominal.

Most machines and mechanisms (fans, pump units, compressors, air drives, etc.) asynchronous electric drives are always under load, static data show that the average load of the connection is about 30 - 60% of the nominal load. is, electric motors will have an average of 1500 working hours per year. Failure to use the full capacity of

the motor or unreasonable increase of the power of the connection, as well as the operation of the electric motor with low load during additional operations, will lead to a significant decrease in the energy performance of the electric vehicle.

The operation of asynchronous electric drives with low load of the production mechanisms leads to the failure to fully use the installed power of the connection, the unjustified excess consumption of the active and especially reactive power required by the motor, the reduction of the energy efficiency of the device, and the increase of the electric energy consumed per unit of the produced product. In order to effectively use the installed capacity of an asynchronous motor electric drive and to improve the energy performance of the connection, as well as to eliminate (reduce) the unnecessary excess consumption of the power required by the electric motor, widely used asynchronous electric drives without adjustable speed, whose speed is adjustable with frequency A new energy-saving controller for automated electric drive and asynchronous-valve cascades is proposed. Offers are protected by "know-how", copyright certificates and patents of Russia and Uzbekistan.

General industrial energy-saving asynchronous electric drive An asynchronous electric drive with an energy-saving controller works in the following order. A task signal U_{top} is given to the first input of adder 4 (in this case, the adjustable voltage of alternating current) during the startup of asynchronous motor 1, since the mode of operation with the minimum electric current is not provided, the memory block 5 is in a closed state and the input of thyristor control unit 3 is supplied with the $U_b = U_{top}$ signal from the output of accumulator 4. This corresponds to the formation of the maximum value of the voltage U_{max} in the unit 2 of power thyristors, which is equal to the nominal voltage of the motor 1.

Preparation of an experimental sample of an energy-saving controller asynchronous electric drive:

A mock-up of an asynchronous electric drive controlled by an energy-saving controller with a capacity of up to 30 kW in optocouplers and 160 kW in thyristors was prepared to control a short-circuited rotor asynchronous motor. The controller is assembled on the basis of the elements produced in the CIS enterprises, the

dimensions of the energy-saving block are 150x150x100 mm, the power is 30 kW, if necessary, the power is 500 kW and more, according to the customer's request. can be prepared. The energy-saving controller provides a number of the following functions:

- depending on the load value, the value of the stator winding voltage changes with the optimization of the stator current;
- smooth change of voltage from zero to nominal at start-up;
- protect the electric motor by disconnecting it from the network;
- if one of the phases is disconnected by the mains supply network and by the motor,
- notification that the protection has worked, that there is a provision in each phase;
- limiting the starting current of the electric motor (1 - 7) in the adjustment range IN;
- the ability to reset the operation of protective devices

The use of the controller is most effective in motor drives with 0 variable loads and small loads.

References:

1. Charles K. Alexander Matthew N.O. Sadiku "Fundamentals of Electric Circuits" NEW YORK, 2014.-458 p
2. John Bird. "Electrical and Electronic Principles and Technology" LONDON AND NEW YORK, 2014.-455 p
3. Karimov A.C. Theoretical foundations of electrical engineering. Textbook. - T.:Ukitchich, 2003. - 422 p.
4. Rashidov I.R., Abidov K.F., Kolesnikov I.K. of electrical engineering theoretical foundations 1. II. Part III (Collection of Lecture Texts), TDTU, 2002. - 250 6.
5. Amirov S.F., Yakubov M.S., Jabbarov N.G. Theory of electrical engineering basics.Parts I-III. Tashkent; 2007, - 426 p.
6. Amirov S.F., Yakubov M.S., Jabbarov N.G', Satorov X.A., Balgayev

N.E. A collection of problems from the theoretical foundations of electrical engineering.-T.: Literature sparks, 2015. -420 p.